

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi  
Andijon davlat universiteti

D.A.Nabiyeva, H.R.Zokirova

# **O‘ZBEK TILI FONETIKASI**

O‘QUV-USLUBIY QO‘LLANMA

ANDIJON - 2016

Taqrizchilar: Sh.Shahobiddinova – filologiya fanlari doktori, professor.

U. Rahimov – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Mas’ul muharrir: Z.Qodirov – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Ushbu o‘quv qo‘llanma Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2016-yil 6-aprel 137-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan 5120100 – filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek filologiyasi) ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasi va Hozirgi o‘zbek tili faning namunaviy dasturi asosida yozilgan bo‘lib, unda nazariy fonetika masalalari yoritilgan.

Mazkur qo‘llanma oliy o‘quv yurti filologiya fakultetining birinchi bosqich talabalariga hamda fonetikaning nazariy masalalarini o‘rganuvchi barcha qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

Mazkur qo‘llanma ADU o‘zbek tilshunosligi kafedrasining yig‘ilishida (2015 yil 12-may, 3-raqamli bayonnoma), ADU Ilmiy-metodik kengashi yig‘ilishida (2015-yil 26-noyabr, 3-raqamli bayonnoma) muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

## SO‘Z BOSHI

Prezidentimiz I.A.Karimov: “Ilmu fan sohasidagi harakatlarimiz ham, ilmiy ishlarimiz va yutuqlarimiz ham dunyodagi eng ilg‘or mezonlar bilan o‘lchanishi lozim”<sup>1</sup>, - degan edilar. Bu fikr o‘zbek tilshunosligi uchun ham bevosita dahldordir. Respublikamizda yuz berayotgan o‘zgarishlar yosh avlodning har tomonlama mukammal bilimga ega bo‘lishini talab etadi. Shu maqsadda darslik va qo‘llanmalar yangidan yaratilmoqda, zamon talablariga hamda o‘quvchilarning bilim darajasiga muvofiqlashtirilmoqda. Ayniqsa, yosh avlodning o‘zbek tili hamda xorijiy tillar yuzasidan egallagan bilim ko‘nikmalarini mukammallashtirishga jiddiy e‘tibor berilmoqda. Avvalo, shuni ta’kidlash kerakki, har qanday chet tilini o‘rganish ona tilining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini chuqur o‘zlashtirish asosida amalga oshiriladi.

Hozirgi o‘zbek tilshunosligi jahon tilshunosligi qo‘lga kiritgan eng yangi yutuqlarni e‘tiborga olmog‘i lozim. Shu sababli qo‘llanmada hozirgi o‘zbek tili fonetikasining nazariy masalalari, jumladan, fonologik sath birliklarida umumiylik va xususiylik dialektikasining aks etishi, jahon tilshunosligi maktablarida fonema nazariyasi, o‘zbek tilshunosligida fonologik qarashlar, o‘zbek tilining unlilar va undoshlar sistemasi, ularning farqlovchi va qo‘shimcha belgilari, paradigmatic tavsifi hamda sintagmatik munosabatlari kabi masalalar haqida fikr yuritilgan.

Qo‘llanma amaldagi o‘quv rejalari va o‘quv dasturlari talablariga mos tarzda tuzilgan bo‘lib, hozirgi o‘zbek adabiy tili fonetikasining nazariy masalalariga bag‘ishlangan. Har bir mavzu chuqur yoritilgan bo‘lib, bu mavzular yuzasidan tayanch so‘z va iboralar, topshiriq va savollar berilgan. Nazariy fonetikaning tayanch terminlari lug‘ati (glossariy) tuzilgan. Bu esa talabalarning o‘quv-uslubiy qo‘llanma bilan ishlashini osonlashtiradi.

Albatta, ushbu qo‘llanmada ayrim munozarali o‘rinlar ham bo‘lishi mumkin. Mualliflar fikr va mulohazalaringizni ushbu manzilda kutib qoladilar:

Andijon shahri, Universitet ko‘chasi, 129-uy

---

<sup>1</sup> Каримов А. Биздан озод ва обод ватан қолсин. 2-китоб.-Т.: Ўзбекистон, 1996. –Б. 80.

## FONETIKA HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

Reja:

1. Fonetika predmeti, vazifalari va o'rganish ob'ekti.
2. Fonetikaning tilning boshqa bo'limlari bilan munosabati.
3. Fonetikaning yo'nalishlari.

Fonetikada tildagi tovushlar, ularning paydo bo'lishi va turlari, nutq organlari, ularning tovush hosil qilishdagi harakat holati, nutq apparati, nutq tovushlarining akustik va artikulyatsion xususiyatlari, nutq jarayonida sodir bo'ladigan turli xil fonetik hodisalar, nutqning fonetik bo'linishi, tovushlarining kommunikativ roli hamda prosodika kabi hodisalar o'rganiladi. Demak, fonetika – (gr. Phone - tovush) tilning keng ma'noda tovush tuzilishini o'rganuvchi tilshunoslikning bo'limi. U tovushlar bilan bog'liq bo'lgan har qanday hodisalarni tekshiradi. Shu sababli unga tilning faqat tovush tizimini tekshiruvchi bo'lim sifatida qarash noto'g'ri.

Har bir til o'z fonetikasiga ega. U shu tildagi tovushlarning hosil bo'lishi va talaffuzining o'ziga xos xususiyatlarini, uning tasnifi bilan bog'liq masalalarni o'rganadi, talaffuz va yozuv munosabatlarini hamda urg'u va bo'g'in xususiyatlarini tekshiradi.

Fonetika tilning tovushlar sistemasi va shu tovushlar bilan bog'liq bo'lgan har qanday hodisalarni o'rganar ekan, u tilning barcha sathlari bilan, ayniqsa, leksika va grammatika bilan bog'lanadi.

Fonetika tovushlarning almashinishi va o'zgarishi, adabiy talaffuz me'yorlari, to'g'ri talaffuz qilish qoidalari, bo'g'in va urg'u, uning turlari kabi muammolarni ham o'rganadi. Demak, fonetika haqida zaruriy ma'lumotga ega bo'lmay turib, to'g'ri talaffuz qilish bilan aloqador bo'lgan orfografiya va grammatika (morfologiya va sintaksis) qoidalari ustida ham muvaffaqiyatli ish olib borish mumkin emas. Shu bilan birga, fonetikani o'rganish orfografiya (to'g'ri yozish), orfoepiya (to'g'ri talaffuz qilish) me'yorlarini yaxshi o'zlashtirib olishga, adabiy talaffuz bilan shevalar talaffuzi o'rtasidagi farqni aniqlashga katta yordam beradi.

Demak, fonetika tilshunoslikning orfografiya, orfoepiya, leksikologiya, grammatika, dialektologiya kabi bo'limlari bilan bevosita aloqadordir.

Fonetika fizika (akustika qismi) va fiziologiya fanlari bilan ham yaqin munosabatdadir.

Fonetika tovushlarning eshitilish tomonini o'rganishda akustikaga, talaffuz qilinishi, aytilishi, hosil qilinish tomonlarini o'rganishda fiziologiyaga tayanib ish ko'radi.

Bundan tashqari, u adabiyotshunoslik (hijolar, o'lchov metrika va ta'sirli o'qish kabi) va *ijtimoiy fanlar bilan doimiy aloqada bo'ladi*.

Nutq tovushlarini turli tomondan o'rganish mumkin: tarixiy nuqtai nazardan, qiyosiy tomondan, hozirgi o'zbek tili va mahalliy dialektlarning nutq tovushlarini taqqoslash jihatidan, nutq tovushlarini turli asboblarda yordamida eksperiment qilish yo'li bilan va boshqalar. Shunga ko'ra, fonetika *nazariy planda umumiy fonetika va xususiy fonetikaga, amaliy planda esa tarixiy fonetika, qiyosiy fonetika, tavsifiy fonetika, eksperimental fonetika* kabi bir necha sohaga bo'linadi.

**Umumiy fonetika** turli tipdagi tillarning nutq tovushlarining xilma-xilligini o'rganuvchi bo'lim. U turli sistemalar tillarida inson nutq apparatining tovush hosil qilish imkoniyatlarini, nutq organlari yordamida tovushlarni hosil qilish usullari va ulardan nutqda foydalanish imkoniyatlarini o'rganish kabi masalalar bilan shug'ullanadi. U alohida va qarindosh tillarning fonetik sistemasini batafsil va chuqur o'rganish hamda natijalarni umumlashtirish asosida hosil qilinadi. Demak, tillarning fonetik xususiyatlari qanchalik chuqur va izchil o'rganilsa, umumiy fonetika uchun manba shunchalik boy bo'ladi.

**Xususiy fonetika** muayyan bir tilning fonetik bazasini, fonetik qonuniyatlarini umumiy fonetika qonuniyatlariga bo'ysunadi va uning qonuniyatlari asosida faoliyat olib boradi. Xususiy fonetika muayyan bir tilning amaliy fonetikasi hisoblanadi. U turli farazlar, gipotezalar, postulatlardan xoli bo'ladi. Muayyan tilning artikulyatsion bazasi, uning artikulyatsion imkoniyati, akustik refrezentatsion usuli asosida ish ko'radi. Mazkur tilning fonetik ifoda bazasi bilan bog'liq barcha jarayonlar xususiy fonetikada o'rganiladi.

**Tarixiy fonetika** ma'lum bir tilning tovush sistemasini tarixiy rivojlanishda o'rganadi, ya'ni til taraqqiyotining turli davrlarida tovush sistemasidagi tarixiy o'zgarishlarni, ularning o'zgarish sabablarini tekshiradi. Jonli so'zlashuv nutqi, qarindosh tillar tadqiqi natijasida olingan natijalar, til taraqqiyotining turli davrlariga mansub yozma yodgorliklar tarixiy fonetika uchun manba bo'ladi.

Tovushlarning tadrijiy taraqqiyoti shu tilda gaplashuvchi xalqning tarixi bilan bog'liq ravishda o'rganiladi, tarixiy sabablari aniqlanadi. Masalan, o'zbek tilida hozir **v** fonemasining ikkita – lab-lab, lab-tish varianti bor. Tarixiy fonetika **v** fonemasidagi shu belgilarning kelib chiqish sabablarini quyidagicha izohlaydi: lab-lab varianti (**v**) o'zbek tili uchun birlamchi va qadimiy fonema hisoblanadi. Sof o'zbekcha va asl turkcha so'zlarda bu tovushning lab-lab varianti ishlatiladi. Masalan, *ov, suv, yayov, qovun, haydov, yaylov* kabi. O'zbek tilining keyingi paytda boshqa tillar bilan munosabati kuchayishi natijasida bu fonemaning lab-tish varianti yuzaga keladi. Bu variant boshqa tillardan, xususan, arab, *fors* va rus tillaridan o'zlashgan *va'da, vido, vint, vagon, vaqt, viloyat* kabi so'zlarda uchraydi.

Turli davrlarda yaratilgan yozma yodgorliklar, turli grupp va shevalarga xos bo'lgan og'zaki nutq materiallari tarixiy fonetika uchun asosiy manba sifatida xizmat qiladi.

Tarixiy fonetika umumiy fonetikaga, qiyosiy fonetikaga va hozirgi tilning fonetikasiga oid materiallardan ham foydalaniladi.

**Qiyosiy fonetika** qarindosh tillarning tovush sistemasi munosabatlarini o'rganadi. Masalan, turkiy tillarning qiyosiy fonetikasi, slavyan tillarining qiyosiy fonetikasi kabi. Bunda bir qancha qarindosh tillarning yoki bir qancha dialekt va shevalarning materiallari – unli va undoshlar, fonetik o'zgarishlar va shu kabilar bir-biriga qiyoslash asosida o'rganiladi. Masalan, singarmonizm qonuni hozirgi o'zbek adabiy tilida buzilgan, lekin boshqa turkiy tillarda, shuningdek, ayrim o'zbek dialektlarida to'la saqlangan. Bu materialni qiyosiy o'rganish asosida avval o'zbek adabiy tilida ham singarmonizm hodisasining to'la ravishda bo'lganligi to'g'risidagi xulosaga kelish mumkin.

Qiyosiy fonetika bir tomondan, bir oilaga mansub ikki tilning qiyosiy fonetikasini (masalan, rus va nemis tillari qiyosiy fonetikasi), ikkinchi tomondan, ikki oilaga mansub ikki tilning qiyosiy fonetikasini (masalan, o'zbek va rus tillari qiyosiy fonetikasi) o'rganishi mumkin.

Qiyosiy fonetika bir tomondan, umumiy va tavsifiy fonetika materiallariga, ikkinchi tomondan, tarixiy fonetika materiallariga asoslanadi. Qiyosiy fonetika yozuv yodgorliklari va sheva materiallaridan ham unumli foydalanadi.

**Tavsifiy fonetika** yoki fonologiya ma'lum bir til taraqqiyotining ma'lum bir davri oralig'idagi tovush sistemasini o'rganish bilan shug'ullanadi. Ilmiy-tavsifiy fonetika tovushlar dinamikasi bilan ham shug'ullanadi, u tilning fonetik sistemasini hosil qilishda til tarixini chetlab o'tmaydi.

Tavsifiy fonetika tovushlarni quyidagi aspektlarda o'rganadi:

-fiziologik (nutq tovushlarining nutq organlari yordamida hosil bo'lishi – tovushlar fiziologiyasi);

-akustik (o'z sifatlari bilan eshitish taassurotlariga ta'sir etish – nutq tovushlarining akustikasi);

-lingvistik (so'zlarning semantik differentsiatsiyasida tovushlarning o'rni). Aloqa vositasi sifatida uchinchi aspekt asosiy hisoblanib, fonetika lingvistika tarkibiga qo'shadi.

Tovushlarning kombinator, pozitsion variantlari va ularning o'zgarishlari ham shu sohaning asosiy o'rganish ob'ektlaridandir.

**Eksperimental fonetika** nutq tovushlarining fiziologik va akustik xususiyatlarini turli xil asbob-uskunalar yordamida o'rganadi. Tekshirishning ushbu usuli nutq tovushlarining alohida belgi-xususiyatlarini aniq belgilashga imkoniyat yaratadi. Masalan, bu usul vositasida unli tovushlarning cho'ziqlik yoki qisqalik, undoshlardagi portlash yoki sirg'alish hodisasini juda aniq belgilashga, nutq tovushlarining tasnifiga asos bo'ladi.

Fonetika bahsining bunday tarmoqlanishi nutq tovushlarini hozirgi o'zbek tili me'yorlari nuqtai nazaridan tasvirlash, tarixiy ekskursiya niyatida ayrim nutq tovushlarining taraqqiyot protsessiga ham nazar tashlash, adabiy talaffuzning shakllanishi va takomilini ko'rsatish maqsadida adabiy til fonemalarini o'rni bilan markaziy yetakchi shevalarning nutq tovushlariga yo'l-yo'lakay qiyoslab o'tishni taqozo etadi.

Fonetikaning mustaqil bo'lgan bu bo'limlari o'zaro mustahkam bog'langan. Ular bir-birining materiallariga tayanib ish ko'radi.

### Savollar

1. Fonetikaning predmeti va vazifalari nimadan iborat?
2. Fonetikaning oldiga qo'yilgan maqsadi asosida qanday turlari mavjud?
3. Tavsifiy fonetikaning boshqa turlardan farqini aytib bering.
4. Fonetika nimani o'rganadi?
5. Tovush tipi deganda nimani tushunasiz?
6. Fonetika va grammatika munosabati haqida gapiring.
7. Fonetikaning orfoepiya va orfografiya bilan munosabati qanday?

### **Tayanch termin va iboralar.**

*Fonetika, lingvistik sath, til bo'limlari, umumiy fonetika, tarixiy fonetika, qiyosiy fonetika, tavsifiy fonetika, eksperimental fonetika, shakl va mazmun, orfoepiya, leksika, grammatika, grafika, orfografiya, sheva, lahja, ichki manba, tashqi manba, yozma adabiy til, og'zaki adabiy til, adabiy til me'yorlari.*

### **FONETIKA VA FONOLOGIYA**

Reja:

1. Til sistemasida umumiylik va xususiylik.
2. Til va nutq, ularning birliklari.
3. Fonema nazariyasi.
4. Fonetika va fonologiyaning o'rganish ob'ekti.

Amaliy hayotimizda sezgi a'zolarimizga ta'sir etayotgan xususiy narsa va hodisalarni boshqa shunga o'xshash narsa va hodisalarga qiyoslash asosida ularda takrorlanayotgan, o'xshash belgilarni aniqlay olamiz. Ana shu o'xshash belgilar asosida bu narsa va hodisalarni muayyan sinflarga birlashtirish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Ma'lum bir sinfga mansub bo'lgan ob'ektlarning barchasi uchun istisnosiz umumiy bo'lgan belgilar **umumiylik kategoriyasini** tashkil etadi.<sup>1</sup>

Xususiyliklarni bir-biriga taqqoslab, zidlab, ular o'rtasidagi o'xshash belgilar asosida fikriy predmetni, abstrakt narsani hosil qilishimiz **umumiylikni** keltirib chiqaradi.

Xususiylik va umumiylik bilishning ikki chegara qutbi, alohidalik esa ular o'rtasidagi oraliq bo'g'inni hosil qiladi. Alohidalik ikki qutbiy zidlik o'rtasida joylashib, har ikki kategoriyaning muayyan belgilarini o'zida mujassam qiladi.

Dialektik falsafa olamdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi ob'ektiv aloqalarni ochar ekan, umumiylikning o'zida xususiylik va alohidalik-larning barcha boyliklari gavdalanishini, umumiylik xususiyliklarsiz mavjud bo'lmashligini, umumiylikning muhim belgilari esa xususiylik-larda takrorlanishini ta'kidlaydi.<sup>2</sup>

Umumiylik va xususiylik kategoriyasi bilan mohiyat-hodisa kategoriyasi o'zaro uzviy bog'liqdir.

Ob'ektning bamisoli asosini tashkil etadigan va uning mazmunida barqaror bosh narsa sifatida yuz beradigan alohida reallik mohiyat sanaladi. Mohiyat xususiyliklarning asosiy momentlari, tomonlari, ichki aloqasining markaziy nuqtasidir.

Mohiyatning tashqi ayon bo'lishi, uning yuz berish shakli hodisalar orqali ro'y beradi. Hodisa inson sezgi a'zolaridan, jumladan, ko'zdan yashirin bo'lgan mohiyatdan farq qilgan holda, narsalarning sirtida mavjud bo'ladi.

Umumiylik-xususiylik, mohiyat-hodisa kategoriyalari tilda invariant-variantlilik asosida namoyon bo'ladi. Bunda invariant umumiylikni, mohiyatni aks ettiradi, variantlar esa xususiylik, hodisalardir. Invariant va variantlilik tilning barcha sathlarida amal qiluvchi universal kategoriyadir.

<sup>1</sup> Философский словарь. -М.: Полит.литература, 1991. -С.134.

<sup>2</sup> Философский словарь. -С. 135.

Fonologik sathda invariant-variantlilik munosabati ko'pchilik tomonidan tilga olingan bo'lsa-da, invariantni qanday belgilash muammosi turlicha talqin qilinadi. Xuddi ana shu masalada tilshunoslar turli oqimga bo'linadilar.

Fonologik sathda umumiylik-xususiylik, invariant-variantlilikni belgilash dastlab alifbo tizimini yaratgan qadimgi finikiylarda paydo bo'lgan. Chunki harf tovush variantlariga qarab emas, balki tovush tiplariga qarab belgilanadi.

Yozuv tarixi bilan shug'ullanuvchi, deyarli, barcha tilshunoslar<sup>1</sup> ilk fonografik yozuvda har bir harf muayyan bir fonemani ifoda etganligini e'tirof etadilar. Dastlab eramizdan oldingi ikkinchi ming yillikdayoq qadimgi finikiylar 22 ta undosh va bir unli uchun harf belgilagan ekanlar, keyinchalik nabotiyalar o'zlarining tillariga moslab yana oltita harf qo'shib, harflar sonini 28 taga yetkazganligi *haqida malumot beradilar..* Demak, ular cheksiz talaffuz qilinuvchi tovushlarni ma'lum tiplarga birlashtirish haqidagi tasavvurga ega bo'lganlar. Aks holda, fonografik yozuvni ixtiro qilolmagan bo'lardilar.

Bu shuni ko'rsatadiki, eramizdan oldingi ikkinchi ming yillikdayoq amaliy ehtiyoj bilan Sharqda, Arabiston yarim orolida, Falastin va Finikiya mamlakatlarida tilshunoslik, uning fonetika va fonologiya qismi rivojlangan.

Bu an'ana qadimgi Hindistonda ham, Markaziy Osiyoda ham, Gretsiya va Rumo o'lkalarida ham davom etgan. Jumladan, qadimgi hindlar tovushlar tipini ifodalovchi **shpota** atamasini ham ishlatganlar.<sup>2</sup> Arab tilshunosligining paydo bo'lishi va rivojlanishi Payg'ambarimiz Muhammad alayhis salom va Quroni Karim nozil bo'lishi bilan bog'liq. Xususan, Quroni Karim nozil bo'lgandan keyin Payg'ambarimiz uni qorilarga yodlatib, boshqalarga yetkazishni buyurganlar, og'izdan og'izga o'tgan Quron oyatlarining talaffuzini o'zgarganini sezgan Payg'ambarimiz tilshunoslarni (til mutaxassislarini) chaqirib Quroni Karimning o'zgarmas yozma shaklini yaratishga fatvo berdlar va qat'iy to'g'ri talaffuz qilish qoidasini yaratishni buyurdilar. Payg'ambarimiz bu bilan arab tilshunosligining vujudga kelishiga, to'g'ri yozish (orfoografiya), to'g'ri talaffuz qilish (orfoepiya), so'z ma'nosini to'g'ri anglash va yetkazish (semantika) asos soldilar.<sup>3</sup>

Arab tilshunosligida fonetika sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlar turkiy tilshunoslikka ham o'tdi. Chunki O'rta Osiyo arablar tomonidan ishg'ol qilingandan so'ng arab tili fan tili sifatida e'tirof etildi. Garchi arab tilining fonetik sistemasi turkiy tillarning fonetik sistemasiga mos tushmasa-da, barcha ilmiy va badiiy asarlar arab tilida yaratildi. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida turkiy tillarning o'ziga xos fonetik tizimi, arab grafik sistemasidagi ko'p belgilarning turkiy til fonetik birliklariga muvofiq kelmasligi haqida fikr yuritiladi.<sup>4</sup>

Turkiy tillarning fonetikasi yuzasidan Mahmud Zamaxshariy ham fikr yuritadi va unda tovush bilan tovush tipi bir-biridan farqlanadi. Bu esa Yevropa

<sup>1</sup> Дирингер Д. Алфавит. М.: Иностр.лит.,1963. -С.656; Ъвраһъм Таһъгъј. Вурунъ вә һазъгъъ јазувлар таръхъ. Самарқанд –1929 – Taskent: Өзнәсіг. –Б.101.; Гельб И.Е. Опыт изучения письма. М.: Радуга,1982. -С.162; Истрин В.А. Возникновение и развитие письма. М.: Наука,1965. -С.300; Павленко Н.А. История письма. Минск: Высш. шк.,1987. -С.117; Георгиев В. Происхождение алфавита. -Вопр.языкоз.,1952. №6. -С.38-83; Васильев Д.Д. Памятники тюркской рунической письменности азиатского ареала. / Советская тюркология -№1. 1976. -С.71-81; Волков А.А. Грамматология. М.:Наука, 1982. -С.97.

<sup>2</sup> Березин Ф.М. История лингвистических учений. М.: Высш.шк.,1975. -С.6.

<sup>3</sup> Кўрсатилган асар.

<sup>4</sup> Махмуд Қошғарий. Девону луғотит турк. I том, Тошкент: Ўздавнашр, 1963. -Б. 499.

tilshunosligida XIX asrda e'tibor qaratilgan til va nutq muammosi turkiy tilshunoslikda X, XI asrlardayoq kurtak otganidan dalolat beradi.

Til va nutq biri-birini taqozo qiluvchi, biri ikkinchisiz mavjud bo'lmaydigan, o'zaro dialektik aloqada turuvchi kategoriyadir. Til umumlashma: u real, sezgimizga berilgan birliklarning umumiy belgilari asosida hosil qilingan sinflar yig'indisidir. Nutq esa tilning moddiy ko'rinishi, voqelanish shaklidir. Shuning uchun til qanday birliklardan iborat bo'lsa, nutqda xuddi shu birliklar o'z ifodasini topadi. O'z navbatida, nutq birliklari o'xshash, umumiy belgilari asosida muayyan umumiyliklarni, sinflarni tashkil etib, sistemasida o'rinishadi. Bu esa til birliklaridan nutq birliklarini farqlash ehtiyojini tug'diradi. Buyuk tilshunos F.de Sossyur ta'limotining asosini ham til va nutq farqlanishi tashkil etadi. Sossyur qarashlarini tahlil qilish va umumlashtirish natijasida rus tilshunosi V.Ya.Zveginsev til va nutqning farqlanish belgilarini quyidagicha izohlaydi:

1. Nutq individual, til umumiy hodisadir. Umumxalq tili doimo va albatta alohida nutqiy ko'nikmalarida til sistemasi chegarasida ma'lum o'zgarishga uchraydi.

2. Nutq psixik hodisa, til sotsialdir.

3. Nutq harakatchan, dinamik, til esa stabillikka, statiklikka intiladi.

4. Nutq tarixiy, til diaxronik xususiyatga ega.

5. Nutqiy elementlar o'rtasida sababiy tobelilik, til elementlari o'rtasida funksional tobelilik mavjud.

6. Til lingvistik qonuniyatlarga bo'ysunadi. U lingvistik «regulyar», nutq esa lingvistik noregulyar, sporodik xarakterga ega.

7. Nutq doimo moddiylikka xos. U o'zining funksiyasini real moddiy sifatga ega birliklar eordamida bajara oladi. Til abstrakt sistema sifatida mavjud. Bunday farqlanish substansiya va forma o'rtasidagi farqlanish kabidir.<sup>1</sup>

Professor A.Nurmonov ham til va nutq munosabatlariga e'tibor qaratgan holda, til birliklari bilan nutq birliklari o'rtasidagi zidlanishni ni til sathlari bo'yicha quyidagicha belgilaydi<sup>2</sup>:

| №  | Lisoniy faoliyatning tarkibiy qismlari |                     | Til sathlari                            | Tilshunoslik boʻlimlari   |                        |
|----|----------------------------------------|---------------------|-----------------------------------------|---------------------------|------------------------|
|    | Til birliklari                         |                     | Nutq birliklari                         |                           |                        |
| 1. | Fonema                                 |                     | Tovush, (fonema varianti, allofon, fon) | Fonologik va fonetik sath | Fonologiya va fonetika |
| 2. | Morfema                                |                     | Morfema varianti (morf yoki allomorf)   | Morfemik sath             | Morfemika              |
| 3. | Leksema                                |                     | Leksema varianti (leks yoki alloleks)   | Leksik sath               | Leksikologiya          |
| 4. | Frazema                                |                     | Frazema varianti (allofrazema)          | Frazeologik sath          | Frazeologiya           |
| 5. | Konstruksiya                           |                     |                                         |                           |                        |
|    | 5.1.                                   | Soʻz modeli         | Soʻz shakli                             | Morfologik sath           | Morfologiya            |
|    | 5.2.                                   | Birikma modeli      | Soʻz birikmasi                          | Sintaktik sath            | Sintaksis              |
|    | 5.3.                                   | Gap yoki gap modeli | Jumla                                   |                           |                        |

<sup>1</sup>Звегинцев В.Я. Теоритическая и прикладная лингвистика. –М., 1968. С.105-106

<sup>2</sup> Нурмонов А. Танланган асарлар. Ёжилд. Тошкент: Академнашр, 2012.117-6.

Shunday qilib, til-nutq zidlanishlari til birliklarini nutq birliklaridan farqlash zaruratini tug'dirdi. Ularni o'rganishni tilning eng quyi sathi – fonologik sath birliklaridan boshlash maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi tilshunoslikda fonema nazariyasi I.A.Boduen de Kurtene va uning shogirdlari nomi bilan bog'lanadi. Fonologiyaning tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida ajralib chiqishida va fonemani tovushdan (fonema variantidan) ajratish mezonlarini belgilashda N.S.Trubetskoyning xizmatlari e'tirof etiladi.

Fonologiya termini tilshunoslikda XIX asr oxirida nutq tovushlarining akustik-artikulyatsion tomonidan funksional tomonini farqlash ehtiyoji natijasida paydo bo'ldi. Keyinchalik fonologiya tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida fonemalarning farqlovchi belgilarini o'rganuvchi fan sifatida e'tirof etildi. Fonemalarning bevosita nutq jarayonida reallashuvi esa fonetikaning o'rganish ob'ektiga aylandi.

N.S.Trubetskoyning ta'kidlashicha, fonetikaning o'rganish ob'ekti bo'lgan tovush ko'p miqdordagi akustik va artikulyatsion belgilarga ega bo'ladi va ularning barchasi fonetika uchun muhim sanaladi. Chunki ularning hammasi e'tiborga olingan holdagina, u yoki bu tovushning talaffuzi haqida to'g'ri javob berishga imkon beradi.

Fonolog uchun tovushlarning bir qator belgilari ahamiyatsiz sanaladi. Chunki ular ma'noli birliklarni shakliy jihatdan farqlovchi belgi sifatida funktsiya bajarmaydi.

Shuning uchun fonolog konkret tovushlar tarkibidagi farqlamaydigan, ikkinchi darajali akustik-artikulyatsion belgilarni soqit qilish yo'li bilan bir necha konkret tovushlarda takrorlanadigan, ular uchun umumiy bo'lgan belgilarni aniqlash bilan shug'ullanadi. Bunday yo'l esa tovush birliklarini bir-biriga qiyoslashni, ularni munosabatda o'rganishni talab etadi.

Shunday qilib, umumiylikni, mohiyatni o'rganish fonologiyaning, xususiylikni, hodisalarni o'rganish esa fonetikaning vazifasiga aylandi.

Falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, xususiylikdan ajralgan umumiylik yo'q. Har qanday umumiylik xususiyliklar orqali o'z isbotini topadi. Shuning uchun ham fonetikasiz fonologiyaning mavjud bo'lishi mumkin emas.

Fonologiya fonetika bergan materiallar asosida ish ko'radi. Har qanday fonolog bir vaqtning o'zida fonetist sanaladi. Chunki fonologik oppozitsiyalar konkret tovushlarga tayanadi. Shu bilan birga, har qanday fonetika mutaxassisi ma'lum ma'noda fonolog hamdir. Chunki fonetika tadqiqotchisi har qanday tovushlarni emas, balki nutq tovushlarini, ularning ma'lum bir tildagi farqli belgilarini o'rganadi.

Shunday qilib, fonetika va fonologiya o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, umumiylik-xususiylik dialektikasini o'zida namoyon qiladi.

Xususiyliklarsiz umumiylikning bo'lishi mumkin bo'lmagani kabi, fonetikasiz fonologiyaning ham bo'lishi mumkin emas. Ularning o'rganish ob'ekti bitta. Birinchisi eng kichik nutq birliklarini, ikkinchisi esa shu nutq birliklarining farqlovchi belgilarini o'rganadi. Demak, ular o'zlarining ob'ekti jihatidan emas, balki bir ob'ektning turli o'rganish aspekti ekanligi bilan farq qiladi.<sup>1</sup>

Fonologiyaning o'rganish birligi ijtimoiy-ruhiy, umumiy xususiyatga ega bo'lgan fonemalardir. Fonema umumiylikdir. U bevosita kuzatishda turli variantlarda

---

<sup>1</sup> Нурмонов А.Н. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. Тошкент: Фан, 1990. 7-6.

namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham fonema hozirgi kunda til va nutqni farqlovchi tilshunoslar tomonidan so‘z va morfemalarni shakllantiradigan va ularning ma’nosini farqlash uchun xizmat etuvchi, boshqa moddiy mayda bo‘laklarga bo‘linmaydigan tilning eng kichik tovush birligi sifatida e’tirof etiladi.

Fonema atamasi va uning tilning eng kichik tovush birligi ekanligi birinchi marotaba tilshunoslikda I.A.Boduen de Kurtene tomonidan bayon qilinadi.

### **Savollar**

- 1.Tovush tipi deganda nimani tushunasiz?
- 2.Mahmud Qoshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk” asarida turkiy til fonetik birliklari haqida qanday fikr bildiradi?
- 3.Alisher Navoiy tovush tiplarini qanday farqlagan?
- 4.Fonema nazariyasi kimning nomi bilan bog‘lanadi?
- 5.Fonologiya va fonetikaning qanday farqi bor?
- 6.Ularning o‘rganish ob‘ekti haqida fikr bildiring.

### **Tayanch termin va iboralar.**

*Fonetika, fonologiya, akustik va artikulyatsiya, tovush tipi, invariant va variant, farqlovchi belgilar, fonema funksiyasi, umumiylik va xususiylik, eng kichik tovush birligi.*

## **TILSHUNOSLIK MAKTABLARIDA FONEMA NAZARIYASI**

Reja:

1. Fonemaning ikki tomoni.
2. Praga va Leningrad maktabida fonema nazariyasi.
3. Moskva fonologiya maktabining fonologik qarashlari.

Hozirgi kunda fonema tushunchasi barcha tilshunoslar tomonidan e’tirof etilsada, lekin uning maqomi masalasida bir xillik yo‘q. Tilshunoslikda fonema haqidagi ta’limotning asoschisi sanalgan Boduen de Kurtenening o‘zi ham fonema maqomi masalasida turli xil yo‘nalishlarning kelib chiqishiga zamin yaratib qo‘ygan. U fonemaning quyidagi ikki farqli tomoni borligini ko‘rsatadi: 1) antropofonik (ya’ni akustik-artikulyatsion) xususiyatlarining oddiy umumlashmasi; 2) morfemaning harakatlantiruvchi komponenti va ma’lum morfologik kategoriya belgisi.

Boduen de Kurtenening fonemaning bu ikki xil tomoni haqidagi fikri keyinchalik fonema maqomini belgilashda ikki xil yo‘nalishning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. N.S.Trubetskoy asos solgan fonologik yo‘nalish, L.V.Shcherba asos solgan Leningrad fonologik maktabi, A.A.Reformatskiy, Avanesov, Sidorov, Dmitrievlar tomonidan asos solingan Moskva fonologik maktablari ko‘pchilik tomonidan e’tirof etiladi. Fonologiya sohasida yaratilgan keyingi barcha asarlar yuqorida sanab ko‘rsatilgan u yoki bu fonologik maktabning g‘oyalari bilan bog‘lanadi.

Har uch maktab kelib chiqish ildiziga ko'ra bir manbaga - Boduen de Kurtenega borib taqaladi. Lekin Boduenning fonema haqidagi ikki xil qarashidan qaysi biriga asoslanishiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Bu nuqtai nazardan N.S.Trubetskoyning fonologik konsepsiyasi bilan Leningrad fonologik maktabining qarashlari bir-biriga ancha yaqin keladi.

Har ikkisi fonemani qurshovdan ajralgan va unga bog'liq bo'lmagan potensial umumiy birlik, farqlovchi belgilar umumlashmasi sifatida talqin qiladi.

Shuning uchun ham har ikki yo'nalish ijtimoiy-ruhiy, imkoniyat tarzidagi fonemani nutq zanjirida sezgi a'zolarimizga ta'sir etadigan real akustik elementlarga, boshqacha aytganda, umumiyliklarni xususiyliklarga qarama-qarshi qo'yadi.

Garchi xususiyliklar bu ikki yo'nalishda ikki xil atamalari bilan – Praga lingvistik maktabida **variant**, Leningrad fonologik maktabida **ottenka** atamalari bilan nomlansa ham, lekin ular aslida bir narsa haqida fikr yuritadilar. Shuning uchun Praga lingvistik maktabi qarashlarini hamda Leningrad fonologik maktabi qarashlarini bir guruhga birlashtirgan holda, ularni Moskva fonologik maktabiga qiyoslagan holda fonema maqomini belgilash mezonlari haqida fikr yuritish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

L.V.Shcherba fonemani ajratish uchun tovushning artikulyatsion-akustik xususiyati emas, balki ma'no farqlash xususiyati muhim ekanligini ta'kidlaydi. Akustik-artikulyatsion jihatdan turlicha tovushlar bir umumiy belgisi bilan boshqa shunday tovush tiplaridan ajralib turadi. Ana shunday umumiy belgi ma'no farqlash xususiyati sanaladi.<sup>1</sup>

L.V.Shcherba fonologik sathda umumiylik va xususiylik dialektikasining fonema va uning ottenkalarida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, umumiyning (fonemaning) talaffuz qilingan real ko'rinishlari ottenkalardir. Bevosita kuzatishda berilgan, muayyan makon va zamonga bog'liq real talaffuz qilinuvchi barcha akustik - artikulyatsion birliklar ottenkalar sanaladi. Anglashiladiki, fonema va uning ottenkalari o'rtasidagi munosabat ikki bosqich munosabatidir: abstrakt bosqich (fonema), konkret bosqich (ottenka).

L.V.Shcherbaning fikricha, fonemaning ottenkalari ichida bittasi turli sabablarga ko'ra tipik bo'ladi. Alohida talaffuz qilingan ottenka ana shunday tipik ottenka hisoblanadi, faqat shu ottenka real nutqiy element sifatida tilga olinadi. Boshqa ottenkalar esa tipik ottenkalarga nisbatan turli o'zgarishlar bilan talaffuz qilinadi. Bu vaqtda ularni birlashtirib turuvchi belgi nima? Bu belgini L.V.Shcherba bir fonetik sharoitda biri o'rnida ikkinchisi kela olmaslik belgisi sanaydi. Ma'lum bir sharoitda biri o'rnida ikkinchisini qo'llash mumkin bo'lgan ottenkalar bir fonemaning emas, turli fonemaning ottenkalari sanaladi.

Bir fonemaning ottenkalari esa hech qachon bir sharoitda biri o'rnida ikkinchisi kela olmaydi.

Shunday qilib, fonema - bu, bir tomondan, barcha ottenkalarining umumlashmasi, ikkinchi tomondan, har qaysi ottenka konkret hollarda shu fonemaning vakili hisoblanadi.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Щерба Л.В. Русские гласные в качественном и количественном отношении. СПб., 1912. -С.14.

<sup>2</sup> Нурмонов А.Н. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. Тошкент: Фан, 1990. –Б.10.; Махмудов А. Ўзбек тили унлилари. Тошкент: Фан, 1995.

Fonema ottenkalari bir fonema doirasida bir-biriga qarama-qarshi qo'yiladi. Ottenkalar umumlashmasi (fonema) boshqa ottenkalar umum-lashmasiga (fonemaga) qarama-qarshi qo'yiladi. Shuning uchun ham L.V.Shcherba fonemani qisqa qilib "konkret vaziyatda ottenkalar sifatida namoyon bo'ladigan umumlashmadir" deb izohlaydi.<sup>1</sup>

Anglashiladiki, Leningrad fonologik maktabida fonemalar bir-biriga qarama-qarshi qo'yish asosida belgilanadi. O'zaro qarama-qarshi munosabatda bo'luvchi ikki minimal birlik qarama-qarshi a'zolar sanaladi. qarama-qarshi munosabatdagi a'zolar bir qator belgilarga ega bo'lib, shulardan bittasi farqlovchi, qolganlari farqlanmaydigan (nodifferensial, irrelevant) belgilar hisoblanadi. Shuning uchun ham fonema farqlovchi belgilar umumlashmasi sifatida tavsiflanadi.<sup>2</sup>

Praga lingvistik maktabida ham zidlanishlar asosiy mezon sanaladi. Zidlanishlar oppozitsiyalar atamasi bilan nomlanadi. Xususan, N.S.Trubetskoy fonologik sistemani leksik va grammatik ma'nolarni farqlash uchun xizmat qiladigan fonologik oppozitsiyalar majmuasi sifatida talqin qiladi. U fonologiyada asosiy rol ni farqlovchi belgilar o'ynashini ta'kidlaydi.<sup>3</sup>

Fonema xuddi Leningrad fonologik maktabidagi kabi abstrakt birlik sanaladi. Fonema nutq jarayonida turlicha o'zgarishlar bilan moddiylashishi mumkinligi ko'rsatiladi. Nutq jarayonida turlicha akustik-artikulyatsion xususiyatga ega bo'lgan real tovushlar muayyan fonemaning variantlari hisoblanadi. Ko'rinadiki, Leningrad fonologik maktabidagi ottenka Praga fonologik maktabidagi variant atamasi bilan nomlanadi.

L.V.Shcherba ottenkalarni turli belgilariga ko'ra tasnif etgani kabi, N.S.Trubetskoy ham variantlarni guruhlab, uch sinfga ajratadi:

1) majburiy variantlar; 2) fakultativ variantlar (dialektal variantlar); 3) individual variantlar.

Majburiy variantlarning o'zi yana uch guruhga bo'linadi:

a) pozitsion variantlar; b) kombinator variantlar; v) uslubiy variantlar.

Ko'rinib turibdiki, Leningrad fonologik maktabi bilan Praga lingvistik to'garagining fonologik konsepsiyasi bir-biriga juda yaqin. Har ikkalasi ham fonemani abstrakt birlik sifatida, farqlovchi belgilar umumlashmasi sifatida talqin etadi. Har ikkalasi ham abstrakt xususiyatga ega bo'lgan fonemani nutq jarayonida real qo'llanuvchi variantlar yoki ottenkalarga qarama-qarshi qo'yadi. Fonemaning bunday talqini umumiylik-xususiylilik, imkoniyat-voqelik, mohiyat-hodisa dialektikasini fonologik sathda namoyon qiladi.

Moskva fonologik maktabida esa fonemaga boshqacharoq yondashiladi. Ularning fikricha, fonema ma'lum avtonomlikka ega bo'lgan, so'z va morfemaning tovush qobig'iga bog'liq bo'lmagan mustaqil birlik emas, balki so'z va morfemalarning tarkibiy elementi hisoblanadi.

Moskva fonologik maktabi vakillari ham, Leningrad fonologik maktabi vakillari ham fonema haqidagi asosiy tayanch bazani Boduen de Kurtenening fonema haqidagi qarashlariga tayanadi. Ma'lumki, Boduen de Kurtenening fonema haqidagi

<sup>1</sup> Щерба Л.В. Очередные проблемы языковедения. Изд.АН СССР, отд.яз.и лит.,1945. -С. 171.

<sup>2</sup> Стеблин-Каменский. Фонема-пучок РП?./ Спорное в языкознании. -Изд. Ленинградского универс., 1974. -С.76.

<sup>3</sup> Трубецкой Н. С. Основы фонологии. -М.: Иностран.литер., 1960.-С. 74.

qarashlari vaqtlar o'tishi bilan o'zgarib borgan. Ilmiy faoliyatining birinchi davrida fonemani inson ongidagi psixik iz, (PUChOK), majmua, psixologik hodisa, deb atasa, ilmiy faoliyatining ikkinchi davrida fonemaning yashash tarzi morfemaning tarkibida bo'lar ekan, morfemasiz fonemaning bo'lishi mumkin emas, fonema morfologik hodisa deb ataydi. Keyinchalik tilshunoslar Boduen de Kurtenening fonema haqidagi qarashlarini ikkiga B.Kurtenening fonema haqidagi psixologik nazariyasi, B.Kurtenening fonema haqidagi morfologik nazariyasi deb atay boshladilar. Leningrad fonologik maktabi vakillari Boduen de Kurtenening birinchi davriga, ya'ni psixologik nazariyasini asos deb biladilar. Masalan, i fonemasi majmua, invariant, uning bir nechta variant ko'rinishlari bo'lishi mumkin. *Iroda* so'zida o'rta I, *musi:qa* so'zida cho'ziq I, *b'r* so'zida qisqa I, lekin yozuvda *bir* yoziladi, *qyishloq*, *iqbol* so'zlarida chuqur til orqa va hakozi, lekin bir I fonemasining variantlari hisoblanadi.

Moskva fonologik maktabi vakilari esa fonema haqidagi asosiy tayanch bazani Boduenning ilmiy faoliyatining fonema haqidagi ikkinchi davriga asoslanadilar, ya'ni morfologik nazariyaga tayanadilar. Bir fonema turli so'zlarning tarkibida turli pozitsiyada va turli variantda kelsa, mustaqil fonema bo'la oladi. Masalan, *opera* so'zidagi O bilan *orfografiya* so'zidagi O ning farqi bor, *opera* so'zida O, urg'u osti bo'g'in, *orfografiya* so'zida O, urg'u osti bo'g'in emas.

Fonemaga bunday ikki xil qarash bir fonetik qurshovdagi ayrim tovush birliklarini ikki xil talqin qilishga olib keldi. Masalan, o'zbek tilidagi *arra* so'zining birinchi tovushi yuqoridagi ikki fonologik yo'nalish bo'yicha ikki xil fonemaning vakili sanaladi. Praga va Leningrad fonologik konsepsiyasiga ko'ra bu tovush – keng, lablanmagan unli fonemaning varianti. Chunki o'zak tarkibidagi bu fonetik birlik kuchli pozitsiyada keng, lablanmagan unli fonemaning vakili ekanligini bildirib turibdi. Moskva fonologik maktabida fonemalarni ajratishda fonetik birlikning morfema va so'z tarkibida qanday fonetik qurshovda va qanday vaziyatda kelishi belgisi tayanch nuqta bo'lganligidan, fonemalar pozitsiyasiga kuchli e'tibor beriladi. Shuning uchun pozitsiyalar muayyan guruhlariga bo'linadi. So'z shaklining tovush tomonini farqlash pozitsiyasi – kuchli pozitsiya va minimal farqlash pozitsiyasi – kuchsiz pozitsiya sifatida ikki pozitsiya darajasiga ko'ra ajratiladi.

Shunday qilib, Moskva fonologik maktabida fonemalar so'z va morfemalardan ajratilmagan holda, ularning tarkibiy qismi sifatida qaraladi va ularni ajratishda pozitsiya tushunchasi eng muhim belgi sanaladi.

Anglashiladiki, umumiylik-xususiylik, mohiyat-hodisa, imkoniyat-voqelik dialektikasi Praga lingvistik to'garagi bilan Leningrad fonologik maktabida fonema va uning variantlari (ottenkalari) zidlanishida yaqqol namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham biz fonologik sathda invariant va variantlarni belgilashda ko'proq Praga va Leningrad fonologik maktabi mezonlariga asoslanamiz.

Fonologik sathda umumiylik-xususiylik dialektikasi fonologik birliklarning tasnif va tahlilida ham aks etadi. Fonologik tasnif va tahlilda fonemalar paradigmatic va sintagmatic jihatdan qaraladi. Fonemalar paradigmatic jihatdan o'rganilganda, har bir fonemaning muayyan tilning fonologik sistemasidagi boshqa fonema bilan assotsiativ munosabati, ularning bir-biri bilan ongdagi qiyosi tushuniladi. Fonemalarni paradigmatic planda o'rganish orqali qiyoslanayotgan fonemalarning

farqlovchi (differensial) va farqlanmaydigan (nodifferensial) belgilari aniqlanadi.<sup>1</sup> Shunday qilib, paradigmatic munosabat orqali fonemalarning qanday belgilardan tashkil topgan umumlashma ekanligi belgilanadi. Sintagmatik jihatdan esa ularning nutq jarayonidagi turli xil artikulyatsion-akustik o'zgarishlari o'rganiladi.<sup>2</sup>

### Savollar

1. Boduen de Kurtene fonemaning qanday ikki farqli tomoni borligini ko'rsatadi?
2. Qaysi fonologik maktablar fonemani qurshovdan ajralgan va unga bog'liq bo'lmagan potensial umumiy birlik, farqlovchi belgilar umumlashmasi sifatida talqin qiladi?
3. L.V. Shcherbaning fonema haqidagi fikrini izohlang.
4. Moskva fonologik maktabi fonemaga qanday yondashadi?
5. Nima uchun biz Praga va Leningrad fonologik maktabi mezonlariga asoslanamiz?
6. Differensial va nodifferensial belgilar qanday belgilar?
7. Paradigmatik va sintagmatik jihatdan fonemaning qanday xususiyatlari ochiladi?

### Tayanch termin va iboralar.

*Fonema, Praga fonologik maktabi, Leningrad fonologik maktabi, Moskva fonologik maktabi, ottenka, variant, paradigmatic va sintagmatik munosabat, differensial va nodifferensial (irrelevant) belgilar, fonologik tasnif, oppozitsiya, majburiy variantlar (pozitsion, kombinator, uslubiy), fakultativ variantlar, individual variantlar, kuchli va kuchsiz pozitsiya, umumiylik va xususiylik.*

## O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA FONOLOGIK QARASHLAR

### Reja:

1. O'zbek tili fonologiyasining rivojlanishi.
2. O'zbek tilida fonemalarni tasniflash muammolari.

O'zbek tili fonologiyasining shakllanishida Ye.D. Polivanov, G'. Yunusov, A.G'ulom, V.V. Reshetov, A.M. Shcherbak, F. Abdullaev, Sh. Shoab-durahmonov, A. Mahmudov, S. Otamirzaeva, E. Umarov, A. Nurmonov kabi tilshunoslarning xizmati katta bo'ldi.

A.A. Abduazizov esa o'zbek tili fonemalarini paradigmatic va sintagmatik aspektda maxsus o'rganib, o'zbek tili fonologiyasining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shdi. U o'zbek tilshunosligida birinchi marta nutqning har bir fonetik bo'linishida umumiylik-xususiylik dialektikasining namoyon bo'lishini ochib berdi, ularni izohlovchi maxsus atamalar tizimini o'zbek tilshunosligiga Yevropa tilshunosligidan olib kirdi.

<sup>1</sup> Абдуазизов А.А. Ўзбек тилининг фонологияси ва морфонологияси. Тошкент: Ўқитувчи, 1992. –Б.11.

<sup>2</sup> Абдуазизов А.А. Ўша асар, ўша бет

A.Abduazizov nutqni fonetik jihatdan o'zigacha mavjud bo'lgan barcha mualliflar kabi ibora (fraz), takt, bo'g'in va tovushlarga bo'ladi. Uning boshqalardan farqi shundaki, bu birliklarni u paradigmatic qatorda bir-biriga qarama-qarshi qo'yish mumkin bo'lgan emik birliklarga zidlaydi: tovush - fonema, takt - taktema, bo'g'in - sillabema va boshqalar. Shuningdek, u segment birliklar bilan ustsegment birliklarni an'anaga ko'ra ajratgan holda, urg'u, intonatsiyalarni ustsegment birliklarga kiritadi. Ustsegment birliklarda umumiylik-xususiylikni farqlamoq uchun urg'u-aksentema, ohang-intonema atamalaridan foydalanadi. Emik birliklarni ajratishda bosh mezon qilib ma'no farqlash funksiyasi olinadi. Muayyan ma'no farqlash xususiyatiga ega bo'lgan bo'g'inga sillabema (xitoy, yapon, koreys tillariga xos), tovushga fonema, urg'uga aksentema, ohangga intonema atamaları qo'llaniladi. Shunday qilib, fonetik birliklar (tovush, bo'g'in, urg'u, ohang) bilan fonologik birliklar orasida ma'lum munosabat o'rnatiladi.

Fonologik sathda umumiylik-xususiylik dialektikasini namoyon qilishda farqlovchi belgilar muhim rol o'ynaydi. Xuddi shu farqlovchi belgilar fonemani fonologiya bilan bog'lab turadi.

Nutq jarayonida real talaffuz qilingan, ma'lum makon va zamonga bog'liq tovushlarning artikulyatsion-akustik xususiyatlari (masalan, jarangli-jarangsizlik, portlovchi-sirg'aluvchilik, paydo bo'lish o'rniga ko'ra belgilari: og'izning ochilish darajasi, lab ishtiroki va boshqalar) fonetikada aniqlanadi. Fonologiya esa fonemalarni belgilashda ana shu artikulyatsion-akustik xususiyatlarga farqlovchi belgi sifatida qaraydi. Ko'rinadiki, fonetika fonologiyaga material beradi, fonologik xulosalar fonetika materiallariga tayanadi.

A.Abduazizov to'g'ri ta'kidlaganidek, fonetik tasnif fonemalarning barcha artikulyatsion-akustik xususiyatlariga asoslansa, fonologik tasnif shu xususiyatlar ichidan asosiysini tanlab oladi: ularga funksional jihatdan qarab, farqlanish belgilarini topadi. Fonemalarni artiku-lyatsion-akustik jihatdan farqlashga xizmat qiluvchi alomatlar farqlanish belgilari hisoblanadi. Fonema ana shunday belgilarning yig'indisi sifatida tushuniladi.<sup>1</sup> Farqlanish belgilari esa fonemalarni so'z va morfema tarkibida bir xil sharoitda solishtirish orqali namoyon qilinadi.

Avvalo, fonemalar artikulyatsion-akustik va funksional jihatdan ikki katta guruhga bo'linadi: 1) unlilar, 2) undoshlar. Har ikki guruh yuqoridagi uch belgiga ko'ra o'zaro zidlanadi. Birinchi belgisiga ko'ra fonemalar talaffuz qilinganda, nutq organlarining og'iz bo'shlig'ining ma'lum bir joyida bir-biriga yaqinlashishi, havo oqimining to'siqqa uchrash-uchramasligi e'tiborga olinadi. To'siqqa uchraydiganlar undosh, to'siqqa uchramaydiganlar esa unlilar sanaladi.

Ikkinchi belgisiga ko'ra fonemalar ovoz yoki shovqindan iboratligi e'tiborga olinadi: ovozdan iborat bo'lsa unlilar, shovqindan iborat bo'lsa, undoshlar hisoblanadi. Bu belgiga binoan sonorlar ham unlilar bilan bir guruhni tashkil qiladi.

Uchinchi belgiga ko'ra bo'g'in hosil qila olishlik-qila olmaslik belgisi hisobga olinadi: bo'g'in hosil qiladiganlar, bo'g'in hosil qilmaydiganlar.

Unli fonemalarning farqlovchi belgilari bilan undosh fonemalarning farqlovchi belgilari bir xil emas. Shuning uchun unli va undosh fonemalar sistemalarida

---

<sup>1</sup> Абдуазизов А.А. Ўша асар. 45-6.

umumiylik-xususiylilik dialektikasining namoyon bo'lishini alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

### Savollar

1. O'zbek tili fonologiyasining shakllanishida kimlarning xizmati katta bo'ldi?
2. A.Abduazizov qanday atamalarni va qanday fonologik tasnifni qo'llangan?
3. Fonemalar qanday uch belgiga ko'ra zidlanadi?

### Tayanch termin va iboralar.

*Fonema, tovush, bo'g'in, urg'u, ohang, fonologiya, variant, majburif variant, uslubiy variant, dialektal variant, kombinator variant, pozitsion variant, imkoniyat-voqelik, mohiyat-hodisa, ottenka, assotsiativ munosabat, sintagmatik, fraza, takt, bo'g'in, taktema, paradigma, sillabema, emik birliklar, etik birliklar, aksentema, intonema, umumiylik va xususiylilik.*

## O'ZBEK TILI VOKALIZMI

Reja:

1. Unlilarning fonologik muhim belgilari.
2. Unlilarning paradigmatic tavsifi.
3. Unlilarning fonologik nomuhim belgilari.
4. Unli fonemalar tavsifi (xarakteristikasi).

**Unlilarning fonologik muhim belgilari.** Undosh fonemalarni tasniflashga asos bo'ladigan belgilar bilan unli fonemalarni tasniflashga asos bo'ladigan belgilar bir xil emas. Hatto unli fonemalarni tasniflashda ham tadqiqotchilar unlilarning turli xil belgilariga tayanganining guvohi bo'lamiz.

O'zbek tilshunosligidagi adabiyotlarda unlilarning ko'proq uch belgisiga asosan tasnifi uchraydi:

- 1) paydo bo'lish o'rniga ko'ra (old qator - orqa qator);
- 2) og'izning ochilish va tilning ko'tarilish darajasiga ko'ra (keng - o'rta keng - tor);
- 3) labning ishtirokiga ko'ra (lablangan - lablanmagan).

Unlilarning paydo bo'lish o'rniga ko'ra tasnifiga hozirgi kunda ikki xil yondashuvni ko'ramiz. Birinchi yondashuvga muvofiq, unlilarning paydo bo'lish o'rnini, to'g'rirog'i, tilning gorizontalar harakati e'tirof etiladi. Ikkinchi yondashuvga muvofiq, unlilarning paydo bo'lish belgisi rad etiladi va shuning uchun ham bu belgiga ko'ra unlilarning tasnifi asossiz hisoblanadi.<sup>1</sup>

Unlilarning paydo bo'lish o'rnini e'tirof etuvchilarning o'zlari ham ikki guruhga bo'linadilar. Birinchi guruh tilshunoslar uch o'rinni (qator) ajratadilar: til oldi (old qator), oraliq (indifferent), til orqa (orqa qator). Ikkinchi guruh tilshunoslar esa ikki o'rinni - til oldi (old qator) va til orqa (orqa qator) ni e'tirof etadilar.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Умаров Э. Ўзбек тилида тил олди товушлари борми? //Ўзбек тили ва адабиёти.-№ 4,5,6. 1994. –Б.77-80.

<sup>2</sup> Решетов В.В. Узбекский язык. I Фонетика. Ташкент: Учпедгиз, 1959. -С. 357.

A.Abduazizov bu ikki guruh tilshunoslarning tasnif asoslariga o'z munosabatini bildiradi.<sup>1</sup> Biroq A.Abduazizov indifferent unlilarning ajralish asosini boshqacharoq talqin qiladi. Uning fikricha, indifferent unlilarning ajralish-ajralmasligi tadqiqot ob'ektiga bog'liq. V.V.Reshetov Toshkent shevasi talaffuziga asoslanib, o'zbek tilidagi **i, u, o', a** unlilarini oraliq unlilar deb ataydi. U o'zbek tili unlilarining bu fonetik tasnifi rus tili unlilari bilan qiyoslash asosida berilishini ta'kidlaydi.<sup>2</sup>

Bizning nazarimizda, V.V.Reshetov oraliq (indifferent) unlilar haqida fikr yuritganda, o'zbek tili fonologik sistemasiga diaxron nuqtai nazardan yondashgan. U o'zbek tilining hozirgi Toshkent dialektida qadimgi qator bo'yicha zidlanuvchi unlilarning zidlanish belgisi yo'qolganligi, oraliq unlilarning hosil bo'lganligi borasida bahs yuritgan. Shuning uchun ham bu unlilarni ikki qatordagi unlilarning birlashuvidan – konvergentsiyasidan hosil bo'lgan degan fikr bilan konvergentlar nomi ostida birlashtirgan.<sup>3</sup> Xuddi shu fikr prof. F.Abdullaevda ham uchraydi.<sup>4</sup>

Shuni ta'kidlash kerakki, turkiy tillarning vokalizmiga bag'ishlangan barcha tadqiqotlarda qator belgisi va lab ishtiroki belgisi unlilarni tasnif qilish uchun farqlovchi belgi sifatida qarab kelinadi.

Faqat E.Umarovgina bunday tasnif asosiga e'tiroz bildiradi. Prof. E.Umarov o'z maqolasida yozadi: "Asrimizning boshida, turkiy yodgorlik-larni nashr qilmoqchi bo'lgan olimlar oldida unli tovushlarni qanday aks ettirish kerak, degan muammo paydo bo'ladi. V.V.Radlov boshchiligidagi bir guruh olimlar turkiy tillarga qattiqlik-yumshoqlik xos, shuning uchun bu tillardagi unlilarni til oldi, til orqa tovushlariga ajratib ko'rsatish kerak, degan fikrni yoqlab chiqdilar va o'z ishlarida ana shu qoidaga amal qildilar... Xo'sh, bu taklif turkiy, jumladan, o'zbek tiliga mos keladimi? degan savol tug'iladi. Bizningcha, bunga hech ikkilanmasdan "yo'q" deb javob berish kerak".<sup>5</sup>

Prof. E.Umarov o'zbeklar yuqoridagi unlilarni haqiqatan tilning oldida yoki orqasida talaffuz qiladilarmi, ya'ni o'zbeklar tilning oldi yoki orqasi bilan gapiradilarmi degan savol qo'yib, o'zlari unga hech ikkilanmay "yo'q" deb javob berish kerakligini bayon qiladi.

Muallif ikkinchi maqolasida unlilarni og'izning ochilish darajasiga va labning ishtirokiga ko'ra tasnif qilish o'rinli ekanligini ko'rsatadi.<sup>6</sup>

Shuni ta'kidlash kerakki, turkiy tillar uchun palatal va labial singarmonizmning xosligi, palatal garmoniyada unlilar qatorga ko'ra ohanglashuvi hech kimda e'tiroz tug'dirmaydi. O'zbek adabiy tilining hozirgi davri uchun garchi singarmonizm amal qilmasa-da, lekin o'zbek shevalarida saqlanib kelayotganligi deyarli barcha shevashunos olimlar tomonidan e'tirof etiladi. Shu bilan birga, qatorga ko'ra zidlanishni o'zida saqlab kelayotgan o'zbek shevalarida bir o'rinda qator bo'yicha korrelyatlarning o'zaro almashinib ma'no farqlashi mavjudligi qatorni unlilar uchun

<sup>1</sup> Абдуазизов А.А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. –Б.36.

<sup>2</sup> Абдуазизов А.А. Ўша асар, ўша бет.

<sup>3</sup> Решетов В.В. Ўша асар. -С. 116.

<sup>4</sup> Абдуллаев Ф.А. Фонетика хорезмских говоров. -Ташкент: Фан, 1967. -С. 41.

<sup>5</sup> Умаров Э. Ўзбек тилида тил олди товушлари борми?//Ўзбек тили ва адабиёти, - № 4,5,6,1994 -Б.77-78

<sup>6</sup> Умаров Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилида унлиларни таснифлаш масаласига доир. //Ўзбек тили ва адабиёти. -№2, 1995. – Б.52-53.

farqlovchi belgi sifatida ajratishga imkon beradi. Masalan, Andijon shevasida **o't** (organizm) - **Öt** (maysa, olov), **o'r** (o'tni o'rmoq)- **Ör** (sochni o'rmoq), **Öz** (olmosh)- **o'z** (bosib o'tmoq), **yn** (ovoz)- **un** (g'allaning tortilgani).

Lekin hozirgi o'zbek adabiy tili unli fonemalari uchun, darhaqiqat, qator belgisi fonologik qimmatini yo'qotgan. Shuning uchun hozirgi o'zbek adabiy tili unli fonemalari uchun bu belgi tasnif asosi bo'la olmaydi.

Demak, hozirgi o'zbek adabiy tili unli fonemalarining ikki belgi asosida tasniflanishi maqsadga muvofiq:

- 1) og'izning ochilish darajasiga ko'ra: keng, o'rta keng (o'rta tor), tor;
- 2) labning ishtirokiga ko'ra: lablangan, lablanmagan.

Lekin o'zbek shevalarida uchinchi belgi - qator belgisi ham farqlovchi belgi sanaladi.

### **Asosiy belgilar. Kenglik-torlik belgisi**

Turkiy tillarda unlilarning eng muhim farqlovchi belgilaridan biri kenglik-torlik, ya'ni og'izning ochilish darajasiga xos belgidir.<sup>1</sup> Bu belgisiga ko'ra unlilar bir qator turkiy tillarda, xususan, yoqut, oltoy, karagas, tuva, qirg'iz, bolqor tillarida ikki bosqichli oppozitsiyani tashkil qiladi: **a,(ã), o, õ** - keng (kompakt), **i, ĭ, ü, u** - tor (diffuz).

Unli fonemalarning soni ularning miqdoriy belgisiga ko'ra zidla-nishini hisobga olmaganda, yuqoridagi tillarda sakkizta sanaladi.

O'zbek tili fonetikasiga oid tadqiqotlarda uch bosqichli zidlanish mavjudligi ko'rsatiladi:

|            |          |           |
|------------|----------|-----------|
| keng       | <b>a</b> | <b>o</b>  |
| yarim keng | <b>e</b> | <b>o'</b> |
| tor        | <b>i</b> | <b>u</b>  |

Unlilarning keng, yarim keng, tor deb bo'linishlariga sabab shuki, ularni talaffuz qilish paytida quyi jag'ning pastga tushuvi yoki tilning qattiq tanglaydan uzoqligi har xil darajada bo'ladi. Masalan, **i** unlisini talaffuz qilish vaqtida til maksimum darajada ko'tariladi, pastki jag' ham shunday pozitsiyani egallaydi. Natijada til bilan qattiq tanglayning orasi minimum darajada yaqinlashadi va og'iz bo'shlig'idagi havo yo'li ham minimum darajada qisqarib, torayadi. Ana shuning uchun ham **i, u** fonemalari tor unlilar deyiladi. Bu yerda **u** bilan **i** ni bir qatorga qo'yishning sababi shundaki, ularning talaffuzi vaqtida qattiq tanglay bilan tilning oralig'i deyarlibir xil bo'ladi. Lekin **u** ning talaffuzida lab faol ishtirok etganligi uchun unda lablanish hodisasi yuz beradi.

**a** unlisini talaffuz qilish vaqtida og'iz bo'shlig'ining holati esa tor unli **i** tovushini talaffuz qilishdagi holatdan keskin farq qiladi, ya'ni **a** tovushini talaffuz qilishda pastki jag'ning quyiga tushishi ham, tilning qattiq tanglaydan uzoqlashishi ham maksimum darajada bo'ladi. Shunga ko'ra til bilan tanglay o'rtasidagi havo yo'li ham maksimum darajada keng bo'ladi.

<sup>1</sup> Щербак А.М. Сравнительная фонетика тюркских языков. -Л.: Наука, 1970. -С.27.

Ana shuning uchun ham a, o unlilari keng unlilar deb ataladi. e bilan o' tovushini talaffuz qilgan vaqtda esa til bilan qattiq tanglayning oralig'idagi masofa i va o' tovushini yoki a bilan o ni talaffuz qilgandagi holatga nisbatan o'rtacha holatda bo'ladi.

Unli fonemalarning uch bosqichli zidlanishi deyarli barcha o'zbek tilshunoslari tomonidan e'tirof etilsa-da, lekin bu uch bosqichli zidlanishni tashkil etayotgan unli fonemalarning miqdori masalasida tilshunoslar o'rtasida bir xillik yo'q.

Ko'pchilik tilshunoslar Ye.D.Polivanov tomonidan ko'rsatilgan oltita fonema borligini tan oladilar.<sup>1</sup> Faqat professor M.Mirtojiyev o'zbek adabiy tilidagi unlilarning oltitadan ko'p ekanligini ko'rsatadi.<sup>2</sup>

Shuningdek, fonema nazariyasi yaratilgandan buyon birinchi planda sanalib kelinayotgan fonemaning funksional tomoni rad etiladi. Xususan, muallif yozadi: "Inson tovushining ikki asosi bor: 1) akustik asos 2) biologik asos. Ba'zi adabiyotlarda yana lingvistik asos haqida ham gap boradi. Bunda esa tovushning nutqdagi vazifa tomoni nazarda tutiladi. Biroq tovush nutqda vazifa bajarmaydi, balki nutq mazmunining eng kichik bo'lagi bo'lgan fonemaning shakli hisoblanadi".<sup>3</sup>

Odatda, LFM (Leningrad fonologik maktabi) vakillaridan boshqa barcha tilshunoslar fonemaga so'z va morfemalar tarkibida kelib, ularning ma'nosini farqlash uchun xizmat qiladigan va o'zi ma'noga ega bo'lmagan bir yoqlama birlik sifatida qaraydilar, bu bilan fonemani ikki yoqlama birliklar – morfema va leksemalarga qarama-qarshi qo'yadilar.

M.Mirtojiyev o'zbek adabiy tilidagi unlilarni og'izning ochilish darajasiga ko'ra an'ana bo'yicha uch darajaga bo'lgani holda, ularning miqdorini quyidagicha ko'rsatadi:

Tilning yuqori ko'tarilishidagi unlilar: **i, i, y, u, o'.**

Tilning o'rta ko'tarilishidagi unlilar: **e, o, o', o.**

Tilning past ko'tarilishidagi unlilar: **ə, o', o, ə.**<sup>4</sup>

Ko'rinib turibdiki, o'zbek tilida 15 ta unli ajratilmoqda.

Fonemalarni ajratishda fonologik muhim va nomuhim belgilari ajratish lozim. Artikulyatsion-akustik tamoyil fonema variantlarini belgilash uchun xizmat qiladi. Variantlarning akustik-artikulyatsion belgilari aniqlangandan so'ng, bu belgilar variantlarni muayyan umumiyliklarga birlashtirish uchun xizmat qiladi. Umumiylikka birlashtirishda artikulyatsion-akustik birliklarning vazifa tomoni bosh tamoyil bo'lib xizmat qiladi.

A.M.Shcherbak turkiy tillarda uch bosqichli unlilar sistemasi haqida fikr yuritar ekan, bunday bosqichli sistema ham aslida ikki bosqichli sistemadan kelib chiqqanligini ko'rsatadi.<sup>5</sup>

Yuqorida keltirilgan ozarbayjon, qozoq, o'zbek tillaridagi yarim keng unli e, bir tomondan keng unlilar bilan, ikkinchi tomondan esa tor unlilar bilan zidlanishga

<sup>1</sup> Абдуазизов А.А. Ўзбек тилининг фонологияси ва морфонологияси. -Б.50-51.; Решетов В.В. Узбекский язык. I. Фонетика. Ташкент: Учпедгиз, 1959. -С.357.

<sup>2</sup> Миртожиев М.М. Ўзбек тили фонетикаси. Тошкент: Фан, 1991. -Б.20.

<sup>3</sup> Миртожиев М.М. Ўша асар. -Б.5.

<sup>4</sup> Миртожиев М.М. Ўша асар. -Б.20.

<sup>5</sup> Щербак А.М. Сравнительная фонетика тюркских языков. Л.: Наука, 1970. -30.

kirishadi, keng unli bilan zidlanganda tor, tor unli bilan zidlanganda esa keng hisoblanadi.

Bu unlining turkiy tillarda paydo bo'lishi va uch bosqichli unlilar sistemasining hosil bo'lishi masalasi juda ko'p turkologlar diqqatini tortgan. Bu masalaga birinchi marta O'rxun-Enasoy yodgorliklarini tadqiq qilish jarayonida V.Tomsen e'tiborini qaratgan.<sup>1</sup>

Og'izning ochilish darajasiga ko'ra uch bosqichli unlilarning kelib chiqishi to'g'risidagi turkologlarning fikrlari haqida A.M.Shcherbak batafsil ma'lumot bergan.<sup>2</sup> Shuning uchun bu yerda ularning hammasiga to'xtalib o'tirish ortiqcha deb o'ylaymiz. A.M.Shcherbakning o'zi yarim keng unli keng unlidan cho'ziq - qisqalik zidlanishi asosida keyinchalik paydo bo'lgan degan g'oyani ilgari suradi.

Xullas, og'izning ochilish darajasiga ko'ra uch bosqichli unlilar bir qator turkiy tillarda uchraydi. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, nutq jarayonida bu unlilar o'rtasidagi differensial belgi mo'tadillashib, bir unli kabi talaffuz qilinishi mumkin.

Bunday xususiyat turkiy tillar o'rtasidagina emas, balki bir turkiy tilning dialektal variantlari sifatida ham uchraydi. Masalan, o'zbek tilida *dedim-didim*, *ikki-ekki*, *qilgan edim-qi:gandm*, *achasi - echs* va boshqalar.

Oraliq bosqich, ya'ni yarim keng unlilar turkiy tillar tarixida keyin paydo bo'lganligi uchun, tor unlilar bilan keng unlilar bir-biriga konkret holda (binar) zidlanadi. Lekin bu zidlanish ham nutq jarayonida mo'tadillashuvi mumkin. Masalan, *dadasi - dedici*. Bunday **a - i** variantli-ligi ko'proq Namangan shevasida so'zning ikkinchi bo'g'inida umlaut hodisasi asosida vujudga keladi.

Shunday qilib, og'izning ochilish darajasiga ko'ra til sathida kenglik, o'rta kenglik, torlik farqlovchi belgilari asosida unli fonemalar ajratilsa ham, lekin nutq jarayonida bu belgilar mo'tadillashib (neytralizatsiya), o'rta keng unli keng unlining ham, tor unlining ham; tor unli o'rta keng unlining, o'rta keng unli tor unlining; keng unli tor unlining, tor unli keng unlining o'rnida qo'llanib, bir fonemaning pozitsion yoki dialektal varianti maqomida ham qo'llanishi mumkin.

Nutq jarayonida unlilar artikulyatsion-akustik tomondan turli variantlarda talaffuz qilinishidan qat'iy nazar, til sathida og'izning ochilish darajasiga ko'ra uch farqlovchi belgi fonologik qimmatga ega bo'ladi va unlilar sistemasidan o'z qimmatiga ko'ra joy oladi.

### **Lablanishlik-lablanmaslik belgisi**

O'zbek adabiy tili unlilari uchun yana bir farqlovchi belgi lablanish-lablanmaslikdir. Bu farqlovchi belgi ham barcha turkiy tillar unlilari uchun tipik sanaladi. Lablanish-lablanmaslik belgisiga ko'ra unlilar binar zidlanishga ega bo'ladi: **a, ä, i, ĭ** – lablanmagan unlilar; **o, ö, y, ŷ** – lablangan unlilar. Ko'rinadiki, har qaysi lablangan unliga lablanmagan unli mos keladi.

Lablanish-lablanmaslik belgisiga ko'ra binar moslik ko'p hollarda buzilishi mumkin. Bunday nomuvofiqlik lablanmagan unlilarning nutq jarayonida lablanishida va lablangan unlining lablanish belgisini yo'qotishida kuzatiladi. Xususan, o'zbek, boshqird, tatar tillarida «a» ning lablanishi kuzatiladi. Boshqird, tatar tillarida nutq

<sup>1</sup> Қаранг: Щербак А.М. Сравнительная фонетика тюркских языков. - Л.: Наука, 1970. -С.28.

<sup>2</sup> Щербак А.М. Сравнительная фонетика тюркских языков. -Л.: Наука, 1970. -С. 27-33.

jarayonida «a» ning lablanish belgisiga ega bo'lishi bu unli fonemaning kombinator variantini hosil qilsa, o'zbek tilida dastlab variant holida mavjud bo'lgan bo'lsa ham, lekin hozirgi o'zbek adabiy tilida fonologik qimmatga ega bo'ladi.<sup>1</sup>

O'zbek tili fonetikasiga bag'ishlangan tadqiqotlarda «o» fonemasi-ning artikulyatsion-akustik belgisi turlicha talqin etiladi. Ayrim mualliflar lablangan unli desalar<sup>2</sup>, boshqa tadqiqotchilar lablanish belgisini inkor qiladilar.

Jumladan, prof. M.Mirtojiyev bu ikki unli haqida quyidagilarni yozadi: «Yana o'zbek tilida «o» unlisi va Buxoro-Samarqand shevalariga xos «o» unlisi bor. Bularda tilning old va orqa qismi bir xil holatda bo'ladi. Shunga qaramay, uning urinib o'tish joyi tilning orqasi bo'lgani uchun, ularni ham til orqa unlisi deb qaraladi... O'zbek tilida lablangan unlilar bir necha: **u, ü, ö, o**. Yana Buxoro-Samarqand shevalariga xos «o» unlisi ham lablangan bo'lib, uning lablanishi boshqa lablangan unlilarga nisbatan juda pastdir. «o» unlisini ba'zi adabiyotlarda lablangan deb ham qayd etiladi. Buning asosi bor. Chunki u lab tovushlari bilan yondosh qo'llanganda, albatta, lablangan talaffuzga ega bo'ladi. Biroq boshqa hollarda esa u lablanmaydi. Bu esa uning assimilyativ lablanishi mumkinligini ko'rsatadi. Asosan esa, bu tovush lablanmagan deb qaralishi kerak».<sup>3</sup> Yuqoridagi parchani o'qigan har qanday fonologiyadan xabardor bo'lgan o'quvchi til sistemasida paradigmatic munosabatdagi unli fonema bilan uning sintagmatikadagi turli o'zgaruvi (modifikatsiyasi) qorishtirilayotganligini payqaydi.

O'zbek tili fonetikasi (fonologiyasi) tarixi bilan shug'ullangan yirik turkologlar «o» fonemasining kelib chiqishi haqida ikki xil fikr bildiradilar. Ko'pchilik «o» fonemasi o'zbek tilida umumturkiy orqa qator, keng, lablanmagan unlining nutq jarayonida, muayyan fonetik qurshovda lablangan variantda talaffuz qilinishi va davrlar o'tishi bilan bu variantning fonologik qimmatga ega bo'lib, mustaqil fonemaga aylanganini ta'kidlaydilar.

Ye.D.Polivanov o'zbek tilidagi singarmonizm qonuniyatining yo'qoli-shi, unlilarning qatorga ko'ra binar zidlanishining mo'tadillashuvi, keng, lablangan unli fonemaning («o») vujudga kelishini tashqi omil bilan, eroniy tillarning ta'siri bilan bog'lagan edi.<sup>4</sup>

F.A.Abdullaev to'g'ri ta'kidlaganidek, singarmonizmning yo'qolishidek yirik hodisani tilning o'z ichki taraqqiyotini hisobga olmasdan, faqat tashqi ta'sir asosida tushuntirish turkologlar o'rtasida haqli ravishda turli e'tirozlarning tug'ilishiga sababchi bo'ldi.<sup>5</sup>

Shuningdek, **o** ning kelib chiqishini faqatgina divergensiyaga bog'lab qo'yish ham mumkin emas. Chunki bir qator o'zbek shevalari materiallari shuni ko'rsatadiki, singarmonizm saqlanib qolgan holda ham birinchi bo'g'inda paydo bo'lishi mumkin. Shu sababli A.K.Borovkov **o** ning hosil bo'lishini konvergensiya bilan birga pozitsion holat bilan ham bog'lab asoslaydi.

<sup>1</sup> Шакиров Р.Д. Фонетические особенности говора татар. // Материалы по диалектологии. -Казань, 1955.-С.39.

<sup>2</sup> Махмудов А. Унлилар. Умумий фонетикадан материаллар. -Тошкент: Фан, 1992; Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. -Ташкент: Госиздат, 1933; Абдуазизов А.А. Ўзбек тилининг фонологияси ва морфонологияси. -Тошкент: ўқитувчи, 1992. -Б.52.

<sup>3</sup> Миртожиев М.М. Ўша асар. -Б.19.

<sup>4</sup> Поливанов Е.Д. Звуковой состав ташкентского диалекта.//Наука просвещения. -№1,1922. -С.17.

<sup>5</sup> Абдуллаев Ф.А. Фонетика хорезмских говоров. -Ташкент: Фан, 1967. -С. 42; Березин Ф.М. История лингвистических учений.- М.: Высш. шк.,1975. -С. 84.

**О** fonemasining paydo bo'lishi va uning lablanish darajasi haqida xilma-xil fikrlar bayon qilingan. Ularning barchasiga o'z munosabat-larimizni bildirib o'tirmasdan, A.Abdudzizovning quyidagi fikrini keltirish bilan cheklanamiz: «Har ikki ta'sir (ichki va tashqi - D.N.) natijasida **a** fonemasi divergensiyaga uchragan, ya'ni ikki fonemaga ajralgan.<sup>1</sup> Ye. D. Polivanov formulasi bo'yicha **a : b - c**, ya'ni s elementi a va b elementlariga ajralgan. Natijada o'zbek tili vokalizmida barcha til oldi unlilari **i, e, a** lablanmagan va barcha til orqa unlilari **u, o', o** lablangan bo'lib, ikki teng simmetrik guruhga ega bo'lgan. Aslida **a** fonemasining o'z juftiga ega bo'lmagani bu sistemada bo'sh katak qoldirilgan:

|          |           |
|----------|-----------|
| <b>i</b> | <b>u</b>  |
| <b>e</b> | <b>o'</b> |
| <b>a</b> | <b>-</b>  |

«Bo'sh katak»ning to'ldirilishi, ya'ni **o** fonemasining paydo bo'lishi yuqoridagi divergensiya hodisasi natijasida bo'lib, o'zbek tili vokalizm sistemasini simmetrik holatga olib keldi. Endilikda bu sistemani Ye.D.Polivanov tasnifiga asoslangan N.S.Trubetskoy fikricha, ikki sinfli (oldi va orqa qator), uch pog'onali (quyi, o'rta, yuqori), to'rtburchakli, mantiqiy jihatdan ekvipolent (ya'ni ikki xil belgi birlashgan: lablangan-lablanmagan asosiy farqlanish belgisi va til orqa-til oldi ularga yordamchi, farqlamovchi) jahon tillarida juda kam uchrovchi vokalizm sistemasi deb qaraladi».<sup>2</sup>

Yuqoridagi fikrlar «**o**» unlisining kelib chiqishi, lablanish darajasi, unlilar sistemasidagi o'rni haqida izoh talab qilmaydigan darajada dalillarga asoslangan holda bayon qilingan.

Demak, o'zbek tilidagi unlilarning ikkinchi eng muhim farqlovchi belgisi lablanish-lablanmaslik belgisidir.

### **Unlilarning paradigmatic tavsifi**

Unlilarning nutq jarayonida qanday voqelanishidan qat'iy nazar, sistemada o'zaro zidlanish asosida farqlovchi belgilar majmuasi sifatida tavsiflanishi ularning paradigmatic tavsifi sanaladi.

Har qanday paradigmatic tavsif sintagmatika materiallariga asoslanadi. Sintagmatikadagi unlilarning barcha belgilaridan farqlovchi belgilarning ajratib olinishi fonemalarni farqlovchi eng kichik birlik sifatida belgilashga imkon beradi. Invariantlar tavsifi quyidagicha bo'ladi:

- 1) keng, lablanmagan unli;
- 2) keng, lablangan unli;
- 3) o'rta keng, lablanmagan unli;
- 4) o'rta keng, lablangan unli;
- 5) tor, lablanmagan unli;
- 6) tor, lablangan unli.

O'zbek adabiy tilida farqlanish belgisiga ko'ra unlilar quyidagicha tavsiflanadi:

<sup>1</sup> Абдуазизов А.А. Ўша асар. –23-б.

<sup>2</sup>Трубецкой Н.С. Основы фонологии. -М.: Иностран.литература, 1960.


| Og‘izning ochilishiga ko‘ra va lab ishtirokiga ko‘ra. | Lablanmagan | Lablangan |
|-------------------------------------------------------|-------------|-----------|
| Keng                                                  | A           | O         |
| O‘rta keng                                            | E           | O‘        |
| Tor                                                   | I           | U         |

Yuqoridagi unlilar sintagmatik planda bevosita nutq jarayonida turli xil qo‘shimcha belgilarga ega bo‘lib, invariantning xilma-xil variantlarini hosil qiladi.

Sistema-tekst oppozitsiyasiga muvofiq muayyan qurshovda kelgan real talaffuz qilinuvchi har qanday artikulyatsion-akustik birlik variant sanaladi.

Variantlar betakrorlik xususiyatiga ega bo‘lsa ham, ammo ularni ham ma’lum belgilariga ko‘ra muayyan guruhlariga birlashtirish mumkin. Masalan, makon belgisiga ko‘ra – fakultativ variant, qo‘llanilish darajasiga ko‘ra – uslubiy variant, qurshovga ko‘ra – majburiy variant va boshqalar.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili unli fonemalarining differensial belgilari va ularning sintagmatik qurshovda qo‘shimcha belgilar bilan variantlanishini quyidagi chizmada ifodalash mumkin.



Bu chizmada ichki doiradagi belgilar unli fonemalarning asosiy, markaziy, relevant belgilari bo‘lsa, tashqi doiradagi belgilar ikkinchi darajali, qo‘shimcha, chegara, irrelevant belgilardir.

Invariantlar A va V, S va D chiziqlaridagi belgilar munosabatidan tashkil topgan butunliklar bo‘lsa, variantlar bu belgilardan tashqari tashqi doiradagi belgilarni ham o‘zida namoyon qiladi. Bulardan A-V chizig‘i fonemalarning **lab** belgisiga ko‘ra zidlanishini o‘zida namoyon qiladi. Bu jihatdan hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi unlilar o‘zaro privativ zidlanadi. Ularning bir guruhi lablanish belgisiga ega, markerlangan, shuning uchun bu belgiga ko‘ra kuchli a’zolar sanaladi. Shu bois a’zolar + ishorasi bilan ifodalandi.

Ikkinchi guruh esa zidlanishning kuchsiz a’zolari sanalib, bunday belgiga ega emas. Markirlanmagan. Shu bois ular – ishorasi bilan ifodalandi.

S-D chizig‘i og‘izning ochilishi darajasi belgisiga ko‘ra unlilar zidlanishini ko‘rsatadi. Bunga ko‘ra, hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi unlilar o‘zaro gradual zidlangan. Ularning hammasi bu belgiga ega, lekin turli darajada.

### Qo‘shimcha belgilar. Qator belgisi

Turkiy tillarda unlilarning qator belgisi ham muhim farqlovchi belgilardan sanaladi. Bu belgiga ko‘ra unlilar ikki zidlanuvchi qatorga – old qator va orqa qator (quyi tonallik - yuqori tonallik) unlilariga bo‘linadi. Ko‘pgina turkiy tillarda orqa

qatordagi har bir fonemaga old qator fonemasi muvofiq keladi: **a, o, y, i** orqa qator unlilari **ä, ö, ý, ĩ** old qator unlilari bilan zidlanadi va bu zidlik fonologik qimmatga ega bo'ladi.

Turkiy tillarning ko'pchiligiga xos bo'lgan unlilarning yuqoridagi kabi qatorga ko'ra zidlanishi hozirgi o'zbek adabiy tili uchun xos emas. Bu esa o'zbek tilining turkiy tillar sistemasida o'ziga xos xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

O'zbek tilidagi bu o'ziga xos xususiyat singarmonizm qonuniyatlarining buzilishi, old qator unlilari bilan orqa qator unlilarining qator belgisiga ko'ra zidlanishi mo'tadillashib, sakkizta unlining to'rtta unliga kelib qolishi bilan bog'liqdir. O'zbek tilidagi bu jarayonning qanday sabablarga ko'ra ro'y bergani haqida Ye.D.Polivanov, A.K.Borovkov, A.M.Shcherbak, V.V.Reshetov, N.A.Baskakov, F.A.Abdullaev, Sh.Sh.Shoabdurahmonovlar tomonidan turlicha fikrlar aytilgan. Bu fikrlarga A.M.Shcherbak, F.A.Abdullaev, A.A.Abduazizov tomonidan munosib baho ham berilgan. Shuning uchun ham biz bu yerda ularni batafsil sharhlab o'tirishni ortiqcha deb bilamiz. Lekin shuni ta'kidlash joizki, unlilarning qator belgisiga ko'ra zidlanishining neytralizatsiyasi hozirgi o'zbek tilining faqat Toshkent dialekti uchun xosdir. Toshkent dialektidagi ana shu ikki belgiga ko'ra unlilarning zidlanishi adabiy tilga asos qilib olingan. Boshqa barcha shevalarda uch belgili zidlanish uchraydi, ya'ni qator belgisi ham zidlanish uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda. Masalan, Andijon, Marg'ilon, qo'qon, Namangan, O'sh shevalarida **o'r – ör, o'n – ön, o't – öt, bo'z - böz, o'z - öz, un - ün** kabi farqlanishlar fonologik qimmatga ega. Bir fonetik sharoitda orqa qator va old qator unlilari biri o'rnida ikkinchisi kelib, ma'no farqlash uchun xizmat qiladi. Shuning uchun ham turkiy tillar unlilar sistemi uchun qator belgisini differensial belgi sifatida olgan V.V.Radlov, V.Tomsenlarni, E.Umarov fikricha, qoralamaslik, aksincha, ularning yo'lini ma'qullamoq lozim.

O'zbek adabiy tilidagi olti fonemalik sistemada fonemalar qatorga ko'ra zidlanmasligi haqidagi E.Umarov fikrini ma'qullaymiz. Darhaqiqat, hozirgi o'zbek adabiy tilida qator belgisi fonologik qimmatga ega emas, faqat variantlarning sifat belgisi bo'lib xizmat qiladi.

### Nazallik belgisi

Turkiy tillarda nazallik belgisiga ko'ra sof va nazal unlilarga zidlanish barqaror xususiyatga ega emas. Shu bilan birga, fonologik qimmatga ham ega emas.<sup>1</sup> Ya'ni bu belgi ma'no farqlash vazifasini bajarmaydi. Nazalizatsiya hodisasi tuva, xakas, ozarbayjon, uyg'ur va o'zbek tilining Namangan shevasida keng tarqalgan.<sup>2</sup>

Nazallik lotincha «burunga oid» ma'nosini ifodalaydi. Bu belgi bo'lgan unlilarda tanglay pardasining tushishi va havo oqimining bir vaqtda og'iz va burun bo'shlig'idan o'tishi natijasida tovush burun tembriga ega bo'ladi. Buning natijasida og'iz unlisi burun unlisiga aylanadi.

Hozirgi ayrim o'zbek shevalarida so'z tarkibida **n** va **ng** undoshlarining tushishi natijasida bu undosh oldida kelgan unlilarning nazalizatsiyasi kuzatiladi.

<sup>1</sup> Шакиров Р.Ф. Ўша асар. -С.47.

<sup>2</sup> Отамирзаева С. Наманган шеvasидаги назализация ҳақида.//Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. -Тошкент, №3, 1962. – Б.20-23; Катанов Н.Ф. Опыт исследования урянхайского языка народных тюркских говоров Нухи. Баку, ЕАМ, 1926. -С. 119.

Chunki tushib qolayotgan burun undoshlari talaffuzi quloqqa chalinmasa ham, ammo artikulyatsiyasining izi ma'lum darajada saqlanib qoladi. Shuning uchun bunday undoshlar oldida kelgan unlini nazallik belgisiga ega qiladi. Masalan, Namangan shevasida **bola-chaqa:ni** (bola - chaqangni), **chushu:n** (tushingni), **ga:sə** (olgansan), **ga:mə:** (olganman);<sup>1</sup> Shahrisabz shevasida **xə:rəde** (hangradi), **tə:lik** (tanglik), **d : qotma** (dong qotma);<sup>2</sup> o'g'uz shevalarida **ma:lay** (manglay), **ta:lay** (tanglay), **no:** (non)<sup>3</sup> va boshqalar.

Nazallik belgisi bir qator o'zbek shevalarida keng tarqalgan bo'lsa-da, lekin u unli fonemalarni farqlovchi belgi bo'la olmaydi. Faqat qo'shimcha belgi sifatida unlilarning variantini hosil qiladi.

Anglashiladiki, nazallik belgisi o'zbek tilida unlilarning paradigmatic munosabatida mavjud emas. U faqat sintagmatikada yondosh burun undoshlarining ta'sirida qo'shimcha belgi sifatida paydo bo'ladi.

### Cho'ziq - qisqalik belgisi

Turkiy tillarda unlilar miqdoriy belgisiga ko'ra ham oppozitsiyaga kirishadi. Bu belgiga ko'ra unlilar cho'ziq unlilar va qisqa unlilarga bo'linadi. Ayrim adabiyotlarda miqdoriy belgisiga ko'ra uch darajadagi cho'ziqlik mavjudligi va shunga ko'ra unlilar ham uch guruhga bo'linishi ko'rsatiladi: cho'ziq unlilar, qisqa (me'yordagi) unlilar va o'ta qisqa unlilar.<sup>4</sup>

Qisqa unlilar odatdagi (me'yordagi) monoftonglar kabi voqelanadi. Cho'ziq unlilar esa monoftong holida ham, diftong holida ham yuzaga chiqishi mumkin.

A.M.Shcherbakning ta'kidlashicha, unlilarning cho'ziqlik va qisqalik belgisiga ko'ra zidlanishi oltoy, gagauz, qirg'iz, tofalar, tuva, turkman, xakas va yoqut tillari fonologik sistemasida muhim rol o'ynaydi. Unlilarning cho'ziqlik belgisi ko'pchilik adabiyotlarda birlamchi cho'ziqlik va ikkilamchi cho'ziqlikka bo'linadi. Birlamchi cho'ziqlik turkiy tillarning bobotil davridan beri mavjud bo'lsa, ikkilamchi cho'ziqlik har qaysi turkiy tilda turli fonetik o'zgarishlar ta'sirida o'ziga xos yo'l bilan keyinchalik paydo bo'lgan.

Xususan, unlidan keyin kelgan undoshning tushishi hisobiga unlining cho'zilishi turkiy tillarda keng tarqalgan hodisa sanaladi. Masalan, oltoy tilida **tu:** «tog'», **su:** «suv», **mu:s** «muguz»; gagauz tilida **cha:r** «chaqir», **si:r** «sigir», **bu:n** «bugun», **do:ru** «to'g'ri»; tuva tilida **o:l** «o'g'il» va boshqalar.

O'zbek adabiy tili uchun cho'ziqlik belgisi farqlovchi belgi hisoblanmaydi. Lekin bir qator o'zbek shevalarida, xususan, o'g'iz shevalarida birlamchi cho'ziqlik uchraydiki, bunday holda u fonologik qimmatga ega bo'ladi. Cho'ziq unli bilan qisqa unli bir fonetik sharoitda o'zaro almashinib, ma'no farqlash vazifasini bajaradi.

Masalan, **i:-i** zidlanishi: **i:ch** (ot)-ich (ichmoq), **di:z** (tizz) – **d:z** (tizzalamoq), **ki:r** (yuvilgan yoki yuviladigan mato)- **k:r** (toza emas), **i:n** (uya)-in (tushish);

**ы:-ы** zidlanishi: **қы:r** (tepalik) - **қыr** (yo'qotmoq), **қы:z** (qiz) - **qyz** (qizishmoq), **сы:x** (six) - **сыx** (qismoq);

<sup>1</sup> Отамирзаева С. Звуковой состав наманганского говора узбекского языка. Автореф.дисс...канд.филол.наук. 1963. -С.4

<sup>2</sup> Джуманазаров Ю. Морфологические особенности хорезмского говора. Автореф.дисс...канд.филол.наук. -Ташкент, 1963.

<sup>3</sup> Абдуллаев Ф.А. Фонетика хорезмских говоров. -Ташкент: Фан, 1967. -С. 56.

<sup>4</sup> Шакиров Р.Ф. Ўша асар. -С.47.

**u:-u** zidlanishi: bu:z (muz) - buz (buzmoq), u:ch (uchi) - uch (uchmoq), du:z (tuz) - duz (tekislik);

**e:-e** zidlanishi: ge:ch (kech) - gech (tun), er (er kishi) - e:r (erta), esh (eshmoq) - e:sh (o'rtoq);

**o:-o** zidlanishi: o:t (organizm, o't)-ot (o'tmoq), o:r- (qaysar) or (o'rmoq), go:r (qabr)-gor (ko'rmoq);

**o:-o** zidlanishi: o:t (olov) - ot (maysa), qo:y (qo'y), - qoy (qoldirmoq), o:y (kavlamog) - oy (o'y, fikr) va boshqalar.

**a:-a** zidlanishi: a:d, a:t (ism) - at (hayvon), a:sh (ovqat) - ash (orttirmoq, o'tmoq), da:sh (tosh)-dash (toshmoq), ya:t-(begona)-yat (yotmoq), ya:n (yon tomon)-yan (yonmoq), sa:ch -(soch)-sach (sochmoq) va boshqalar.<sup>1</sup>

Ko'rinib turibdiki, o'zbek tilining o'g'iz shevalarida cho'ziq va qisqa unlilar zidlanishi ma'no farqlash uchun xizmat qiladi va fonologik qimmatga ega bo'ladi. O'zbek tili shevalarida ikkilamchi cho'ziqlik (buni fakultativ cho'ziqlik ham deyiladi) ko'p uchraydi. Bunday cho'ziqlik o'g'iz shevalarida ham, qipchoq shevalarida ham keng tarqalgan. Bunday ikkilamchi cho'ziqlik (fakultativ cho'ziqlik) o'g'iz va qipchoq shevalarida, ba'zan qorluq shevalarida ham **y, g, g', ng, h** singari undoshlarning tushishi va buning hisobiga tushayotgan undosh oldidagi unlining cho'zilishi natijasida yoki tushayotgan undosh intervokal holatda bo'lsa, ikki tomonda kelgan unlining qo'shilishi natijasida paydo bo'ladi. Undoshning ikki tomonida kelgan unlilar bir tipdagi va turli tipdagi unli bo'lishi mumkin. Masalan, qipchoq shevalarida: **o':l** (o'g'il), **o:r** (og'ir), **ba:r** (bag'ir) va boshqalar.

Shu bilan birgalikda, ayrim o'zbek shevalarida fonologik vazifa bajarmaydigan o'ta cho'ziqlik - emfatik cho'ziqlik ham uchraydi. Bunday cho'ziqlik Namangan shevasida ko'proq kuzatiladi. Ayniqsa, hozirgi-kelasi zamon shakli sistemali ravishda emfatik cho'ziqlik bilan talaffuz qilinadiki, bu xususiyat Namangan shevasini boshqa shevalardan farqlab turadi. Masalan, **mem b'lme:me:** (men bilmayman), **sem b'lme:se:** (sen bilmaysan), **u b'lme:d'** (u bilmaydi).

Shunday qilib, unlilarning cho'ziqlik-qisqalik belgisi o'zbek adabiy tili uchun relevant belgi bo'lmasa ham, lekin o'zbek shevalarida uchrab turadi. Birlamchi cho'ziqlik o'zbek tilining iqon-qorabuloq<sup>2</sup> shevalariga xos bo'lib, bu shevalarda cho'ziq-qisqalik fonologik vazifa bajaradi. Ikkilamchi cho'ziqlik esa deyarli barcha shevalarda uchraydi va sintagmatik aspektda hosil bo'lib, unlini sifat jihatidan ma'lum o'zgarishga uchratsa ham, ammo fonologik qimmatga ega bo'lmaydi.

Xullas, o'zbek adabiy tili unlilari uchun og'izning ochilish darajasi (keng, o'rta keng, tor) va labning ishtirokiga ko'ra (lablangan va lablanmagan) belgilari farqlovchi belgilar sanaladi.

Unlilarning boshqa belgilari (nazallik, cho'ziqlik, qator belgisi) unlilar variantlarini tavsiflashda ahamiyatga ega bo'lgan qo'shimcha belgilar sanaladi. Asosiy belgilar unlilar paradigmaticasiga, qo'shimcha (fakultativ) belgilar unlilar sintagmatikasiga xos hisoblanadi.

<sup>1</sup> Абдуллаев Ф.А. Ўша асар. –Б.47-48

<sup>2</sup> Юдахин К.К. Некоторые особенности карабулакского говора. -Ўзбек диалектологиясидан материаллар. Т.1.-Тошкент: Ўзб ССР ФА нашриёти, 1957. –Б.32.

### Savollar

1. Unlilarning uch belgiga va ikki belgiga asosan tasnifini izohlang.
2. Indifferent unlilarni va konvergentlarni tushuntiring.
3. Qanday belgilarni asosiy belgilar deb ataymiz? Qo'shimcha belgilar deb-chi?
4. Kenglik-torlik belgisini tushuntiring.
5. Lablanishlik-lablanmaslik belgisini tushuntiring.
6. O fonemasining paydo bo'lishi haqida nimani bilasiz?
7. Qator belgisi haqida ma'lumot bering.
8. Nazallik belgisini tushuntiring.
9. Cho'ziq - qisqalik belgisini izohlang.
10. Paradigmatik tasnifni tushuntiring.
11. Markaziy, relevant va chegara, irrelevant belgilarni aytib bering.

### Tayanch termin va iboralar

*Asosiy belgilar, qo'shimcha belgilar, indifferent, konvergent, geminata, kenglik-torlik, lablanishlik-lablanmaslik, qator belgisi, nazallik belgisi, cho'ziq - qisqalik belgisi, markaziy belgilar, relevant belgilar, chegara belgilar, irrelevant belgilar, oppozitsiya.*

## O'ZBEK TILI KONSONANTIZMI

### Reja:

1. Undoshlarning asosiy, fonologik muhim belgilari.
2. Undoshlarning qo'shimcha, fonologik nomuhim belgilari.
3. Undoshlar tavsifi (xarakteristikasi).

Fonemaning muhim funksional belgisi distinktivlikdir.<sup>1</sup> Farqlash tushunchasi zidlash tushunchasini taqozo etadi. N.S.Trubetskoyning ta'kidlashicha, ikki narsa bir-biriga zidlanganidagina o'zaro farqli belgisi namoyon bo'ladi. Xuddi shuningdek, tovushlarning belgisi ham boshqa shunga yaqin tovushlarning belgisiga zidlangandagina, uning ma'no farqlash (distinktiv) funksiyasi namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham til birliklarining farqlanishida lingvistik zidlanishlar muhim o'rin egallaydi.

Fonologik zidlanishlar tasnifida ularning ma'no farqlash va ma'no farqlamaslik belgisi muhim ahamiyatga ega. Bu belgiga ko'ra fonologik zidlanishlar ma'no farqlovchi va ma'no farqlamaydigan zidlanishlarga bo'linadi.

Birinchi zidlanish fonologik muhim zidlanish sanalib, u morfema va so'zlarning moddiy shakllantirish bilan birga, ularning ma'nolarini farqlash vazifasini bajaradi.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Трубецкой Н.С. Юкоридаги асар. –Б.38

<sup>2</sup> Трубецкой Н.С. Ўша асар. –Б.39

Tovushlar o'zlarining fonologik muhim belgilari bilangina o'zaro zid munosabatda bo'ladi. Demak, har qanday fonema albatta ma'lum zidlanishning a'zosi bo'ladi. Har qanday real talaffuz qilinayotgan tovush esa fonologik muhim bo'lmagan belgilarga ham ega bo'ladi. Demak, undoshlarda invariant-variant munosabatini belgilash uchun ularning fonologik muhim va nomuhim belgilarini ajratish katta ahamiyat kasb etadi.

Undosh fonemalarning muhim belgilari korrelyativ va korrelyativ bo'lmagan belgilar bo'lishi mumkin.<sup>1</sup> Kamida ikki fonema o'rtasida zidlanishga asos bo'lgan belgilardan birining birida bor, ikkinchisida yo'qligi bilan ajralib turadigan belgi korrelyativ belgi hisoblanadi. Belgilar majmuasi faqat birgina fonemaning o'ziga xos bo'lsa, bunday belgilar korrelyativ bo'lmagan belgi hisoblanadi. Masalan «t» fonemasida jarangsizlik belgisi asosiy va korrelyativ belgidir. Chunki xuddi shu fonemaning asosiy belgilariga ega bo'lgan, ammo undan boshqa korrelyativ belgisining borligi bilan (jaranglilik belgisining borligi bilan) ajralib turuvchi «d» fonemasi bor.<sup>2</sup>

Undosh fonemalar o'rtasidagi munosabatning turlicha tasnifi uchraydi. Masalan, L.L.Bulanin rus tilidagi barcha undoshlar besh farqlovchi belgi asosida o'zaro oppozitsiyaga kirishi mumkinligini, bu besh belgi, o'z navbatida, uch guruhni: asosiy, korrelyativ, nisbiy belgilarni hosil qilishini ko'rsatadi.<sup>3</sup>

Paydo bo'lish o'rni va usuliga ko'ra undosh fonemalar belgisi asosiy, jarangli, jarangsiz, qattqlik-yumshoqlikka ko'ra belgisi korrelyativ, shovqinlilik-sonorlikka ko'ra farqlovchi belgisi nisbiy belgilarga ajratiladi.<sup>4</sup>

O'zbek tilida undoshlarning fonologik oppozitsiyasini quyidagicha guruhlash mumkin: asosiy aktiv organga ko'ra (paydo bo'lish o'rni va usuli belgisi); ovozning ishtirokiga ko'ra.<sup>5</sup>

## **Undoshlarning asosiy, fonologik muhim belgilari**

### **Paydo bo'lish o'rni belgisi**

Undoshlar artikulyatsion tomondan o'pkadan chiqayotgan havoning nutq a'zolarining ma'lum bir o'rnida to'siqqa uchrash yo'li bilan hosil bo'ladi. Ana shu to'siqqa uchragan nuqta ularning o'rin belgisi sanaladi. Undoshlar ana shu belgisiga ko'ra unlilar bilan zidlanadi. Demak, undosh-unli zidlanishida o'ringa ega bo'lish-bo'lmaslik belgisi fonologik muhim belgi sanaladi.

Bu belgiga ko'ra undoshlar bir necha zidlikni tashkil etadi: lab, lab-tish, til oldi, til o'rta, til orqa, uvulyar va faringal undoshlar oppozitsiyasi.

Lab undoshlari labiallik belgisiga ko'ra bir sinfni, bir paradigmmani tashkil etadi. Demak, bunday undoshlarning barchasini bir paradigmaga birlashtiruvchi belgi lab belgisidir. Shu bilan birga bu belgi asosida bir paradigmaga birlashgan har bir a'zo boshqasida o'ziga xos farqlovchi belgisi bilan ajralib turadi.

<sup>1</sup> Дмитриенко С.Н. Фонемы русского языка. -М.: Наука, 1985. -С.20

<sup>2</sup> Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. -Б.19.

<sup>3</sup> Буланин Л.Л. Фонетика современного русского языка. -М.:Высш шк., 1970. -С.51.

<sup>4</sup> Нурмонов А. Ўша асар. -20-б.

<sup>5</sup> Шчербак А.М. Сравнительная фонетика тюркских языков. -Л.: Наука. 1970. -С.78.

Xususan, lab undoshlaridan b-p zidligida jarangli-jarangsizlik belgisi fonologik muhim belgi bo'lsa, b-m zidligida sonorlik-sonor emaslik belgisi, b-f, b-v zidligida esa portlovchilik-sirg'aluvchilik, shuningdek, labiallik va labiodentallik belgilari fonologik muhim belgilar hisoblanadi.

Til oldi undoshlari til uchining tishga tegishi natijasida hosil bo'lish belgisiga ko'ra umumiylikni tashkil etadi. Shuning uchun ular bir paradigmaga birlashadi.

Ayni paytda bu paradigma a'zolarining boshqa paradigma a'zolari bilan zidlanishida til oldilik belgisi farqlovchi, fonologik muhim belgiga aylanadi.

Til o'rta undoshlari til o'rtalik belgisiga ko'ra bir paradigmmani hosil qiladi. Demak, ularning bir paradigmaga birlashuvida ana shu belgi fonologik muhim belgi sanaladi.

Til orqa (uvulyar) undoshlari til orqasida paydo bo'lish belgisiga ko'ra bir paradigmmani tashkil etadi. Demak, bu belgi ushbu paradigma a'zolari uchun birlashtiruvchi (integral) belgi vazifasini bajaradi. Shuning uchun u har bir paradigma a'zosida takrorlanadi. Chunonchi k, g, ng, q, g', x undoshlari ana shu belgiga ko'ra birlashadilar.

Bu paradigma uchun papradigma hosil qilish vazifasini bajaruvchi va integral belgi sanaluvchi til orqalik belgisi ularning boshqa paradigma a'zolari bilan zidlanishida farqlovchi belgi vazifasini bajaradi.

Faqat bir fonema (h) faringallik belgisiga ko'ra boshqa undosh fonemalarga zidlanadi. Bu esa faringallik belgisining ham undoshlar uchun fonologik muhim belgi ekanligini ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, hozirgi o'zbek adabiy tilidagi undosh fonemalar zidlanishida o'rin belgisiga ko'ra lab, til oldilik, til o'rtalik, til orqalik, uvulyarlik, faringallik belgilari fonologik muhim belgilar sanaladi.

### **Paydo bo'lish usuli belgisi**


Undoshlarning paydo bo'lish usuliga ko'ra oppozitsiyasi ikki belgiga asoslanadi: portlovchilik va sirg'aluvchilik. **P, b, t, d, m, n, ng, k, g va q-**portlovchilar; **f, v, z, s, sh, l, r, y, x, h, g'** -sirg'aluvchi; **j** va **ch**-portlovchi-sirg'aluvchilardir. **ch** va **j** ham portlovchilar bilan ham sirg'aluvchilar bilan zidlanib, bir qancha farqlovchi belgilarga ega.

Ko'rinadiki, paydo bo'lish usuli belgisi ham undoshlarning muhim fonologik belgisi bo'lib, bu belgiga ko'ra ular o'zaro ekvipolent zidlanishga kirishadi. Chunki oppozitsiya a'zolarining barchasi «paydo bo'lish usuli» belgisiga ega. Bu belgiga ko'ra oppozitsiya a'zolari uch kichik paradigmmani tashkil etadi: a) portlovchilar; b) sirg'aluvchilar; v) port-lovchi-sirg'aluvchilar.

Bunday zidlanuvchi guruhlarining birinchi va ikkinchisi uchun portlash yoki sirg'alish belgisining mavjud yoki mavjud emasligi farqlovchi belgi hisoblanadi va bu ikki guruh zidlanishning ikki qutbini tashkil etadi. Zidlanishning chap qutbi «portlash» belgisiga ega bo'lgan undoshlarni, o'ng qutbi esa «sirg'alish» belgisiga ega bo'lgan undoshlarni o'z ichiga oladi. Masalan, p bilan f, b bilan v, d bilan z, t bilan s, k bilan x kabi undoshlar o'zaro ana shu belgiga ko'ra zidlanadilar.

Shu bilan birgalikda, hozirgi o'zbek adabiy tilida yana shunday undoshlar borki, ular yuqoridagi har ikki belgini o'zida sinkret holda mujassamlaydi. Bunday undoshlarga **ch** va **j** undoshlari mansubdir.

Undoshlarning paydo bo'lish usuliga ko'ra zidlanishini quyidagicha chizma orqali ifodalash mumkin:



Shunday qilib, «paydo bo'lish usuli» belgisiga ko'ra undoshlar bir umumiy paradigmaga birlashsa ham, lekin paydo bo'lish usulining turi belgisi asosida bu paradigma a'zolari uch kichik paradigmaga bo'linadi. Portlovchi-sirg'aluvchilar yuqoridagi ikki paradigma a'zolarining qutbiy zidlanishida oraliq holatni tashkil etadi. Oraliq holatdagi undoshlar har ikki qutbiy zidlanish munosabatida bo'lgan paradigma a'zolari uchun xos belgilarni o'zida ifoda etadi. Ana shunday qorishiq belgiga ega bo'lishi bilan bu paradigma a'zolari qutbiy zidlanishdagi har ikki paradigma a'zolari bilan zidlanadi.

### Jarangli - jarangsizlik belgisi

Undoshlarning jarangli-jarangsizlik belgisi ham fonologik muhim belgi sanaladi. Bu belgi asosida undoshlar o'zaro privativ zidlanishga kirishadi. Jarangli undoshlar bunday belgiga ega, markerlangan, jarangsiz undoshlar esa ega emas, markerlanmagandir.

Bir qator undoshlar bu belgiga ko'ra o'z ziddiga ega. Shuning uchun ular korrelyativ qatorlarni hosil qiladi. Masalan, **p-b, f-v, t-d, s-z, ch-j, k-g, q-g'** va boshq.

Shu bilan birgalikda o'z juftiga ega bo'lmagan undoshlar ham mavjud. Masalan, **m, n, l, r, ng, y** undoshlarining jarangsiz; **sh, x, h** undoshlarining jarangli jufti mavjud emas.

Jarangli-jarangsizlik belgisining fonologik muhim belgi hisoblanishining sababi shundaki, bu belgiga ko'ra zidlanayotgan undoshlar bir xil sharoitda biri o'rnida kelib, ma'no farqlash xususiyatiga ega. Bunday xususiyatga ega bo'lgan ikki tovush N.S.Trubetskoyning fonemalarni ajratish qoidalarining ikkinchisiga muvofiq, ikkita alohida-alohida fonemalarning vakillari sanaladi.<sup>1</sup>

Masalan, hozirgi o'zbek tilida *pir-bir; sor-zor; tor-dor; chala-jala; kul-gul; qor-g'or* singari leksemalar so'z boshi pozitsiyasidagi undoshlarning jarangli-jarangsizlik belgisiga ko'ra o'zaro almashinuvi natijasida bir-biridan mazmuniy farqlangan.

Jarangli undoshlarning so'z boshida ishlatilishi turkiy tillarning barchasi uchun bir xil emas. Ayrim turkiy tillarda jaranglilar so'z boshida qo'llanilmaydi. (chuvash, xakas tillarida so'z boshida faqat jarangsiz undoshlar qo'llaniladi). Umumturkiy tillarda so'z boshida portlovchi **p** va **b**, **t** va **d**, **q** va **g'** larni qarama-qarshi qo'yish minimal hisoblanadi. Boshlang'ich sirg'aluvchilarning (**s** va **z**) qarama-qarshiligi esa umuman rad etiladi.

<sup>1</sup> Трубецкой Н.С. Ўша асар. –С.55.

### Undoshlarning fonologik nomuhim belgilari

Undoshlar yuqorida ko'rsatilgan fonologik muhim belgilar bilan bir qatorda, nutq jarayonida qo'shimcha, fonologik nomuhim belgilarga ham ega bo'ladi. Ana shunday belgilar sifatida undoshlarning miqdoriy belgisini (cho'ziqlik-qisqalik), sifatiy belgisini (qattiqlik-yumshoqlik, nazallik-nazal emaslik) ko'rish mumkin.

### Cho'ziqlik - qisqalik belgisi

Hozirgi o'zbek tilida bir xil sharoitda undoshlarning cho'ziq va qisqa turlari o'zaro o'rin almashib, ma'noga ta'sir qilmasligi mumkin. Masalan, *maza-mazza*, *shaboda-shabboda*, *juda-judda*, *iki (iki so'm)-ikki*, *tepasida-teppasida*, *isimoq-issimoq* kabi.

Shu bilan birga ikki undoshning assimilyatsiya natijasida bir xil bo'lib qolishidan hosil bo'ladigan ikkilamchi cho'ziqliklar ham borki, bunday undoshlarning cho'ziqlik belgisi differensial belgi bo'lishi mumkin. Masalan, tepa «**baland**» - teppa «**yasama**».

Cho'ziq undoshlar geminatalar nomi bilan yuritiladi va u qisqa undoshga qarama-qarshi qo'yiladi. Geminatalar turkiy tillarda keyingi hodisa bo'lib, ikki yo'l bilan hosil bo'ladi: 1) oldingi qisqa undoshning ikkilanishi, cho'zilishi natijasida; 2) sintagmatik munosabatga kirisha-yotgan morfema yoki so'zlar oralig'idagi yonmayon kelgan ikki xil undoshning o'zaro assimilyativ yoki dissimilyativ ta'siri natijasida (masalan, **siz+ni – sizzi – sizi**)

Prof. A.G'ulomov ham o'zbek tilida geminatalar dastlab ma'noni kuchaytirish, ekspressivlikni ta'minlash uchun kelib chiqqanligini, keyinchalik esa bunday ma'nodan uzoq bo'lgan boshqa so'zlarga ham tarqalganini bayon qiladi.<sup>1</sup>

Prof. F.Abdullaev esa birinchi ochiq bo'g'in unlisini saqlab qolish tendensiyasi natijasida bo'g'inni yopishga urinish qonuniyatidan kelib chiqqan bo'lishi kerak, deb taxmin qiladi.<sup>2</sup>

Shuni ta'kidlash kerakki, etimologik qisqa undoshning cho'ziq undoshga aylanishi (ikkilanishi) ko'proq belgi bildiruvchi so'zlarda uchraydi. Bu esa cho'ziqlikning, darhaqiqat, belgini tagida yetarli asos borligidan dalolat beradi. Keyinchalik bu hodisa narsalarni va boshqa ma'nolarni bildiruvchi so'zlarga ham o'tgan va aylangan. Masalan, *eshak-eshshak*, *boshingni yegur-boshshingni yegur*, *maza qilmoq-mazza qilmoq* va boshq.

Shunday qilib, turkiy tillarda etimologik qisqa undosh (yakka undosh) ning cho'ziq undoshga (geminataga) aylanishi nisbatan keyingi hodisa bo'lib, ma'noni kuchaytirish, ta'kidlash, birinchi bo'g'inning fonetik tuzilishini saqlab qolish tendensiyasi natijasida hosil bo'lgan.

Hozirgi o'zbek tilida bir qator so'zlar ikki xil varintda qo'llanadi: *tepasida-teppasida*, *eshak-eshshak*, *isimoq-issimoq*, *sasimoq-sassimoq* va boshq.

Bu juftliklarning moddiy jihatdan farqlovchi belgisi intervokal holatdagi undoshning cho'ziqligi-qisqaligidir.

<sup>1</sup> Гулямов А.Г. Проблемы исторического словообразования узбекского языка. Дисс.докт.филол.наук. -Ташкент, 1975. -С.122.

<sup>2</sup> Абдуллаев Ф. Фонетика хорезмских говоров. -Ташкент: Фан, 1967. -С.131

Bu cho‘ziqlik-qisqalik belgisi shu so‘zlarning atash ma’nosini o‘zgartirib yubormaydi, balki so‘zlovchining sub’ektiv munosabatini o‘zgartiradi. «Cho‘ziqlik» va «qisqalik» belgilariga ega bo‘lgan so‘zlar o‘zaro zidlanadi. Bu zidlanish mazmun jihatdan «ekspressivlik», ma’noni kuchaytirish belgisiga ham tayanadi. «qisqalik» belgisiga ega bo‘lgan zidlanish a’zosi «ekspressivlik» belgisiga ega bo‘lmaydi, aksincha «cho‘ziqlik» belgisiga ega bo‘lgan zidlanish a’zosi bunday belgiga ega bo‘ladi.

Bir xil qurshovda bir xil undoshning qisqa va cho‘ziq ko‘rinishlarining o‘zaro almashinuvi so‘zlarning atash ma’nosining o‘zgarishiga olib kelmas ekan, demak, o‘zaro almashinuvchi fonetik birliklar bir fonemaning turli variantlari sanaladi.

Bu esa undoshlarning «cho‘ziqlik», «qisqalik» belgisi fonologik nomuhim belgi ekanligidan dalolat beradi.

### **Qattiqlik-yumshoqlik belgisi**

O‘zbek tilidagi undosh fonemalar nutqiy jarayonda qanday sintagmatik qurshovda kelishiga bog‘liq holda qattiqlik yoki yumshoqlik belgisiga ham ega bo‘ladi.

Akademik G‘.Abdurahmonov va A.Rustamovlarning ta’kidlashlaricha, qadimgi turkiy tilda undosh fonemalarning hammasi **palatal** (ingichka yoki yumshoq) va **velar** (qalin) variantlarga ega bo‘lgan. Bu undosh fonemalarning har biri old qator unlilari bilan kelganda ingichka, orqa qator unlilar bilan kelganda esa qalin talaffuz qilingan. Ingichkalik yoki palatallik tilning o‘rta qismining qattiq tinglay (palatum)ga, qalinlik (velarlik) esa tilning orqa qismining yumshoq tanglay (velum)ga ko‘tarilishi natijasida vujudga keladi. Talaffuzning mana shu xususiyati bilan turkiy so‘zlar qalin yoki ingichka bo‘lgan: *at-el, al-el, ut-ut, ol-ol* va boshq.<sup>1</sup>

Hozirgi o‘zbek tilida palatal singarmonizm relikt hodisa bo‘lganligi tufayli, qattiqlik-yumshoqlik belgisi undoshlarning barchasi uchun emas, faqat ayrimlari uchun xos bo‘lib qolgan.

Xususan, **ng** undoshi old qator unlili o‘zak tarkibida yoki shunday o‘zakli so‘zlarga qo‘shilganda ingichka, yumshoq, orqa qator unlili o‘zak tarkibida yoki shunday o‘zakli so‘zlarga qo‘shilganda esa qalin, qattiq talaffuz qilinadi.

Qattiqlik-yumshoqlik belgisi bilan farqlanuvchi bu undosh bir xil sharoitda hech qachon biri o‘rnida ikkinchisi kela olmaydi. Shuning uchun zidlanuvchi a’zolar o‘zaro qo‘shimcha distributsiya munosabatida bo‘ladi. Bunday munosabatda bo‘lgan birliklar esa bir mohiyatning turli ko‘rinishlari, variantlari bo‘ladi.<sup>2</sup>

### **Nazallik va nazal emaslik**

Yumshoq tanglay qo‘shimcha aktiv organ hisoblanadi. U quyi holatda og‘izdan chiqayotgan havo yo‘lini to‘sadi. Yumshoq tanglayning pastlashishi natijasida og‘iz bo‘shlig‘ida portlab chiquvchi burun sonantlari – m, n, ɳ, j lar o‘zlariga mos, burun tovush bo‘lmagan undoshlar bilan korrelyativ oppozitsiyaga kirishadi: m | p (b), n | t (d), ɳ | k, j | j.

<sup>1</sup> Абдурахмонов Г., Рустамов А. Қадимги туркий тил. -Т., 1982. -Б.10

<sup>2</sup> Глисон В. Введение в дескриптивную лингвистику. -М.:Иностр.литер., 1969. -С.96; Березин Ф.М. История лингвистических учений.

M va n tovushlari qadimiy tovushlar sifatida qaralishi kerak. Faqat keyingi burun undoshlarining assimilyativ ta'siri natijasida etimologik b (<\*n) o'rnida m ning qo'llanilishi bundan mustanodir. Solishtiring: o'zbek tilida **men**, tat. Min «men» (<ban <\* pan), **meng** «xol» (<ban, <pan,), min (< bin , <pin), mung «qayg'u» (<bun, <pun,), o'zbek tilining qipchoq shevalarida «bo'yin» (<bojin <pojin).

Yuqoridagi so'zlar boshidagi **m** undoshi so'z oxiridagi **n**, **ng** nazal undoshlarining regressiv assimilyatsiyasi natijasida etimologik nazal bo'lmagan labial, portlovchi **b**, **p** undoshlarining nazallashuvidan hosil bo'lgan. Hozirgi o'zbek tilining ayrim shevalarida bir xil fonetik qurshovda (pozitsiyada) nazal va nazal bo'lmagan undoshlarning ma'noga ta'sir etmagan holda o'zaro ma'no almashinish holatlari uchraydi. Masalan, *murun-burun*, *muncha-buncha* kabi. Bu esa hozirgi o'zbek tilida nazallik belgisining fakultativligini ko'rsatadi.

### Undoshlar tavsifi

**F** – jarangsiz, sirg'aluvchi, lab undoshi. Sof o'zbekcha *tuf*, *tuflamoq*, *puflamoq* kabi so'zlar, *xafa*, *daftar*, *faraz*, *fasl*, *foyda*, *fursat*, *fond*, *fotografiya*, *fonetika*, *fabrika* kabi o'zlashgan so'zlarda uchraydi. Lekin jonli tilda aksariyat f o'rnida p talaffuz qilinadi:

fabrika > pabrika  
fasl > pasl  
foyda > poyda  
fizika > pizika

**V** – jarangli, sirg'aluvchi, lab undoshi. O'zbek tilida aksariyat lablar ishtirokida talaffuz etiladi. Masalan, *va* ( *ve* ), *vahm* ( *vehm* ), *vakil* ( *vek'l* ), *vazn* ( *vezn* ). Rus va rus tili orqali kirgan so'zlarda v lab va tish ishtirokida talaffuz etiladi: *velosiped*, *vagon*, *vazelin*, *vino*, *vint*, *vakuum* va boshq.

**P** – jarangsiz, portlovchi, lab undoshidir. Sof turkiy so'zlarning boshida kam uchraydi, lekin so'zlarning oxirgi pozitsiyasi uchun mutlaq hokimdir.

**B** – jarangli, portlovchi, lab undoshi. Oxirgi pozitsiyadagi b tovushi talaffuzda jarangsizlashib, p ga yaqinlashadi, lekin yozuvda har vaqt b yoziladi.

kitob > kitop  
javob > javop  
kelib > kelip  
olib > olip

Bir qator so'zlarda b ning m ga o'xshash hollari kuzatiladi:

bo'yin > mo'yin  
bunday > munday  
burun > murun

Intervokal holatda b<v ga o'tadi. Uyg'-.taba, tat. Tawes, jawez, ozarb. Gavyrga, civin^.

Shuningdek, ayrim so'zlarda b < v almashinuvi kuzatiladi va bu yozuvda ham o'z aksini topadi:

tovoq < toboq  
chivin < chibin

**M** – portlovchi, sonor, lab undoshi. U soʻzning istalgan qismidan oʻrin olishi mumkin: *kim, men, misol, malika, kamalak, mehmon, muhtaram, hammom* va b.

S, z, sh, j, t, d, ch, n, l, r til oldi undoshlaridir.

**S** – jarangsiz, sirgʻaluvchi, til oldi undoshi. Soʻzning barcha boʻgʻinlarida, boshida va oxirida qoʻllanilishi mumkin: *sabab, sabzi, sabr, sitam, salomat, masjid, musiqa, istirob, meros, ixlos, gilos*. Jonli tilda s <ch ga oʻtishi mumkin: *sichqon* > *chichqon*, *sochiq* > *chachiq*.

**Z** – jarangli, sirgʻaluvchi, til oldi undoshi. U ham soʻzning barcha pozitsiyasida kelishi mumkin. Oxirgi pozitsiyada jarangsizlashib s ga oʻtadi: *zulm, zumrad, muz, koʻz, maza, koʻza, soʻzla*.

soʻz > soʻs

yuz > yus (yus soʻm) va b.

**J** – jarangli, tiloldi, portlovchi-sirgʻaluvchi (affrikat) tovush. Jonli tilda j ning ikki xil talaffuzi mavjud: qattiq dj va yumshoq j<sup>h</sup>. J<sup>h</sup> tovushi asosan rus tilidan oʻtgan soʻzlarda va ayrim forscha soʻzlarda uchraydi, masalan, *jurnal, jyuri, proyektor, jeton, mujda, gijda* va h. k. Aksariyat hollarda dj talaffuz etiladi: *joʻja, joʻra, juxori, javdar*.

**Sh** – jarangsiz, til oldi, sirgʻaluvchi tovush. Soʻzning barcha pozitsiyalari uchun xosdir: *shalola, shamol, shoh, shoir, mushoir, kumush, mushtariy, oltmish*.

**Ch** – jarangsiz, til oldi, affrikat tovush. Turli pozitsiyada kelishi mumkin: *chumoli, charx, chaman, chashma, musicha, sichqon, chegara, childirma* va h.k.

**T** – til oldi, portlovchi, jarangsiz undosh. Jonli tilda ayrim soʻzlarning oxirida tushishi mumkin, masalan: *doʻst < doʻs, daraxt < darax, toʻrt < toʻr, musht < mush* va shu k. T soʻzning barcha boʻgʻinlarida qoʻllanilishi mumkin: *tomosha, tom, tugma, tentak, xushtak, mushtak, oʻrtoq, poʻstloq*.

**D** – til oldi, portlovchi jarangli tovush. Talaffuzda ayrim fonetik oʻzgarishlarga uchraydi. Jarangsiz undoshlar bilan yondosh kelganda bir muncha kuchsizlanadi, soʻz oxirida esa t ga yaqin tovushni beradi, masalan:

ketdi > ketti

ochdi > oshti

murod > murot

masjid > machit

Ayrim soʻzlarning oxirida talaffuzda d tushib qolsa-da, yozuvda saqlanadi.

baland > balan (t)

xursand > xursan (t)

Turkiy tillarda d undoshi ikkilamchidir, chunki u birlamchi t undoshining jaranglashishi natijasida hosil boʻlgan. Shuning uchun bir xil soʻzlar ayrim turkiy tillarda t bilan, boshqalarida esa d bilan ifodalanadi:

tuv, tof. Idik ~ tat. Itik - etik

olt. Odus ~ tur. Otuz - oʻttiz

oz. Das ~ tat., qum, qirgʻ. Tas - tosh<sup>1</sup> va h.k.

Ayrim turkiy tillarda esa d birlamchi b dan hosil boʻlganligi haqida fikr bildirilgan. Masalan: *tuv, qarang. Adaq ~ tur, olt. Ajaq (<\*a aq) ady ~ tur. Ajy (< a y)*.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Тенишев Э.Р. Ўша асар. –Б. 211-212.

<sup>2</sup> Тенишев Э.Р. Ўша асар. –Б. 211-212.

**N** – til oldi, portlovchi, burun sonanti. Sof tilda soʻz boshida faqat soʻroq olmoshlarida, feʼllarda, sonda va ravishda qoʻllanilgan. Masalan: *nima, nechun, netay, necha, nari* va h.k. Boshqa pozitsiyalarda n ning qoʻllanilishi cheklanmagan: *ona, mana, sen, kun, qanot, jon*.

Jonli soʻzlashuv tilida lab undoshlari bilan yondosh kelganda m ga oʻtishi mumkin:

manba>mamba

sunbul>sumbul

oʻn besh>oʻm besh va h.k.

**L** – til oldi, sirgʻaluvchi, yon sonant: *lab, lola, latta, loy, bola, laylak*. Til oldi unlilari bilan yondosh kelganda old qator artikulyatsiyaga, til orqa unlilar bilan qoʻllanilganda esa orqa qator artikulyatsiyaga ega boʻladi. Masalan: *bilim, kel, sol, kul, hil-hil; qoʻl, qil, qiliq, quloq*.

**R** – til oldi, sirgʻaluvchi, titroq sonant. Turkshunos olimlarning taʼkidlashicha, turkiy tillardagi r ning artikulyatsiyasi rus tilidagi r ga nisbatan past.

E.R.Tenishev salar tilida r dan tashqari xitoycha shovqinli r borligini yozadi. Bunda r-z oʻxshash talaffuz etiladi. Masalan tiru [tirzu ]-chuqur.

Oʻzbek tilida r ni soʻzning barcha boʻgʻinlarida uchratish mumkin: *Rashid, Gulnora, mardikor, oshkor, mirishkor* va h.k.

**Y** – til oʻrta, sirgʻaluvchi, sonor tovush. Eski oʻzbek tilida y yondosh tovushlarga taʼsir etib, ularning palatallashishiga olib kelgan. Y soʻzning barcha pozitsiyalarida kela oladi. Masalan, *yoʻldosh, oy, yoʻl, kuyla, sayyora, maysa, yoʻrgʻa, kelay* va b.

Oʻzbek tilida k, g, ng, q, gʻ, x til orqa undoshlaridir. Bunda k, g, ng tovushlari bir oz old artikulyatsiyaga, q, gʻ, x esa bir muncha orqa artikulyatsiyaga ega. Shunga koʻra q, gʻ, x undoshlari chuqur til orqa tovushlar deb ataladi.

**K** – til orqa, jarangsiz, portlovchi undosh. Soʻzning barcha boʻgʻinlarida uchraydi: *kaklik, kiyik, kuyov, katta, ketdi, kelin, maktab, terak*. Jonli tilda turli variantlarga ega.

Ayrim turkiy tillarda intervokal holatda k jaranglashadi, masalan: sol, tur. Ekinzi (ekuvchi) ~ qoz. eginsi, tat. Ig nc

oz. akiz (egizak) ~ qoz. egiz.<sup>1</sup>

Demak, oʻzbek tilining egiz (egizak) soʻzidagi g undoshi ham birlamchi k ning jaranglashishi natijasida hosil boʻlgan.

Koʻp boʻgʻinli soʻzlarning oxiriga egalik affikslari qoʻshilganda k < g ga oʻtadi:

elak > elagi

chelak > chelaging

terak > teragimiz

Ishtirok soʻzi bundan mustasno: ishtirok-ishtiroki. Bir boʻgʻinli soʻzlarda esa k oʻzi saqlanadi:

chok > choki

tok > tokingiz.

<sup>1</sup> Тенишев Э.Р. Саларский язык. М: Вост.литер., 1963. –С.14.

**G** – til orqa, jarangli, portlovchi undosh. Soʻz oxirida g jarangsizlashib, k shaklida talaffuz etiladi, lekin yozuvda g saqlanadi: *gul, gilos, bilag > bilak, barg > bark*. Barg soʻziga joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi qoʻshilganda jarangsiz k saqlanadi: Barg - barkka.

G turkiy tillarda ikkilamchi tovushdir. U k tovushining kuchsizlanib, jaranglashishi natijasida hosil boʻlgan.

**Ng** – til orqa, sonor undosh boʻlib, soʻz boshida kela olmaydi. Ayrim soʻzlarda qismlarga ajratilgan holda talaffuz etiladi:

singil [c'ng'l]

yangi [yeng']

Oʻzlashgan soʻzlarda esa birikma sifatida qabul qilinadi: *tangens, ingliz tili, kongres*.

**Q** – chuqur til orqa, portlovchi, jarangsiz undosh: qish, qush, qiz, qalam, quloq, bayroq, oʻtoq, oʻroq.

Koʻp boʻgʻinli soʻzlarga egalik affikslari qoʻshilganda q > gʻ ga oʻtadi:

oʻrtoq > oʻrtogʻim

oʻroq > oʻrogʻi

qishloq > qishlogʻi

bayroq > bayrogʻi

Ittifoq soʻzi bundan mustasno.

Bir boʻgʻinli soʻzlarda bunday oʻzgarishlar sezilmaydi. Lekin ayrim soʻzlarda, masalan, yoq (tomon) va yoʻq soʻzlarida q>gʻ ga oʻtadi.

Bir yogʻi uzumzor, bir yogʻi mevazor.

Bor-yoʻgʻidan ayrildi kabi.

**X** – fonemasi chuqur til orqa q ning spirantidir: *xabar, xat, xizmat, xirmon, noʻxat, yaxshi*. X fonemasi asosan oʻzlashgan soʻzlar tarkibida uchraydi.

**Qʻ** – chuqur til orqa, jarangli, sirgʻaluvchi: *gʻazab, gʻalaba, gʻayrat, gʻoʻza, togʻ, bogʻ, sogʻlom, sogʻinch*. *Bogʻ, togʻ* kabi soʻzlarga joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi qoʻshilganda, gʻ > q ga oʻtadi va yozuvda ham saqlanadi:

bogʻ > boqqa

togʻ > toqqa

**H** – sirgʻaluvchi, jarangsiz, boʻgʻiz tovush. *Havas, hayot, hazil, hayvon, mahkam, muhokama*.

### **Til oldi undoshlari**

Til oldi undoshlari ovozning ishtirokiga koʻra ikkiga – shovqinli [t, s, d, ch, sh, j] va sonorlar [r, l, n] ga boʻlinadi.

Til oldi shovqinli undoshlar jarangli-jarangsizlik belgisiga koʻra quyidagi juftliklarga hosil qiladi: [t-d], [z-s], [ch-j].

**[T] undoshi**. Bu tovush til oldi, portlovchi, jarangsiz undosh boʻlib, soʻzning barcha boʻgʻinlarida uchraydi: *tentak, ketti, ot, bet, ket, taʼlim-tarbiya, katta, paxta, terim, toʻyona*.

Koʻpgina shevalarda [t] jaranglashib [d] ga oʻtadi. Turli shevalarda bu hodisa turlicha qabul qilingan: ayrim dialektlarda sporadik ravishda qabul qilingan boʻlsa (m-n: djlovchi shevalarda), boshqalari uchun normal holat hisoblanadi (masalan:

xorazm shevasi). Misollar: j-lovchi shevalarda: *deyirmen*|

*diyirmen~dyıyırmen<tegirmon*  
dog‘ishup < to‘qishib  
dudun < tutun  
donguz < to‘ng‘iz.

Xorazm shevalarida: dag‘< tog  
demir < temir  
depki < tepki  
derek < terak  
delledim < terladim.

Ko‘p shevalarda [t>ch] almashinuvi kuzatiladi:  
tish>chish  
tush>chush.

[T] assimilyatsiyaga uchrab, quyidagicha o‘zgaradi:  
t > s: aytsa > eysse  
ketsa > kesse  
eshitsa > eshisse  
t<r: erta bilan > ettem’nem  
t<l: yigitlar > yig’ller  
atlas > elles

Dissimilyativ o‘zgarishlar ham uchraydi:  
ittifoq > intipoq.

Ba‘zan so‘z oxirida [t] tushiriladi:  
go‘sh > gosh  
musht > mush  
do‘st > dos

Ayrim hollarda so‘z o‘rtasida ham [t] tushishi mumkin:  
vaqtli > vexl’  
dasturxon > dasexen (jiz. shevasida).

[D] fonemasi jarangsiz [t] ning jarangli ekvivalenti hisoblanadi. U so‘zning barcha bo‘g‘inlarida kela oladi. So‘z oxirida aksariyat [t] holida talaffuz qilinadi:

dot>det  
mard>mert  
avlod>evlat

J-lovchi shevalarda bir xil sharoitda ham [t] ham [d] ishlatilishi mumkin:  
O‘ldir > eltir, lekin qoldir > qaldo‘r

Ayrim so‘zlarni talaffuz qilganda, tarkibidagi etimologik [d] tovushi tushib qoladi:

baland > belent > belen  
xursand > xursent > xursen

J-lovchi shevalarda *taraddud* so‘zi *teredi* shaklida talaffuz etiladi. Bunda o‘rtadagi va oxiridagi [d] tovushi tushiriladi.

J-lovchi shevalarda va ayrim ylovchi shevalarda [d] ning quyidagicha o‘zgarishlarini kuzatish mumkin:

d > l: aldamoq > ellemoq

hidlab > hillep  
d > n: kelganda > kegenne  
indamaydi > innemeydi  
undan keyin > inney key'n  
d > sh: podsho > p shshe  
d y: sudradi > suyrede  
aldirildi > so'yro'ldo'

[S] fonemasi shevalarda turli variantlarga ega. Deyarli barcha shevalarda [s>ch] o'zgarishlari mavjud:

soch > choch  
sochiq > chechiq  
sichqon > chichqen  
sochmoq > chehmeq

Supurgi, suvamoq kabi so'zlarda anlaut pozitsiyadagi [s] tovushi [sh] bilan almashadi:

supurgi > shipirgi, djlovchi sh'pqrg'q  
suvamoq > shuvemoq

Dj-lovchi shevalarda [s>dj] almashinuvi mavjud: *sovchi* > *djovchı*

Toshkent shevasida anlautdagi [s] ning [t] ga o'tishi kuzatiladi:

sirpanchiq > t'rpanch'q

Bus-butun so'zining bus elementidagi [s] ham shevalarda [t] kabi talaffuz etiladi:

but-butun

[Z] fonemasi [s] ning jarangli juftidir. J-lovchi shevalarda y-lovchi shevalarga nisbatan kam qo'llaniladi. So'z oxirida jarangsizlashib [s] kabi talaffuz etiladi. Masalan:

zog'ora > z g' re  
ziynat > ziyet  
so'z > soz // sos  
ko'z > koz // kos  
bordingiz > berdiz  
ozgina > ezgine  
qizilcha > qo'qlche  
kunduz > kunduz // kundus

Shevalarda [z>y] o'zgarishlarini uchratishimiz mumkin:

so'zla > seyle  
zanjirla > yenj'le (jiz.shevasi).

[Sh]-jarangsiz sirg'aluvchi tovush. So'zning barcha bo'g'inlarida uchratish mumkin:

shali > sheli // shalı (jlovchi)  
ergash > ergesh  
osh > esh  
go'sht > gosh  
pishgan > p'shken  
tushib > chush'p

Dj - lovchi shevalarda [sh>s] o'zgarishi kuzatiladi:

bosh > bes

tosh > mes

bes > bes

Ayrim shevalarda [sh] assimilyatsiyaga uchraydi:

ishchi > ichchi

qo'shchi > kochch (jlovchi sh.)

pishsin > p'ss'n

qo'shsa > qesse

Shevalarda ayrim so'zlarning talaffuzida boshlang'ich [sh] tushib qoladi.

shisha > 'shshe

shishibdi > 'sh'pt'

Ayrim so'zlarda sh orttiriladi:

eshak > 'shshey (jiz.sh.) // eshshek (and. sh).

[Ch] fonemasi. Bu tovush til oldi, jarangsiz affrikat undosh bo'lib, birmuncha palatallashgan holda [sh] kabi talaffuz etiladi. O'zbek tilining barcha shevalari uchun xos bo'lib, statik normal fonema hisoblanadi.

echim > (dj.sh) cheshuv

echib > (dj.sh) cheship

soch > chech

Toshk.shev.: *chey, echchu, chech, qulech*.

Shevalarda [ch] affrikati [sh] bilan almashadi. Lekin bu holat barcha shevalarda bir xil emas. J-lovchi shevalar uchun normal holat hisoblansa, y-lovchi shevalarda fakultativ-sporadikdagina uchraydi, masalan:

ochdi > oshte

nechta > n'shte

qornim ochdi > q in'm oshte

hech nima > h'sht'me

uchta > ushte

ichdi > 'sht'

djl. Shay || shey < choy

[Ch] assimilyatsiyaga uchrab quyidagicha o'zgarishlarga ega bo'ladi.

uch so'm > ussom

kuchsiz > kuss'z

Hadicha > Xechche

[J] fonemasi – til oldi, jarangli affrikat. Y-lovchi shevalarga nisbatan dj-lovchi shevalarda bu fonema ko'proq qo'llaniladi, j-lovchi shevalarda esa [dj] [j] bilan almashtiriladi:

y lovchi: yo'q // j lovchi: djoq-joq

yesh // djash - jas

yexshi // djaxshы - jaqsы

[J] bilan boshlanuvchi arab, fors tillaridan kirib kelgan ayrim so'zlar o'zbek tili va shevalariga o'zlashib, o'zbek tili lug'at sostaviga singib ketgan: *djen, djenbez, djeven, djey, djeng, djendjel, djehen, djuven, dj'hez, djedvel, djenub* va h.k.

Ayrim shevalarda [j] kuchsizlanib y ga o'tishi mumkin:

majlis > meyl's

Bu holat jlovchi shevalar uchun ham xosdir. [j//y] almashinuvida ko'pincha turg'unlik holati buziladi va bir so'zning o'zida ham [j], ham [y] uchraydi: yegen // djegen

yaxsh' // djaxsh'

yaproq // djaproq

yoldosh // djoldosh.

Sporadik ravishda [j>sh] xususiyati uchraydi:

xurush < xuruj

Ayrim jlovchi shevalarda ba'zan [j] affrikatining ikkinchi sirg'aluvchi elementi tushib qoladi: dasto'k < jasto'q // yostiq.

### **Til oldi sonor undoshlar**

[N] fonemasi. O'zbek tili shevalarida bir qancha variantlarga ega. Masalan, ko'pgina shevalarda sporadik ravishda [n>l] almashinishi uchraydi:

nodon > (jl) ladan

lekin > nek'n

ko'ylak > koynek

Tushum kelishigi affiksida n tovushi jarangli undoshlardan keyin kelib d ga o'tadi:

sizni > s'zd' - tosh., nam. s'zz'

oyni > eyd'

birovni > b'revd'

Til orqa undoshlaridan oldin kelganda [n>ng] o'zgarishlari sodir bo'ladi.

yaqin qoldi > yeqo'ng qelde

maymuncha > meymungche

men keldim > meng keldim

senga > (nam) sengge

So'z o'zagining oxirida n fonemasi undosh tovush bilan boshlangan affikslar qo'shilganda, assimilyatsiyaga uchraydi:

n>m: ko'rinmay > korummey

tinmay > t'mmey

bir nima > b'nn'me

g'uncha > g'umche

n>t: hech nima > h'sht'me

Toshkent, Namangan shevalarida so'z o'zagiga ko'plik affiksi qo'shilganda, n progressiv assimilyatsiyaga uchraydi va quyidagicha o'zgaradi: ishni > 'shsh'

tuzni > tuzz'

suvni > suvv'

mixni > m'xx'

kimni > k'mm'

Singarmonistik y-lovchi shevalarning yalovchi gruppasida va dj-lovchi shevalarda bir-biriga zid bo'lgan [l\*] va [l] undoshlari mavjud. Old qator unlilar bilan yondosh kelganda [l\*], orqa qator unlilar bilan esa [l] talaffuz etiladi.

to'la > tola

oldi > aldy

oltin > altın  
tilla > til'l'e  
bo'lak > bel'ek  
pila > pill'e

Boshqa shevalarda esa o'zbek adabiy tilidagi kabi old va orqa qator oralig'ida o'zgarib turuvchi faqat bitta [l] fonemasi mavjud.

Dj lovchi shevalarda [l>n] almashinuvi mavjud. Agar so'z [m] yoki [ng] tovushlari bilan tugagan bo'lsa [l] [n] ga o'tadi.

kamlik > kemnik  
choy damlab > cheydomnep  
imladi > imnedi

Bunday almashinuvni Toshkent, Namangan shevalarida ham kuzatish mumkin:

boraylik > ber'ynuk  
bersaylik > ber'ynuk  
chiqaylik > ch'qaynug

Namangan shevasida II shaxs buyruq fe'lida l>n o'tadi.

keltiringlar > kelturu:ne  
yuringlar > yuru:ne  
kelinglar > kel':ne  
boringlar > ber':ne

Assimilyatsiya natijasida [l] quyidagicha o'zgarishlarga uchraydi.

aldab > allap  
mamalakat > memneket  
ko'ngling > kengning

Regressiv assimilyatsiya:

bilmadim > b'lmedim  
ayrilmaydi > аутыммайды

Sporadik ravishda djlovchi shevalarda [l] [r] bilan almashadi:

o'lja > erdje  
jig'ildon > djyg'irdon  
dumbul dedi > dumburdedi

Bir bo'g'inli fe'llarda l tushib qoladi: qilib > qo'b

kelinglar > kengner  
ol > o.  
kel > ke

Ko'plik affiksidagi [l] ham tushishi mumkin:

bizlar > bizer || bize  
sizlar > sizer

[R] fonemasi til oldi titroq tovushdir. Asl o'zbekcha so'zlarda [r] asosan so'z o'rtasida uchraydi: terep

otur  
derrev  
arpa

Ayrim shevalarda, xususan, Namangan shevasida [r] turg'un holatga ega emas, chunki ba'zan talaffuzda tushib qoladi yoki assimilyatsiyaga uchraydi.<sup>1</sup>

**[R]** fonemasi fakultativ-sporadik ravishda quyidagicha o'zgarishga ega bo'ladi:

r>y: ro'mol > yl. Yom l.  
ro'para > and. yepere  
r>l: anjir > jl.endjil  
zarar > yl.zelel  
karidor > kal'dor  
devor > toshk.devel || nam.devel || and.duval  
r>d: bayroq > djl.baydaq.

Ayrim o'rinlarda [r] progressiv va regressiv assimilyatsiyaga uchraydi:

marta > jl.mette  
o'rni > onny  
surnay > sunney  
ertasiga > marg'.etten's'ge  
zanjir > zendj'l  
chorvadorlar > charvadallar

Y-lovchi shevalarda [r>y] almashinuvi uchraydi:

ro'paramda > yoperemde (nam).  
ro'mol > yomel (toshk).  
bir > bi:r > biy (qorabuloq)<sup>2</sup>

Namangan shevasida sporadik ravishda [r>v] hodisasi uchraydi:

duradgor > duvedgor.

Ayrim o'rinlarda [r] tushishi mumkin:

Jl. tekre qo'lo'p < takror qilib  
aylo'g' elado'm < oylik olar edim  
turgan > to'g'an, beratyg'an.

Bu hodisani y-lovchi shevalarda ham kuzatish mumkin:

dasturxon > destexon  
qirqta > q'xte  
charx > chex  
charm > chem  
barg > bey.

### **Til o'rta undosh fonemasi**

**[Y]** tovushi tilning o'rta qismining qattiq tanglayga qarab ko'tarilishidan paydo bo'ladi.

O'zbek shevalariaro [y] ning tarqalishi turlicha.

Y-lovchi shevalarda [y] so'zning barcha o'rnida kela oladi.

J-lovchi shevalarda [y] so'z o'rtasida va oxirida qo'llaniladi. So'z boshida esa [dj] yoki [j] bilan almashtiriladi.

edi > djed'

<sup>1</sup> Решетов В, Шоабдурахмонов Ш. Ўша асар. –Б. 100.

<sup>2</sup> Ф.Решетов. Ш.Шоабдурахмонов. Ўша асар. –Б. 161.

yomon > djemen

yil > dj'l

Jizzax shahar shevasida so'z boshida [y] tushishi mumkin:

ylilcha > 'l'che

yirik > 'r'y

Ayrim shevalarda k, g, g', h o'rnida y ishlatiladi:

Ibrohim > 'brey'm

bog'la > beyle

terak > terey

tezlik > tezl'y

hushyorlik > hushyerl'y

Ba'zi so'zlarda esa buning aksi yuz beradi, ya'ni y bilan tugagan so'zlarda y o'rnida k, g talaffuz etiladi:

shunday > shundek

bunday > bundek

otday > ettek

bug'doy > bug'dek - bug'deg'

karnay > kernek - kerneg'

Shuningdek, so'z o'rtasida y orttirilishi mumkin:

pishasan > p'sh'ysen

ekadigan > 'keyken

boradigan > bereyken

rais > rey's

Shevalarda [y>t] hodisasini kuzatish mumkin:

yumaladi > tumeled' || dumeled'

keyin > ket'n<sup>1</sup>

ayrim shevalarda y>g bilan almashadi.

keyin > keg'n

### **Til orqa undosh fonemalar**

Til orqa undoshlar 2 guruhga bo'linadi:

1. Sayoz til orqa undoshlar: k [k|x], g [g|g'], [ng]

2. Chuqur til orqa undoshlar: x, q, g' [g'//g']

[k] fonemasi sayoz til orqa portlovchi undosh bo'lib, barcha shevalarda so'zning hohlagan o'rnida uchrashi mumkin:

kiprikni > k'pr'kte

ko'pchilik > kepchilik

kiyik > kiyik

So'z oxirida va o'rtasi [k] spirantlashib [x] ga o'tishi mumkin:

ko'klam > jl.kex'lem

maktab > yl.mex'tep

eksa ekdik > yex'se, yex't'k

---

<sup>1</sup> Фуломов Х. Ўша асар. –Б. 76.

ko'knori > kex'neri // jl.kux'neri  
nariroq > jl.nererex'  
bo'lak > belex'// b'lex'  
ellik > marg'yell'x'

So'z oxirida [k>y] hodisasini kuzatamiz. Bu o'zgarish so'zga affiks qo'shilganda ham saqlanib qoladi:

etik > yet'y  
eshikni > yesh'yd'  
bilakka > b'ley'e  
tekkan > tiygen<sup>1</sup>  
laylak > leyley  
boychechak > beych'chey<sup>2</sup>

Lab undoshlaridan oldin sandhi holatda [k>v] hodisasi yuz beradi:

tuzuk bo'ladi > tuzuv bolady  
ellik besh > eluv besh

Ayrim so'zlarda [k] ning [g] ga o'tishini kuzatishimiz mumkin:

karnay > jl.gerney  
kekirdak > jl.gegirdek

Xorazm shevalari uchun so'z boshida [k>g] almashinuvi normal hodisadir:

kel > gel  
ko'r > ger  
ko'z > gez va h.k.

[k>g] hodisasi so'z o'rtasida, sandhi holatida ham kuzatiladi:

ekin > eg'n (jl)  
tikish > t'g'sh (jl)

Y-lovchi shevalarda k bilan tugagan ayrim so'zlarga egalik affiksi qo'shilganda k jaranglashadi:

yurak > yureg'm  
chelak > cheleg'm

Sandhi holatda k // g almashinuvi barcha shevalar uchun xosdir:

terak ekadi > tereg-eked'  
kerak ekan > kereg-eken  
mushuk emas > mushug-emes.

Juda kam bo'lsa-da [k>ng] hodisasi uchraydi:

tikilib qaradi > ting'lip qarado' (jl)  
kezaylik > nam.kezeynug// kezoynung  
suzaylik > nam.suzeynung

J-lovchi shevalarda so'z oxirida k tushishi mumkin:

kichik > k'ch'  
tirik > tiri  
kerak > kere

Ayrim hollarda so'z o'rtasida ham k tushishi mumkin:

etaklab > and. yetelep // j-l. etelep

<sup>1</sup> Решетов В, Шоабдурахмонов Ш. Ўша асар. –Б. 164.

<sup>2</sup> Ғуломов Х. Ўша асар. –Б. 77.

[G] undoshi [k] ning jarangli ekvivalentidir. Bu tovush ham sayoz til orqa undosh bo‘lib, so‘zning barcha o‘rinlarida kela oladi:

gul > gul  
yigit > yig‘t  
chigit > chig‘t  
gavda > gevde

Xorazm shevalarida [g] yumshoq talaffuz etilib, sifat jihatdan [y]ga tenglashadi:

kelgan > g‘elg‘en > g‘elyen

G > y almashinuvi boshqa shevalarda ham uchrashi mumkin:

tegma > tiyme  
sigir > siyir  
egdi > iydi  
tegirmon > tiyirmen (jl)

Ayrim shevalarda [g] o‘rnida [k] ishlatiladi:

choker qovun < cho‘gir  
kevdal’ < gavdali.<sup>1</sup>

[g] assimilyatsiyaga uchrashi mumkin: xatga > xatke

bekatga > beketke

Ba‘zi shevalarda g>v almashinuvi kuzatiladi. Talaffuzda ba‘zan [v] tushishi mumkin: te: d’sem te: m’yd’, te: me d’sem te: ved’.<sup>2</sup>

Jlovchi shevalarda [g] o‘rnida [gʻ] ishlatilishi mumkin:

menga > megen ~ mg‘an  
senga > segen ~ sag‘an  
unga > ug‘an ~ og‘an.<sup>3</sup>

[Ng] tovushi shevalarda bir xil emas. Ayrim shevalarda, xususan, j-lovchi va singarmonistik ylovchi shevalarda [ng]ning til oldi unlilar bilan qo‘llanuvchi [ng^] va til orqa unlilar bilan qo‘llanuvchi [ng] variantlari mavjud .

Y-lovchi shevalarda esa [ng^] va [ng] oralig‘idagi birgina [ng] tovushi qayd etiladi. Lekin shunga qaramay, ayrim o‘rinlarda [ng] yumshoqroq, ayrim o‘rinlarda esa bir oz qattiqroq talaffuz etiladi.

Masalan: keling > kel’ng

akang > ekeng

daftaring > depter’ng.

Keltirilgan misollarda [ng] bir oz palatallashgan holda talaffuz etiladi. Andijon shevasining baliqchi podgruppasida [ng] bir muncha qattiq talaffuz etiladi:

keling > kel’ng

oling > olng

qo‘ying > qoyng kabi.

Y-lovchi shevalarda [ng> y] almashinuvi sodir bo‘ladi:

qoshingni > qosh’yn’

onaning koyn’ boleda, bolen’ koyn’ dalada koyn’ < ko’ngli

<sup>1</sup> Афзалов Ш. Ўша асар. –Б. 137.

<sup>2</sup> Афзалов Ш. Ўша асар. Ўша бет.

<sup>3</sup> Решетов В, Шоабдурахмонов Ш. Ўша асар. –Б. 167.

Andijon shahar shevasida [ng] tushiriladi: onangiz > onez  
ko'nglingiz > koyn'z  
otangiz > otez  
singlingiz > s':n'z

Grammatik formalarda [ng>y] va [y] ning tushib qolishi ikkilamchi cho'ziq unlining paydo bo'lishiga sabab bo'ladi: noningni>nen'yn'>nen':n'

Yozdingmi > yezd'ym' > yezd':m'

Ayrim shevalarda [ng] o'rnida [n] kelishi mumkin: saninda bole dunyede be:m'ken? (seningdek)

jl. мылхтан оғыдай < miltiqning o'qiday.

### **Chuqur til orqa [q], [x], [g'] undosh fonemalari**

**[q]**-chuqur til orqa portlovchi tovushdir. O'zbek shevalarida so'zlarning barcha o'rinlarida uchraydi:

qush > kush  
kuda > quda  
yaqin > yaqn  
qishloq > qshleq  
qorni > qenn'  
baqirgan > baqyrgen

Shevalarda [q] bir qancha variantlarga ega. So'z o'rtasida intervokal pozitsiyada, yoki sandhi holatida jaranglashib [g'] tarzida talaffuz etiladi. Bu holat asosan j-lovchi shevalar uchun xos bo'lib, adabiy tilda va y-lovchi shevalarda ayrim grammatik formalarni yasash uchungina qo'llaniladi:

o'rtoq > orteg''m  
qishloq > q'shleg''m  
quloq > quleg''m  
qayiq > qayig''m

Misollardan ko'rinib turganidek, [q] bilan tugagan so'zlarga egalik affiksi qo'shilganda, [q>g'] almashinuvi sodir bo'ladi. Bir bo'g'inli va ba'zi ko'p bo'g'inli so'zlar bundan mustasnodir:

oq > eqi  
o'q > oqi  
to'q > toqi  
ittifoq>itt'feqi

J-lovchi shevalarda ayrim so'zlarning boshida [q] [g'] kabi talaffuz etiladi:

qarg'a > g'arg'a  
quzg'un > g'uzg'un  
qo'zg'abdi > g''ozg'apm'

Toshkent, Namangan, Marg'ilon shevalarida esa so'z oxirida [q] jaranglashishi kuzatilgan:

o'rtoq > orteg' (tosh)  
qishloq > qoshleg' q'shle  
qirq > q'rq, q'rg' (nam)  
yo'q > yoq, yog'

[q] ning spirantlashib [x] ga o'tishi j-lovchi shevalar uchun ham, y-lovchi shevalar uchun ham xosdir. Masalan:

vaqt > vextm

to'qson > toxxen

chiqdi > chixto' // ch'xte (yl)

maqsad > maxsat // mexset (yl)

qirqta > q'xte < q'rxte

Ayrim shevalarda [q>v] hodisasi mavjud: ayiq > ayuv, ba'zan ay'g'

qamoqda>qamevde

Ba'zi so'zlar oxirida [q] ning tushishi natijasida undan oldingi unli ikkilamchi cho'ziqlikka ega bo'ladi:

qone: botqa < qo'noq bo'tqa

shald're:pul < shaldiraq pul <sup>1</sup>

yo:uyemes < yo'q u emas

oy'ng qeye:de < oying qayoqda

**[X]** fonemasi. Bu tovush jarangsiz sirg'aluvchi tovush bo'lib, portlovchi [q] ning juftidir. [X] undoshi o'zbek tilining barcha shevalari uchun xosdir. Lekin jlovchi shevalarda [x] o'rnida asosan [q] yoki [qx] affrikati qo'llaniladi: qxat, qxato'n, qxizmat, qxalayo'q.

Ayrim y-lovchi shevalarda ham [x>q] hodisasini kuzatish mumkin. Xususan, Namangan shevasida: masxara>masqara

daraxtga > daraqqa

Sporadik ravishda [x>v] almashinuvini kuzatish mumkin:

jo'xori > djoveri

**[g']** chuqur til orqa, sirg'aluvchi undosh tovushdir. [g'] fonemasi so'zlarning barcha o'rinlarida kela oladi. J-lovchi shevalarda bu tovush ko'pincha bilabial [v] yoki [y] tovushiga o'tadi: <sup>2</sup>

jl. Achuv > ach: uv < achchig'i

av z > ev z // evuz < og'iz

buvday // biydey < bug'doy

suverdu < sug'ordik

av r < og'ir

tuvra < to'g'ri

Ba'zi shevalarda [g'] jarangsizlashib, portlovchi [q] tovushiga o'tadi: J-l. baqchadan ottu < bog'chadan o'tdi

### **Bo'g'iz undoshi**

**[H]** fonemasi jarangsiz sirg'aluvchi bo'g'iz tovushdir. Shevalarda [h] ning ishlatish ko'lami bir xil emas. Shunga ko'ra y-lovchi shevalar ikki guruhga bo'linadi:

a) [h] mustaqil fonema sifatida qabul qilingan shevalar: Farg'ona, Marg'ilon, qo'qon va boshqa shevalar;

<sup>1</sup> Афзалов Ш. Ўша асар. –Б. 137.

<sup>2</sup> Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Ўша асар. -173-б.

b) [h] va [x] tovushlari o'rtasidagi indifferent [x'] ga ega bo'lgan shevalar: Toshkent va unga yondosh y-lovchi shevalar kiradi. Qozoq tilidagi kabi, ayrim j-lovchi o'zbek shevalarida ham [h] fonema sifatida uchramaydi.

Masalan: yl. Hevuz // jl. Hovuz // Tosh. x'evuz

Tosh. x'uker, x'er'sh, jl. hisep, reyhen.

Ayrim so'zlarda [h] tovushi tushib qolishi mumkin. Bu hodisa ikkilamchi cho'ziq unlilarning hosil bo'lishiga sabab bo'ladi.

mehnatkash > me:netkesh

shaharga > she:erge

maslahat > mesle:et

[h] assimilyatsiyaga uchrashi mumkin:

mahsi > messi, mahkam > mekkem

Ba'zi so'zlarning oxirida [h] tushiriladi

goh...goh > ge...ge

gunoh > gune

guvoh > guve

[h>y] almashinuvi barcha shevalar uchun xosdir:

enasi ham > enesiyem

mehribon > miyriben

sizlarga ham > s'legeyem (nam.)

buni ham > mun'yem.

### **Savollar**

1. Korrelyativ belgilarni tushuntiring.
2. Undoshlarning asosiy va qo'shimcha belgilarini izohlang.
3. Paydo bo'lish o'rni va paydo bo'lish usuli belgisi?
4. Jarangli-jarangsizlik belgisini tushuntiring.
5. Qattqlik-yumshoqlik belgisini tushuntiring.
6. Cho'ziqlik-qisqalik belgisi haqida ma'lumot bering.
8. Nazal va nazal emaslik belgisini tushuntiring.
9. Cho'ziq - qisqalik belgisini izohlang.

### **Tayanch termin va iboralar**

*Asosiy belgilar, qo'shimcha belgilar, lingvistik zidlvnish, lab, lab-tish, til oldi, til o'rta, til orqa, uvulyar va faringal undoshlar, portlovchilik va sirg'aluvchilik, ekvipolent zidlanish, markerlangan, cho'ziqlik - qisqalik belgisi, geminatalar, palatal va velyar.*

## FONOLOGIK ZIDLANISHLAR

Reja:

1. Zidlanish va uning turlari.
2. Zidlanishlar mo'tadillashuvi

Dunyoni bilish uning qismlarini (fragmentlarini) o'rganishdan boshlanadi. Muhokamaga berilgan har bir fragment alohida analiz ob'ekti bo'lishdan tashqari, o'ziga o'xshash boshqa ob'ektga taqqoslanadi, qiyoslanadi. Shunda uning haqiqiy bahosi aniqlanadi. Qiyoslanayotgan ob'ektlar umumiy belgilarga ega bo'lishdan tashqari, boshqasida mavjud bo'lmagan, o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlarga ega bo'ladi. Mana shu o'ziga xos belgi muayyan birlikni o'ziga o'xshash boshqa birliklardan farqlash uchun asos bo'ladi. Farqlanish esa ziddiyatni keltirib chiqaradi. Lisoniy birliklar, xususan, fonologik birliklar ham til sistemasida umumiy belgilari asosida birlashib, fonologik sistemani hosil qilish barobarida, fonologik sistemaning har bir a'zosi farqlanish belgisiga ham ega bo'ladi va o'zi mansub sistemaning boshqa a'zolari bilan ziddiyatli munosabatga kirishadi. Ushbu munosabatlarni yoritishda N.S.Trubetskoyning xizmatlari e'tirof etiladi.

N.S.Trubetskoy fonologik sathda fonologik birliklarning farqlovchi belgilarini ajratgan holda, bir birlikni ikkinchisiga ana shu belgilar asosida zidladi. Buning natijasida fonemalarning birlashtiruvchi va farqlovchi belgilari aniqlandi hamda farqlanish belgisi fonemalar tasnifi uchun asosiy mezon sifatida belgilandi. Farqlash tushunchasi zidlash tushunchasini taqozo etadi. N.S.Trubetskoyning ta'kidlashicha, ikki narsa bir-biriga zidlanganidagina o'zaro farqli belgisi namoyon bo'ladi. Xuddi shuningdek, tovushlarning belgisi ham boshqa shunga yaqin tovushlarning belgisiga zidlangandagina, uning ma'no farqlash (distinktiv) funksiyasi namoyon bo'ladi.

N.S.Trubetskoy fonologik sistemani leksik va grammatik ma'nolarni farqlash uchun xizmat qiladigan fonologik oppozitsiyalar majmuasi sifatida talqin qiladi. U fonologiyada asosiy rolni farqlovchi belgilar o'ynashini ta'kidlaydi.

Fonologik zidlanishlar tasnifida ularning ma'no farqlash va ma'no farqlamaslik belgisi muhim ahamiyatga ega. Bu belgiga ko'ra fonologik zidlanishlar ma'no farqlovchi va ma'no farqlamaydigan zidlanishlarga bo'linadi. Birinchi zidlanish fonologik muhim zidlanish sanalib, u morfema va so'zlarning moddiy shakllantirish bilan birga, ularning ma'nolarini farqlash vazifasini bajaradi.

Tovushlar o'zlarining fonologik muhim belgilari bilangina o'zaro zid munosabatda bo'ladi. Demak, har qanday fonema albatta ma'lum zidlanishning a'zosi bo'ladi. Har qanday real talaffuz qilinayotgan tovush esa fonologik muhim bo'lmagan belgilarga ham ega bo'ladi. Demak, undoshlarda invariant-variant munosabatini belgilash uchun ularning fonologik muhim va nomuhim belgilarini ajratish katta ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun ham til birliklarining farqlanishida lingvistik zidlanishlar muhim o'rin egallaydi. Bunday zidlanishlar lingvistik birliklarning tasnifi uchun asos bo'ladi.

O'zbek tilidagi undosh fonemalar ham o'zaro zidlanish uchun asos bo'luvchi uch belgi – artikulyatsiya o'rnini, artikulyatsiya usuli hamda ovoz va shovqin ishtirokiga ko'ra belgilari asosida tasnif qilinadi.

Artikulyatsiya o'rniga ko'ra undoshlar bo'g'iz, til va lab undoshlariga ajratiladi. Bular, o'z navbatida, ichki bo'linishlarga ega.

Artikulyatsiya usuliga ko'ra undoshlar sirg'aluvchi, portlovchi va portlovchi-sirg'aluvchilarga (qorishiq) bo'linadi.

Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra ham undoshlar uch guruhga bo'linadi: sonorlar, jaranglilar va jarangsizlar.

O'zbek tili fonologik sistemasidagi undoshlar uchun yuqoridagi belgilar fonologik muhim sanaladi va ularning o'zaro farqlanishi uchun asos bo'ladi. Masalan, [g] va [k] fonemalarining birinchi va ikkinchi belgisi bir xil. Ya'ni ularning ikkisi ham til orqa, portlovchi undoshlardir. Sistemada ularni bir-biridan farqlovchi belgi – ovoz va shovqin ishtiroki belgisidir: [g] – jarangli, [k] – jarangsiz. Yoki [d] va [j] zilanishida ikkala fonema ham til oldi, ikkalasi ham jarangli bo'lib, artikulyatsiya o'rnini hamda ovoz va shovqinning ishtiroki belgilari ular uchun integrativ belgi hisoblanadi. Artikulyatsiya usuliga ko'ra belgisi esa ushbu fonemalarning differentsiatsiyasi uchun asos bo'ladi: [d] – portlovchi, [j] – qorishiq (portlovchi-sirg'aluvchi). Shu belgisi asosida til sistemasida ular bir-biridan farqlanadi. Ko'rinadiki, shu uch belgi o'zbek tilining fonologik sistemasida mavjud undoshlarni bir-biridan farqlash uchun asos bo'ladi.

Masalan, lab undoshlari oppozitsiyasini ko'rib chiqaylik: b-p zidligida jarangli-jarangsizlik belgisi fonologik muhim belgi bo'lsa, b-m zidligida sonorlik-sonor emaslik belgisi, b-f zidligida esa portlovchilik-sirg'aluvchilik belgilari fonologik muhim belgilar hisoblanadi.

Ko'rinadiki, o'zbek tilida undoshlar uch belgiga ko'ra zidlanadi. Oppozitsiya uchun asos bo'luvchi uch belgi – artikulyatsiya o'rnini, artikulyatsiya usuli hamda ovoz va shovqin ishtiroki.

Lekin tasnif uchun asos qilib olingan yuqoridagi uch xususiyat nisbiy bo'lib, ayrim undoshlarning farqlanishi uchun yetarli emas. Xususan, [s] va [sh] fonemalarining ikkisi ham artikulyatsiya o'rniga ko'ra til oldi, artikulyatsiya usuliga ko'ra sirg'aluvchi, ovoz va shovqin ishtirokiga ko'ra ikkisi ham jarangsiz. Bunday holatlarda zidlanish sistemasini tahlil qilish ehtiyoji tug'iladi.

N.S.Trubetskoy zidlanishlarni tasnif qilishda quyidagi uch belgi muhimligini ta'kidlaydi:

- 1) zidlanuvchi a'zolarining zidlanish sistemasiga munosabatiga ko'ra;
- 2) zidlanuvchi a'zolar o'rtasidagi munosabatga ko'ra;
- 3) zidlanuvchi a'zolarining ma'no farqlash kuchiga ko'ra

O'zbek tilidagi undosh fonemalarning tasnifi uchun asos qilib olingan yuqoridagi uch xususiyat zidlanuvchi a'zolarining o'zaro munosabatiga ko'ra belgilarni tashkil qiladi. Lekin sistemaga mansub har bir fonemani o'zi mansub qatordagi boshqa fonemadan farqlash uchun, xususan, [s] va [sh] o'rtasidagi farqlanishni yoritib berish uchun bu belgilar yetarli bo'lmasligi mumkin. Shunday hollarda zidlanuvchi a'zolarining zidlanish sistemasiga munosabatini hisobga olish

zarur bo‘ladi. Bunga ko‘ra, zidlanishlar bir o‘lchovli va ko‘p o‘lchovli bo‘lishi mumkin.

**Bir o‘lchovli** zidlanishlarda zidlanuvchi a‘zolarining zidlanishi uchun asos bo‘lgan belgi faqat shu zidlanish uchungina xos bo‘lib, zidlanish sistemasining boshqa a‘zolarida uchramaydi. Shunga ko‘ra, [s] va [sh] zidlanishi aynan bir o‘lchovli zidlanish hisoblanadi. Chunki [sh] [s] dan “shippillovchi” ekanligi bilan farq qiladi va shu belgisi ularning o‘zaro farqlanishi uchun asos bo‘ladi. Bunday zidlanish sistemasining boshqa a‘zolari o‘rtasida uchramaydi. Bundan tashqari, [sh] ning “shippillovchi”lik xususiyati o‘zbek tili fonologik sistemasidan o‘rin olgan fonemalarning hech birida mavjud emas. Bu esa uning **ajralgan zidlanish** ekanligidan dalolat beradi.

Xuddi shunday zidlanish turini [l] va [r] o‘rtasida ham kuzatish mumkin. Fonologik sistemada [l] “yon”lik, [r] esa “titroq”lik belgisi bilan boshqa fonemalardan ajralib turadi. Ular o‘rtasidagi zidlanish bir o‘lchovli zidlanish bo‘lib, ularning farqlanishi uchun asos bo‘luvchi “yon”lik va “titroq”lik belgilari esa faqat shu birliklar uchungina xos bo‘lgan, boshqa hech qaysi birlikda takrorlanmaydigan **ajralgan zidlanishdir**.

Zidlanuvchi a‘zolar o‘rtasidagi munosabatga ko‘ra zidlanishlarni quyidagi turlarga ajratishimiz mumkin:

1. Privativ zidlanish.
2. Ekvipolent zidlanish.
3. Gradual zidlanish.
4. Ajratilgan zidlanish.

Privativ zidlanish birida bor, ikkinchisida yoq bo‘lgan belgi asosidagi fonologik oppozitsiyalar bo‘lib, ikki a‘zodan iborat bo‘ladi: b-p, d-t, i-u kabi. Demak, privativ zidlanishda korrelyativ belgi asos bo‘ladi. Jumladan, t↔d zidlanishida t fonemasida jarangsizlik belgisi korrelyativ belgidir. Chunki shu fonemaning asosiy belgilariga ega bo‘lgan, ammo undan boshqa korrelyativ belgisining borligi bilan (jaranglilik belgisi borligi bilan) ajralib turuvchi d fonemasi bor. Qolgan belgilari ushbu zidlanishda korrelyativ bo‘lmagan belgi hisoblanadi.

Ekvipolent zidlanish teng qimmatli fonologik oppozitsiyalar bo‘lib, zidlanuvchi a‘zolar mantiqan teng huquqlidir. Ya’ni ziddiyatga kirishayotgan ikki a‘zoning zidlanish belgilari teng. Masalan, d↔v zidligida d – til oldi, portlovchi, jarangli; v – lab, sirgaluvchi, jarangli. Ziddiyatga asos bo‘layotgan belgilar ikkisi ham teng.

Gradual zidlanish ma’lum belgining ortib borishi natijasidagi fonologik oppozitsiyadir. Masalan, i↔e↔a zidligida og‘izning ochilish darajasi, yoki u↔o↔o zidligida lablanish belgisining darajalanishi.

Fonologik oppozitsiyalarni quyidagicha ko'rsatish mumkin.

| A'zo miqdoriga<br>ko'ra<br>Xususiyatga<br>ko'ra | BINAR | TENAR     | KO'P A'ZOLI           |
|-------------------------------------------------|-------|-----------|-----------------------|
| PRIVATIV                                        | d↔t   |           |                       |
| EKVIPOLENT                                      |       |           | p = b = t = d = m = n |
| GRADUAL                                         |       | k → q → h |                       |
| AJRATILGAN                                      | sh↔s  |           |                       |

Fonologik oppozitsiyalar zidlanuvchi a'zolar ishtirokiga ko'ra oppozitsiyasiga ko'ra binar, tenar va ko'p a'zoli zidlanishlarga bo'linadi. Jumladan, fonologik oppozitsiyalar ikki a'zodan iborat bo'lsa, binar oppozitsiya deyiladi: b-p, t-ch, i-u kabi. Fonologik oppozitsiyalar uch a'zodan iborat bo'lsa, tenar oppozitsiya deyiladi: p-t-k, i-e-a kabi. Ko'p a'zoli zidlanishlarda zidlanish a'zolari uchtdan ko'p bo'ladi: p=b=t=d=m=n=ng=k=g=q – portlovchilar ekvipolent zidlanishga kirishadi.

### Savollar

1. Fonologik muhim zidlanishlarni izohlang.
2. Privativ zidlanishni aytib bering.
3. Ajratilgan zidlanish deganda qanday zidlanishni tushunasiz?
4. Korrelyativ belgi qaysi zidlanishga asos bo'ladi?
5. Ekvipolent zidlanishni tushuntiring.
6. Gradual zidlanishga misollar keltiring.
7. Fonologik zidlanishlarning a'zo miqdoriga ko'ra turlariga misollar keltirib izohlab bering.

### Tayanch termin va iboralar.

*Fonologik muhim belgilar, korrelyativ belgi, differensial belgi, farqlash va zidlash tushunchasi, distinktiv funksiya, ma'no farqlovchi va ma'no farqlamaydigan oppozitsiyalar, gradual oppozitsiya, privativ oppozitsiya, ekvipolent oppozitsiya, ajratilgan oppozitsiya, binar oppozitsiya, tenar oppozitsiya, ko'p a'zoli oppozitsiya, umumiylik va xususiylik.*

## AKUSTIKA VA ARTIKULYATSIYA

Reja:

1. Akustika va fonetika.
2. Akustik hodisalar va tushunchalar.
3. Tovushlar artikulyatsiyasi.

Fizikaning akustika bo'limi tilshunoslikning fonetika bo'limi bilan chambarchas aloqadadir. Tovushning eshitilishi haqida biror tushuncha hosil qilish uchun, bir oz bo'lsa-da, akustikadan xabardor bo'lish kerak.

Akustika fani fizikaning tarkibiy qismi bo'lib, tovushning eshitish xususiyatlarini o'rganadi. Ultra va infrabinafsha tovushlar kashf etilgunga qadar har qanday tovushni qabul qilish vositasi insonning eshitish organi quloq deb hisoblangan, shuning uchun fizikaning tovushlarni o'rganluvchi sohasi akustika (yunoncha *eshitish* so'zidan olingan) deb yuritilgan. Tovush to'lqinlarining vujudga kelishi va tarqalishi bilan bog'liq hodisalarni akustik hodisalar deb yuritiladi. Tovushlarning tarqalish tezligi eksperimental (tajribaviy) metod asosida o'rganilish yo'lga qo'yilishi bilan akustika sohasi taraqqiyotida katta o'zgarish sodir bo'ldi. XVII asrga kelib fizik olimlar havoda tovush to'lqinlarining tezligini o'lchash bilan aloqador dastlabki tajribalarni o'tkazdilar (masalan: to'pdan o'q otilganda yorug'lik chaqnagan payt bilan o'sha tovush yetib kelgan payt orasidagi vaqtni aniqlashga harakat qilingan).

Hozirgi paytda tovushning havodagi tezligi normal sharoitda 331 m/sekundga tengligi asboblari yordamida aniqlangan. Shuningdek, olimlar suvda tovush tezligi 1500 m/s, po'latda esa 6000 m/s ekanligini o'lchov asboblari yordamida ma'lum bo'lgan.

Asosiy akustik tushunchalar qatoriga tovushning balandligi, tovush bosimi, tovush kuchi, tovush tembri, akustik rezonans kabilar kiradi. Inson o'zining eshitishiga qarab har qanday tovushning balandlik darajasini aniqlaydi. Odam quloqidagi pardaga tovush to'lqinining ta'sir kuchi tovush bosimi deb yuritiladi. Gaz yoki suyuqlikdan tovush to'lqini o'tganda vujudga keladigan qo'shimcha bosim tovush bosimi sanaladi. Odam qulog'ining tovushni sezish bilan bog'liq eng past chegara 10-6 PA tovush bosimiga mos keladi, ya'ni normal atmosfera bosimining 10-10 qismini tashkil etadi. Agar tovush bosimi yuqori chegaraga yetsa (quloqda og'riq paydo bo'ladi), taxminan 100 PA ga teng keladi.

Tovush tebranishlari garmonik tovush bo'yilcha yuz beradi, buni odam qulog'i musiqaviy ton sifatida qabul qiladi. Shuni inobatga olish lozimki, yuqori chastotali tebranishlar yuksak tondagi tebranishlar sifatida, past chastotali tebranishlar esa past tondagi tovushlar sifatida quloqqa yetib boradi. Yuqori va past tebranishdagi tovush tebranishlari oraliqidagi masofa oktava deb yuritiladi. Masalan, birinchi oktavaning "lya" toni 440 gers chastotaga ega bo'lsa, ikkinchi oktavaning "lya" toni 880 gersli chastotaga mos keladi.

Garmonik qonunga bo'ysunmaydigan tovush tebranishlari ham bor. Ularni inson tembriga ega bo'lgan murakkab tovush sifatida qabul qiladi. Shuning uchun ham tonning balandligi bir xil bo'lsa ham, g'ijjak va pianino asboblariidan chiqadigan tovushlar tembriga ko'ra farq qiladi. Odam quloqi eshitishi mumkin bo'lgan tovush tebranishlarning chastotasi 20 dan 20000 gersgacha bo'lgan oraliqda ekanligi aniqlangan. 20 gersdan kam chastotali tebranishlar infraqizil tovushlarni, 20 mingdan ko'p chastotali tebranishlar esa ultrabinafsha tovushlarni hosil qiladi.

Agar jismning xususiy erkin tebranishlari chastotasi tovush to'lqinining chastotasi bilan kelsa akustik rezonans hodisasi yuzaga keladi. Masalan, puflab chalinadigan cholg'u asboblariining, jumladan, organning trubalari akustik rezonator vazifasini bajaradi. Fizikaning akustika sohasiga tegishli ma'lumotlar fonetika, ayniqsa nutq tovushlar tizimini o'qitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutq tovushlariga fizik yoki akustik aspektda qaralsa, ularda, avvalo, ikki xil belgi ko'zga tashlanadi: bulardan biri – nutq tovushlarining sifat belgisi, ikkinchisi esa miqdor belgisidir.

Nutq tovushlarning sifat belgilari quyidagilardir:

1. Tovushning kuchi yoki intensivligi.
2. Tovushning balandligi.
3. Tovush tembri yoki bo'yoqdorligi.

Tovush to'liqlinining balandligi va kengligi **tovush kuchi** deyiladi. Boshqacha aytganda, to'liqlinning paydo bo'lgan o'rni bilan uning pastga tushgan o'rni o'rtasidagi kenglik tovush kuchini ko'rsatuvchi faktordir. Akustikada tovush to'liqlinining balandlik va kenglik ko'lamini amplituda (grekcha *acustikos*, eshitilish demakdir) deyiladi. Odatda amplitudaning ko'lamini qancha katta, keng va baland bo'lsa, tovush kuchi shunchalik ko'p bo'ladi. Tovush kuchi nutqda nutq protsessining holati va urg'u bilan bog'liq bo'ladi. Odatda, so'zda urg'u tushgan tovushlar kuchli, urg'usizlar esa kuchsiz tovushlar hisoblanadi.

Shu bilan birga, har bir tovushning kuchini belgilashda uning nutq jarayonida aytilish holati ahamiyatlidir. Lekin teng kuchga ega bo'lgan tovushlarda ham shovqin har xil bo'lishi mumkin. Bu tovushning balandligiga bog'liq. Tovushning balandligi qancha yuqori bo'lsa, uning shovqini shunchalik baland bo'ladi. Lekin tovushning asosiy xususiyatini (intensivligini) uning kuchi belgilaydi. Og'iz bo'shlig'ining maksimal shovqin chiqarish imkoniyatiga ko'ra **i** tovushi eng kuchli tovush hisoblanadi. **A** tovushi esa bu jihatdan eng kuchsiz tovushdir. Chunki og'iz bo'shlig'i **a** ni talaffuz qilganda **i** ga nisbatan keng ochiladi, havoning chiqish kuchi kamayadi. Lekin og'iz bo'shlig'ining **a** tovushi nutq protsessida qo'llash imkoniyati **i** tovushining imkoniyatiga nisbatan ancha qulay. Shunga ko'ra odatdagi nutq protsessida **a** tovushi **i** tovushiga nisbatan ko'proq kuch bilan qo'llanadi. Lekin nutq protsessida tovushlar maksimal shovqin asosida emas, balki tabiiy nutq zarurati darajasida ifodalanadi. Chunki maksimal shovqin holatida nutq tovushlari asosiy xususiyatini yo'qotadi. Bu jihatdan qaraganda ham **a** tovushining talaffuzi **i** ga nisbatan qulayroq.

**Tovush balandligi** tebranishning vaqtga nisbatan bo'lgan miqdori bilan o'lchanadi. Uning o'lchov birligi gers(Gs) deb ataladi. Gers tebranishning sekundga nisbatan o'lchovini belgilaydi. Tebranish qancha ko'p bo'lsa, tovush shuncha baland, tebranish oz bo'lsa, tovush ham past bo'ladi. Boshqacha aytganda, tovushning balandligi tebranishning zichligiga bog'liq: tebranish qancha zich bo'lsa, tovush shuncha baland bo'ladi.

Tovush **tembri** (fransuzcha *timbre* – tovush bo'yog'i) yoki bo'yoqdorligi. Har bir tovushning o'ziga xos ohangi, rangi yoki buyoqdorligi tovush tembri deyiladi. Tovush bo'yoqdorligi tovush tembrining holati va darajasi bilan o'lchanadi. Tovush tembri asosiy tonlar bilan obertonlarning (nemischa oberton – qo'shimcha ohang) murakkab qo'shilmasidan iborat.

Akustikadan ma'lumki, har bir tebranuvchi jism, masalan, rubobning tori biror ta'sir natijasida tebranadi va havo to'liqlinlanishi natijasida ovoz chiqaradi. Torning butun tanasi bo'ylab chiqargan ovozi asosiy ton – asosiy ovoz bo'ladi. Lekin tordagi umumiy, asosiy to'liqlinlanish bilan birga uning tanasining ayrim qismlari ham o'ziga

xos ravishda to‘lqinlanadi. Bunday to‘lqinlanish asosiy to‘lqinlanishga nisbatan uning yarmini, uchdan birini yoki chorak qismini tashkil etishi mumkin. Ana shunday qo‘shimcha to‘lqinlarning jaranglashi natijasida qo‘shimcha ovozlar yoki ohanglar – obertonlar hosil bo‘ladi. Bu aytilganlar tembrning umumiy akustik xarakteristikasidir.

Hamma unli tovushda ham ovoz bor. Lekin ular bir-birlaridan tembri bilan farq qiladi. Bunda og‘iz bo‘shlig‘i asosiy va eng murakkab rezonanslik vazifasini bajaradi, shu bilan birga, nutq jarayonida tovush tembrining hosil qilinishida yumshoq tanglay (xususan, burun rezonansini hosil qilish uchun) va tovush paychalari ham faol ishtirok etadi. Bulardan tashqari, nutq tovushlarini hosil qilishda til, lab, tish va boshqa nutq organlarining ham o‘ziga xos o‘rni bor.

Boshqacha aytganda, tovushning boshqa sifat ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda, nutq tovushlarini hosil qilishda tovush tembrining ham muhim ahamiyati bor. Biroq nutq tovushlarini hosil qilishda akustik jihat bilan bir qatorda fiziologik jihat, ya‘ni nutq organlari ishtiroki muhim rol o‘ynaydi. Biroq bu ikki tomon ham nutq tovushlarining to‘liq qimmatini yarata olmaydi. Ularning to‘liq qimmati nutq tovushlarining ma‘no yaratish xususiyatlari tufayli, sotsial qimmati tufayli yuzaga chiqadi.

**Tovushning miqdor belgisi** deyilganda odatda tovushning cho‘ziqligi nazarda tutiladi. Tovushning cho‘ziqligi uning talaffuz qilinishicha, ko‘p vaqt ketgan tovushlar cho‘ziq tovushlar deb ataladi. Lekin nutq tovushlari uchun absolyut cho‘ziqlikning qimmati yo‘q. chunki nutq tovushlarining qimmati o‘zining tabiiy (nisbatan cho‘ziq, nisbatan qisqa) vaqti bilan belgilanadi. Biroq “miqdor belgisi” degan iboraning nutq tovushining cho‘ziqliligiga nisbatan shartli ravishda qo‘llanilishini unutmash kerak. Chunki ayrim tillarda, kam bo‘lsa-da, ma‘no ajratish uchun xizmat qiluvchi cho‘ziklik ham uchraydi. Bu esa nutq tovushining sifat belgisidir. (Bu haqda vokalizm mavzusida batafsil to‘xtalgan)

Shuni ta‘kidlash zarurki, fonologik cho‘ziqlik sifat o‘zgarishiga olib kelsa, fonetik cho‘ziqlik miqdor o‘zgarishiga olib keladi.

Shunday qilib, ayrim tillarda prinsipial (ma‘no ajratuvchi) cho‘ziq tovushlar mavjud. Ular shu tilning tabiatiga xos bo‘lgan birlamchi - fonologik cho‘ziq tovushlardir. Shuningdek, ikkilamchi – fonetik cho‘ziqlik ham bo‘lib, ular keyingi davrda yuzaga kelgan. Bunda tovushning cho‘ziqligi urg‘uga yoki pozitsiyaga bog‘liq bo‘ladi. Bunday cho‘ziqlik odatda hamma tillarga xos bo‘lib, nutq jarayonida ko‘p uchraydi. Shu boisdan bo‘lsa kerak, rus tilshunoslari<sup>1</sup> fonetik cho‘ziqlikni cho‘ziqlikning asosiy turi deb hisoblaydilar.

Ma‘lum bir tilga xos bo‘lgan nutq tovushlarini hosil qilishga muvofiqlashgan nutq apparati artikulyatsion baza deb ataladi.

Tovush artikulyatsiyasida uch holat bo‘ladi:

1. Ekskursiya — tovush hosil qilishga o‘tish.
2. Pauza—tovush chiqarish uchun pauza qilish (to‘xtab olish).
3. Rekursiya — asl holiga qaytish.

Artikulyasiyada ikki hodisa juda muhim rol o‘ynaydi: artikulyatsiya o‘rni va artikulyatsiya usuli.

---

<sup>1</sup> Каранг: Матусевич М.И. современный русский язык. Фонетика. –М., 1976, -С: 30.

Tovush hosil qilishda nutq organlarining ishtirok etgan qismi artikulyatsiya oʻrni deyiladi. Tovush hosil qilish paytida ikki organning bir-biri bilan jipslashishi yoki jipslashmay, oradan havoning oʻtib ketishi uchun boʻshliq qolishi artikulyatsiya usuli deyiladi.

### Savollar

1. Akustika qaysi fanning tarkibiy qismi va u nimani oʻrganadi?
2. Qanday hodisalarni akustik hodisalar deyiladi?
3. Tovushning havodagi tezligini bilasizmi?
4. Asosiy akustik tushunchalarni aytib bering.
5. Tovush balandligi va tovush kuchi tushunchalarini farqlab bering.
6. Tovush bosimi va tovush tembri tushunchalarini izohlang.
7. Akustik rezonans hodisasini tushuntiring.
8. Tovush toʻlqini va tovush tebranishini izohlang.
9. Artikulyatsion baza deb nimaga aytiladi?
10. Tovush artikulyatsiyasining uch holatini aytib bering.
11. Artikulyatsiya oʻrni va artikulyatsiya usuli deganda nimani tushunasiz?

### Tayanch termin va iboralar.

*Akustik hodisalar, akustik rezonans, tovush toʻlqini, tovush balandligi, tovush bosimi, tovush tembri, tovush kuchi, artikulyatsiya, artikulyatsiya bazasi, artikulyatsiya usuli, artikulyatsiya oʻrni, ekskursiya, rekursiya, pauza.*

## TRANSKRIPSIYA

### Reja:

1. Transkripsiya haqida umumiy maʼlumot.
2. Transkripsiyaning tamoyillari.
3. Transkripsiyaning turlari.
4. Transliteratsiya.
5. Transkripsiyaning tuzilishi.

Transkripsiya lotincha soʻz boʻlib, **transcriptio** qayta yozish demakdir. Transkripsiya soʻzi keng va tor maʼnoda ishlatiladi. Keng maʼnoda ishlatilganda orfoepiyaga oid ishlarda, geografik va tarixiy nomlarning reja va xaritada berilganiga moslashtirib yozishda, xalq ogʻzaki ijodi materiallarini yozib olishda ham ilmiy yozuvdan foydalaniladi. Shuningdek, biror musiqa asbobi uchun yozilgan asarni boshqa bir musiqa asbobiga moslab qayta yozish ham tushuniladi. Bu mazkur soʻzning umumiy va keng maʼnoda qoʻllanilishidir.

Transkripsiya fonemaning ogʻzaki nutqda va shevalarda uchraydigan turli koʻrinishlarini yozuvda ifodalash uchun qoʻllanadigan grafik belgilar sistemasidir. Bu mazkur soʻzning xususiy va tor maʼnoda qoʻllanilishidir. Demak, transkripsiya ilmiy yozuv boʻlib, bir tildagi fonemalarning hamma nozik tomonlarni hisobga olgan holda, ilmiy maqsadlar uchun talaffuzga koʻra yozib olish degan maʼnoni beradi.

Bunda u yoki bu tilda mavjud bo'lgan alfavitdagi belgilar yetarli bo'lmaydi. Shunga ko'ra, u yoki bu xalq iste'molidagi (lotin, rus, o'zbek, alfaviti kabi) an'anaviy alfavitdan o'zni bilan ma'lum bir tegishli o'zgarishlar kiritish talab qilinadi. Bu belgilar odatda mavjud alfavitdagi harflarning ustidan, yonidan va tagidan shartli belgilar qo'yish yo'li bilan amalga oshiriladi yoki boshqa alfavitdan shartli ravishda belgi (harf) qabul qilinadi. Natijada ilmiy yozuvda belgilar soni asos qilib olingan alfavitdagi belgilar sonidan ko'p bo'lishi mumkin.

Transkripsiya tamoyillari o'ziga xos xususiyatlari bilan orfografiya va uning tamoyillaridan (fonetik, morfologik, tarixiy-an'anaviy kabi) farq qiladi. Ular o'rtasidagi asosiy farqlar quyidagilardan iborat:

1. Transkripsiyaning asosiy tamoyiliga ko'ra so'zlar qanday eshitilsa, shunday yozib olinadi. Orfografiyada, esa adabiy til me'yorlariga, imlo qoidalariga asosan yoziladi.

2. Transkripsiya qoidalariga ko'ra, hamma vaqt bir tovush bir harf (belgi) bilan berilishi lozim. Orfografiyada esa bir tovush bir harf bilan ifodalansa ham, lekin ba'zan bir tovush ikki harf (belgi) bilan yoki, aksincha, ikki tovush bir harf bilan berilishi mumkin. Masalan, kirill yozuvida imlo ikki tovushni ifoda qiluvchi *yulduz*, *yuz*, *yarim*, *yosh*, *yetti*, *yer* kabi so'zlardagi tovush birikmalari *yu*, *ya*, *yo*, *ye* yozuvda ikki belgi bilan *yu-yu*, *ya-ya*, *yo-yo*, *ye-ye* kabi ifoda etiladi. Yoki *sh*, *ch*, *ng* kabi lotin yozuvidagi harfiy birikmalar ham bir belgi orqali ifodalanadi. Jumladan, **ng** transkripsiyada bir asosiy belgi orqali, ya'ni **h** tarzida beriladi. Masalan, shahar va shahar atrofidagi shevalarga: *Yulduz*, *Yuz*, *Yerim*. Qipchoq shevalarida: *Julduz*, *juz*, *jarim*, *jat* kabi.

3. Transkripsiya qoidalariga muvofiq bosh harflar qo'llanilmaydi. Imloda buning bo'lishi shart. Shartli ravishda faqat xat boshida va atoqli otlarda bosh harfning yozilishi hisobga olinadi.

4. O'zbek xalq shevalaridagi o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy yozuv bilan ifodalaganda, imlo qoidalariga moslab emas, balki so'zlarning talaffuziga, ularning aytilishiga qarab yozib olinadi. Masalan, og'zaki nutq jarayonida so'zlar *bop̣tyl*, *op̣ke*: kabi shakllarida ko'p qo'llaniladi. Yozuvda esa imlo qoidalariga muvofiq yoziladi: «bo'libdi», «olib kel».

5. Sheva va dialektdagi nutq tovushlarini fonetik transkripsiya uchun tanlangan alfavit orqali ifoda qilib bo'lmasa, boshqa tillar alfavitidan harflar olinadi yoki harflar yoniga, ustiga, ostiga, ichiga diakritik belgilar orttiriladi.

Transkripsiyaning *fonetik transkripsiya*, *fonematik* yoki *fonologik* transkripsiya kabi turlari bor.

**Fonetik va fonologik transkripsiya.** Ma'lum bir maqsad uchun turli sohalar bo'yicha ishlatiladigan transkripsiyaning aniqlik darajasi bir xil emas. Shundan kelib chiqib, transkripsiyaning bir qancha turlari bor. Tekshiruvchining vazifasi va maqsadlari bilan bog'liq holda uning turlari ko'rinishlari qo'llanilishi mumkin. Masalan, qardosh tillarning fonetikasini, aniq bir tilning fonetikasini tarixiy jihatdan bayon etishda fonetik transkripsiyadan foydalaniladi. Xalq orasida nomi keng tarqalgan dostonlar, ertaklar, termalar va boshqa xalq og'zaki ijodi materiallarini yozib olishda, nashr etishda ham fonetik transkripsiyadan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Aks holda ularning qimmatiga putur yetadi yoki kamayadi.

Lingvistik asarlar (qiyosiy va tarixiy grammatikalar, etimologik lugʻatlar, turli xil matnlardan namunalar va shu kabilar) ni nashr etganda transliteratsiyadan foydalanilsa ham, qardosh tillarning fonetikasi qiyos qilinganda, dialektologik ishlarda va dialektologiya fanida fonetik transkripsiyadan foydalaniladi. Xalq ogʻzaki ijodiyoti yodgorliklarini nashr etganda mavjud alfavitdan foydalanilsa, bu yodgorliklar dialektal qimmatini yoʻqotadi. Shuning uchun ularning talaffuz xususiyatlarini mumkin qadar saqlash maqsadida fonetik transkripsiya qoʻllanadi.

Demak, mohiyat jihatidan eng aniq transkripsiya fonetik transkripsiyadir. Bu transkripsiya umumiy va xususiy fonetika, shu qatori eksperimental fonetika yutuqlariga asoslanadi. Fonetik transkripsiyaning vazifasi tilda mavjud boʻlgan hamma tovushlarni yozuvda aks ettirishdir.

Faqat fonemalarnigina hisobga olish uchun ishlatiladigan transkripsiya fonologik transkripsiya deyiladi.

**Transliteratsiya.** Biror tilning yozma yodgorliklarini yoki maʼlum bir matnni (masalan, arab alifbosida yozilgan eski oʻzbek tili yodgorliklari) nashr etishda shu yodgorliklarning yozuv sistemasini boshqa til yoki yodgorlik bosilayotgan xalqning mavjud yozuv sistemasi orqali ifodalash transliteratsiya deb ataladi. Demak, transliteratsiya - biror yozuv harflarini boshqa bir yozuv harflari bilan almashtirib ifodalash usulidir. Masalan, رَبِّ زِدْنِي عِلْمًا “Робби зидний ъилман”, yaʼni “Ey, Robbim, menga ilmni ziyoda et”. (“Toha, 114”).

Transkripsiya bilan transliteratsiya oʻzaro mustahkam bogʻliqdir. Transliteratsiya soʻzi lotincha boʻlib, orqali, vositasi bilan va harf maʼnolarida keladi. Ikki atamani bir-birlari bilan almashtirmaslik kerak. Ular bir-birlariga oʻxshash boʻlsa ham, oʻz xususiyatlari jihatidan tubdan farq qiladi. Chunki transkripsiya til yoki lahjadagi tovushlarning turli koʻrinishlarini talaffuziga moslab yozish, yaʼni uni yozuvda ifodalash uchun foydalaniladi. Transliteratsiyada esa tilimizning turli davrlarda yozib qoldirilgan yodgorliklarini, masalan, Urxun-Enasoy arab yozuvidagi yozma yodgorliklarni hozir amalda boʻlgan yozuv tizimi bilan ifodalash koʻzda tutiladi. Bunda bir yozuv ikkinchi bir yozuv harflari bilan oʻquvchilarga tushunarli alfavitga keltiriladi. Qiyosiy va tarixiy grammatika, filologik lugʻatlar tasvirini izohlab va nashr ham transliteratsiya ishlatiladi.

**Transkripsiyaning tuzilishi.** Fonetik transkripsiya boshqa maqsadlar uchun ham qoʻllaniladi. Masalan, fransuz, ingliz kabi chet tillarni oʻrganishda ishlatiladi. Bu oʻrinda L.V. Shcherbaning «Фонетика французского языка» asarini eslatib oʻtish oʻrinlidir. Ayrim fonetik transkripsiylar keng miqyosda qoʻllanilishi mumkin. Ular lotin alfaviti asosida tuzilgan boʻlib, xalqaro fonetik alfavit (XFA) deb yuritiladi. Bunday transkripsiya, soʻzsiz, keng doirada qoʻllaniladi va uning ahamiyati cheksizdir. Ana shunday transkripsiyalardan biri akademik L.V.Shcherba nomidan yaratilgan. Uning transkripsiyasi boshqalarga nisbatan birmuncha afzalliklarga ega ommaviy ahamiyat kasb etgan. Turkiy tillarni oʻrganishda turkologlar tomonidan turlicha transkripsiylar qoʻllanilgan. Ularning koʻplari lotin alfavitiga asoslanib ishlangan transkripsiyalardir. Baʼzilar esa har bir aniq tildagi alfavit asosida berilgan. Masalan, Gʻozi Olim Yunusov, N. A.Baskakov, Sobirjon Ibrohimov, V.V. Reshetov kabilarning bu sohadagi tajribalarini qayd etish kifoyadir. Ulardan V.V.Reshetovning transkripsiyasi keng doirada ishlatiladi. Hozirgi vaqtda oliy oʻquv yurtlarida

o'tiladigan mashg'ulotlarda, ilmiy tajriba vaqtlarida va har xil ilmiy tekshirishlarda amalda ana shu transkripsiyalardan foydalaniladi. Transkripsiyada unlilar va undoshlarning har biri alohida belgilar bilan ko'rsatiladi va izohlab beriladi. Shuningdek, turli diakritik va shartli belgilari ham kiritiladi. Transkripsiya belgilari uchun o'zbek alfavitida mavjud bo'lgan harflarning hammasi olinadi. Shuningdek, **o**, **u**, **ы**, **e** kabi qo'shimcha belgilari ham qo'llaniladi. o'zbek xalq shevalaridan Toshkent va Toshkent atrofidagi shevalarda; Jizzax, Kattaqo'rg'on, Samarqand, Buxoro, Qarnob kabi shevalarda 6 tadan unli fonema mavjud. Demak, bu shevalarda unli fonemalar miqdor jihatdan bir-biriga asosan mos keladi. Bulardan **o**-til orqali qattiq lablanmagan fonema sanaladi. Samarqand-Buxoro shevalarida bu fonema ba'zan **a** belgisi bilan beriladi. (Mas., amonot-omanat) ' va **u** unlilarning talaffuzi adabiy tildagi kabi qisqa talaffuz qilinadi. Samarqand-Buxoro shevalari bundan mustasnodir. Shunday qilib, yuqoridagi fonemalardan ikki fonema (**e**, **ə**), Farg'ona shevalarida uchta fonema (**e**, **ə**, **a**) bilan beriladi. Qipchoq shevalaridagi kabi o'g'uz unlilarda 9-10 tadan unli fonema mavjuddir. Shevalarda birlamchi cho'ziqlik ham mavjud (*Adyl, qiz, diz* kabi) bu o'g'uz shevalarida uchraydi. Masalan, **f** fonemasi Samarqand-Buxoro shevasidan tashqari, hamma shevalarda **p** undoshiga **x** va **h** aralashtiriladi. Qipchoq shevalarida **x** fonemasining **q** fonemasiga o'tishi (*qalq, qatyn* singari), ayrimlaridan esa **q** fonemasining **k** fonemaga o'tishi (*kəri, kədir* kabi) singari xususiyatlarning mavjudligi ko'zga tashlanib turadi. Ilmiy yozuv va imlo bir-birlariga o'xshasalar ham, ular qo'llanilishi va asoslari bilan o'zaro farqlanib turadi. Bu farqlarni hisobga olish shevashunoslik uchun, ayniqsa, foydalidir.

Tilshunoslikda keng miqyosda qo'llanadigan lotin alfaviti asosida tuzilgan transkripsiya xalqaro fonetik alfavit (Международный фонетический алфавит - MFA) nomi bilan yuritiladi. Rus grafikasi asosida tuzilgan transkripsiyalar turkshunos va russhunoslarning ishlarida keng tarqalgandir. Lekin o'zbek tilining dialekt va shevalarini o'rgangan turkolog va o'zbekshunoslar o'z ilmiy ishlarida turlicha transkripsiya belgilarini qo'llaganlar. Ba'zilar lotin alfavitidan foydalangan bo'lsa (prof. Ye.D.Polivanovning ishlariga qarang), ba'zilar rus grafikasi asosida tuzilgan transkripsiyalardan foydalangan (prof. Borovkov, prof. V.V.Reshetovlar ishlariga qarang).

Shevalarda uchraydigan har bir tovushni ifodalash uchun transkripsiyada ayrim belgi olish talab qilinadi. Ammo shuni aytish kerakki, mavjud transkripsiya sistemalari bu talabga to'liq javob bera olmaydi. Ayrim hollarda bosmaxona imkoniyatini hisobga olgan holda bir tovush uchun ikki harf ishlatish ham uchraydi. Masalan, **ng** va **dj** mustaqil fonemalarining ikki harf bilan berilishi kabi.

V.V.Reshetov va Sh.Shoabdurahmonovlar qo'llagan transkripsiya sistemasida kirill alfavitidagi **ye**, **yo**, **yu**, **ya** dan tashqari hamma harflar qo'llangan. Yoolashgan harflar transkripsiyada tovushlar birikmasi orqali quyidagicha beriladi: **ye** - **ye**, **ye**, **ye** ; **yo** - **yо**; **yu** - **yY**, **yu**; **ya** - **yə**, **ya**

Boshqa alfavitlardan [**Y**, **ə**, **a**, **ы**] belgilari olingan. Bulardan [**Y**] va [**ə**] belgilari shu unlilarning oldingi qator ekanligini (yumshoqligini) ko'rsatadi: *gYl, kəl* kabi; [**ə**] esa umumo'zbek shevalariga xos bo'lgan oldingi qator keng unli tovushini ifodalaydi: *ləttə, ərəvə* kabi. Transkripsiyada undosh tovushning yumshoqligi ham alohida belgi bilan ifodalanadi, masalan, **lr**- yumshoq **l**.

**Unlilar.** Unli tovushlarni ifodalash uchun quyidagi transkripsion belgilar olingan:

| Tilning ko‘tarilish o‘rniga ko‘ra    |                            | oldingi qator (til oldi) |            | indefferent (oraliq tovushlar) |            | orqa qator (til orqa) |            |
|--------------------------------------|----------------------------|--------------------------|------------|--------------------------------|------------|-----------------------|------------|
| Labning ishtirokiga ko‘ra            |                            | Labla nmaga n            | Labla ngan | lablan magan                   | lablanga n | lablan magan          | lablan gan |
| Tilning ko‘tarilish darajasiga ko‘ra |                            |                          |            |                                |            |                       |            |
| Yuqori ko‘tarilish                   |                            | <b>I</b>                 | <b>Y</b>   | <‘, >                          |            | <b>Ы</b>              | <b>u</b>   |
| O‘rta ko‘tarilish                    | yuqori – o‘rta ko‘tarilish | <b>E</b>                 | <b>ə</b>   |                                | <o‘>       |                       | <b>o</b>   |
|                                      | quyi – o‘rta ko‘tarilish   | <b>e</b> __<br><b>ε</b>  |            |                                |            |                       |            |
| Quyi ko‘tarilish                     |                            | <b>Ә</b>                 |            |                                |            | <b>a, ɔ</b>           |            |

Demak, unlilarning turli variantlarini berish uchun transkripsiyada 15 ta belgi olingan. Bu belgilar orqali o'zbek dialekt va shevalarida uchraydigan unli fonemalarni ifodalash mumkin.

**Ayrim transkripsiya belgilarining ma'no variantlari.** Unli tovushlar uchun belgilar quyidagi ma'no o'zgaliklari bilan qabul qilinadi:

**a** - umumturkiy orqa qator, singarmonizmni saqlagan barcha o'zbek dialekt va shevalariga xos unli, singarmonizmni yo'qotgan shevalarda esa turli o'zgaliklarga ega. Rus tilidan o'lashgan so'zlarda, rus tilidagi **a** tovushiga mos keladi.

**ə** - oldingi qator, lablanmagan **a** unlisi; o'zbek dialekt va shevalarining ko'pchiligida uchraydi, masalan, *Marg'ilon*, *Andijon əkə* // *Toshkent ɔkə* kabi.

**ɔ** - orqa qator, lablanmagan **a** tipidagi ochiq unli tovush o-lovchi o'zbek shevalarida keng tarqalgandir, masalan, *Toshkent*, *Marg'ilon*, *ɔtə*, *bələ* // *Qo'qon bələ* kabi.

**A** - lovchi o'zbek shevalarida bu tovush o'zbek adabiy tili va o-lovchi shevalarning ta'sirida tarqala boshladi.

**e** - oldingi qator, lablanmagan, tor unli tovush bo'lib, o'zbek shevalarining ko'pchiligiga xos. O'zining akustik (eshitilish) va artikulyatsion xususiyatlariga ko'ra rus tilidagi undoshdan keyin keladigan *ye* yoki so'z boshida keladigan **e** harfi bilan ifoda etiladigan *seno* (pichan), *eti* (bular) so'zlaridagi kabi tovushga to'g'ri keladi. Bu tovush mavjud o'zbek orfografiyasida so'z boshida keladigan **yolashgan** unli *ye* (**y+e**) emas, balki *edi* (-ed') so'zidagi kabi **yolashmagan** unlidir. Masalan, *Toshkent*, *Namangan*, *Marg'ilon* va boshqa shevalarda: *ber*, *kel*, *yer*, *yend'*, *yechk'* kabi.

**e** - oldingi qator, lablanmagan ochiq *ye* unlisi; bu tovush akustik jihatdan *ye* ga yaqin bo'lsa-da, uning ochiq varianti emas. Bu tovush ba'zan ruscha (*etot* so'zidagi kabi) **e** ga mos keladi, masalan, qipchoq shevalarida: *ekəviyəm*, *echki* kabi.

**ε** - oldingi qator, lablanmagan **e** unlisining ochiq varianti; akustik jihatdan **ə** va **e** o'rtasidagi tovush, masalan, *Iqon*, *kel*, *Xorazm*, *gel*, *Namangan*, *n'mes'*, *belɣ'* kabi.

**i** - odatdagi turkiy oldingi qator, lablanmagan **i** unlisi. Singarmonizmli shevalarda fonema sifatida, singarmonimni yo‘qotgan **olovchi** shevalarda esa turli fonetik sharoitlardagina uchraydi.

‘ - indifferent lablanmagan tovush, u o‘zining kelib chiqishi jihatidan oldingi qator **i** va orqa qator **ɪ** unlilarining konvergensiya (birlashishi) natijasida hosil bo‘lgan; **i** va **ɪ** o‘rtasidagi bu indifferent tovush shahar shevalarida va shahar tipidagi qishloq shevalarining ko‘p qismida mustaqil fonema sifatida uchraydi, masalan, *Toshkent*, *Qo‘qon*, *Andijon*, *Marg‘ilon* va shu kabi shevalarda: k’sh’, ‘kk’, b’z, b’l// *ad. orf.* kishi, ikki, biz, bil kabi.

- turg‘un orqa qator indifferent ‘ unlisi; ammo **ɪ** tovushiga teng emas. Shahar shevalarida va shahar tipidagi shevalarda chuqur til orqa **q**, **g’**, **h** tovushlari bilan yondosh kelganda uchraydi, masalan, *Toshkent*, *Marg‘ilon*, *Andijon* va shu kabi shevalarda: qz, qq, q’sh, psh(t), mx; Turkiston sheasida bu tovush *Toshkent*, *Farg‘ona* shevalaridagi kabi ‘ fonemasining kombinator varianti emas, balki alohida fonema hisoblanadi: q’zlar, ch’qt’ kabi.

**u** - odatdagi orqa qator, lablangan turkiy **u** unlisi.

**Y** - odatdagi oldingi qator, lablangan turkiy **Y** unlisi. Bu tovush singarmonizmli o‘zbek shevalarida hamda qardosh qozoq, qirg‘iz va boshqa turkiy tillarda mustaqil fonema sifatida ishlatiladi. singarmonizmni yo‘qotgan o‘zbek shevalarida **Y** ga yaqin kombinator varianti mavjud, masalan, qul (qYl) va kul (kYl) kabi.

**o** - odatdagi orqa qator, lablangan turkiy **o** unlisi, masalan, qipchoq som, qoʻly, qoy//*ad.orf.* so‘m, qo‘lini, qo‘y kabi.

**o** - odatdagi oldingi qator, lablangan turkiy **o** unlisi, masalan, qipchoq komYr, gər, səyla, kəz// *ad.orf.* ko‘mir, go‘r, so‘zla, ko‘z. Singarmonizmli o‘zbek shevalarida hamda qozoq, qirg‘iz kabi turkiy tillarda **o** unlisi alohida fonema sifatida ishlatiladi. Singarmonizmni yo‘qotgan o‘zbek shevalarida esa **o** ga yaqin kombinator variantlariga bor: qo‘l (qəl), ko‘l (kəl) kabi.

**o’** - lablangan, indifferent tovush. Tilda ‘ kabi [oxo]ning konvergensiya (birlashishi) natijasida hosil bo‘lgan **o** va **o** o‘rtasidagi bu tovush singarmonizmni yo‘qotgan shahar va shahar tipidagi shevalarda me’yoriy fonema hisoblanadi.

Izoh. Berilgan transkripsion belgilar orqali shevalarda uchraydigan barcha tovushlarni ifodalab bo‘lmaydi. Masalan, Samarqand, Qarshi kabi shevalarda keng tarqalgan **a** unlisi ayrim pozitsion holatlarda **ə** unlisiga yaqinlashsa, ayrim holatlarda esa **a** unlisiga moyil talaffuz qilinadi. Samarqand, Qarshi, Xujand shevalaridagi **ɔ** unlisi sal lablangan bo‘lib, *Toshkent* shevasida uchraydigan **ɔ** dan o‘zining ochiqligi bilan farqlanadi. Ba’zi bir shevalarda ye va **u** juda qisqa bo‘lib, ma’lum bir holatlarda ye tovushi eshitilishi jihatidan ‘ ga yaqinlashadi. (Masalan: Samarqand: yeydu, yekk’ // *Toshkent*, y’:yd’, ‘kk’). Nihoyat, talaffuzda **Y** va **Θ** fonemalari orqa qator **u**, **o** ga yaqinlashishi mumkin, shuningdek, **u**, **o**, **a** fonemalari oldingi qator **Y**, **Θ**, **a** ga yaqinlashishi mumkin. Bunday tovushlar ‘, kabi indifferent (oraliq) tovushlar hisoblanadi.

Sheva materiallarini yozib olish jarayonida bunday xususiyatlarni maxsus belgilar olib ifodalash, ularni alohida-alohida uqtirib borish zarur.

**Tovushlarning miqdori.** Tovushlarning miqdor (uzunlik, qisqalik) jihatidan o'zgarishlarini ifodalash uchun quyidagi belgilar olingan:

1. [i],[ʲ],[ɪ],[ɪ̞],[Y],[u] - yuqori ko'tarilish unlilarining sifat jihatidan o'zgarishi /reduksiyaga uchrashi/. Masalan, *Toshkent.*, *Marg'ilon* b[ʲ]r, b[ʲ]rɔv - fizik nuqtai nazaridan br, brovga teng.

2. i,ʼ,ɪ̞,Y,u (kursiv bilan) - kuchsiz va shu bilan birga juda qisqa unli tovushlar.

3. i,ʼ,ɪ̞,Y,u - miqdor jihatdan farqlanmaydigan, tabiatiga ko'ra qisqa unli tovushlar.

4. i;ʼ;ɪ̞;Y;u (belgidan keyin bir nuqta) - ayrim pozitsion holatlarda hosil bo'ladigan sal cho'ziq unlilar.

5. i:;ʼ:;ɪ̞:;Y:;u:;o:;ə: (belgidan keyin ikki nuqta) - ba'zi bir shevalarda uchraydigan (masalan, *Qorabuloq*: a:t, o:t, q':z kabi) birinchi darajali (birlamchi) cho'ziqlikni ifodalovchi yoki ko'pchilik o'zbek shevalarida uchraydigan (masalan, shə:r//shə:ər//*adbiy orfograf.* shahar kabi) biror tovush hisobiga bo'ladigan ikkinchi darajali (ikkilamchi) cho'ziqlikni ifodalovchi odatdagi uzun unli tovushlar.

6. i::;ʼ::;ɪ̞::;Y::;u::; (belgidan keyin bir necha ikki nuqta) - fonetik o'ta cho'ziqlik (emfatik cho'ziqlik).

**Diftonglashgan unlilar.** So'z boshida diftonglashgan **e, o, ø**, unlilari quyidagicha transkripsiya qilinadi:

1) diftonglashishning maksimal darajasi - **ye** yoki **ie**; **YØ**, **uo** kabi ifodalanadi, masalan, *qipchoq* yeshki, *Yølsa*, *YøttY*, *Yøsha* // *adbiy orfografik.* echki, o'lsa, o'tdi, o'sha;

2) diftonglashishning susayishi (kuchsizlanishi) - **(y)e** yoki **(y)e**; **(Y)ø**, **(u)o** kabi ifodalanadi, masalan, *qipchoq* (Y)øz, (Y)øtтыz, (u)øt, (i)et // *adbiy orfografik.* o'z, o'ttiz, o't, et.

**iy, qy, Yv, uv** tipidagi diftongsimon tovush birikmalari ba'zi o'zbek shevalarida **i, ɪ, u** tovushlarining cho'ziq varianti (**i:**, **ɪ:**, **u:**) kabi eshitilsa ham, ko'pchilik o'zbek shevalarida fonetik jihatdan diftong xarakteridagi ayrim tovush bo'lmay, balki ikki mustaqil tovushdan iborat bo'lgan tovushlar birikmasidir. Masalan, *qipchoq*, kiydi∞ki:di, oquv∞qu:, bilYv∞ bilY:.

**Undoshlar.** Transkripsiyada **b, d, z, m, n, p, r, s, t, sh** undoshlari o'z holicha ishlatiladi. Qolgan belgilar quyidagi maonoda qo'llanadi:

**v** - lab-lab **v**. Lab-tish **v** undoshi uchrab qolsa, alohida izohlash zarur.

**y** - ruscha **y** ga nisbatan siqiqroq talaffuz qilinadigan tovush. Nemis tilidagi **j** undoshiga to'g'ri keladi.

**g'** - chuqur til orqa, frikativ (sirg'aluvchi) tovush.

**g'**- chuqur til orqa, portlovchi tovush, **g'** fonemasining kombinator varianti.

**g** - sayoz til orqa, portlovchi tovush.

**gr-** **g** dan ko'ra sayozroq tovush, yumshoq **g**.

**g'** - til orqa sirg'aluvchi tovush.

**j** - ruscha **j** ga mos keladigan tovush.

**dj** - affrikat (qorishiq) tovush.

**q** - chuqur til orqa, portlovchi tovush.

**k** - sayoz til orqa, portlovchi tovush.

**kr- k** dan ko‘ra sayozroq tovush, yumshoq **k**.

**l** -til orqa **l**.

**lr**- til oldi yumshoq **l**.

**ng** - til orqa burun tovush.

**ngr- ng** dan ko‘ra sayozroq tovush, yumshoq **ng**.

**ng<sup>k</sup>** - **k** qo‘shib talaffuz qilinadigan **ng** tovushi.

**f** - lab-lab **f**. Lab-tish **f** undoshi uchrab qolsa, alohida izohlash zarur.

**chsh** - affrikat (qorishiq) tovush.

**t** - qipchoq shevalarida affrikat **ch** tovushi talaffuzida o‘zini tashkil qilgan qismlar **t** va **sh** ga ajrab ketadi va shunday talaffuz qilinadi. Bunday chog‘da ikki belgi orqali (so‘nggisi kichikroq) ifodalanadi.

**x** - chuqur til orqa, frikativ (sirg‘aluvchi) tovush.

**xr- x** dan ko‘ra sayozroq, frikativ (sirg‘aluvchi) tovush, yumshoq **x**.

**q<sup>x</sup>**- chuqur til orqa, afrikat qorishiq tovush; **q** va **x** fonemalari kam farq qiladigan shevalarda uchraydi.

**h**- bo‘g‘iz tovushi. Nemis tilidagi **sh** undoshi kabi talaffuz etiladi.

**Diakritik belgilar va boshqa shartli ifodalar:** transkripsiyada asosiy belgilar bilan bir qatorda diakritik belgilar ham ishlatiladi. Asosiy belgiga qo‘shilgan qo‘shimcha belgi diakritik belgi deyiladi. Bunda transkripsiya uchun tanlangan alfavit orqali ifoda qilib bo‘lmasa, boshqa tillar alfavitidan harflar olinadi yoki harflar yoniga, ustiga, ostiga, ichiga diakritik belgilar orttiriladi.

Masalan, til oldi o‘(ø)ni til orqa o‘(o)dan farqlash uchun asosiy belgining o‘rtasiga qo‘yilgan chiziqcha bilan farqlanadi. Ana shu qo‘yilgan farqlovchi chiziq yoki nuqta diakritik belgi sanaladi.

Transkripsiyada orfografiyada qabul qilingan bayon alomatlari, nuqtalar ko‘pincha boshqa ma’nolarda qo‘llanadi. Masalan, bahor so‘zi transkripsiyada ba:hor deb yoziladi. Bu so‘zdagi **a:** dan keyingi ikki nuqta **a** ning cho‘ziq talaffuz qilinishini bildiradi.

. (bir nuqta) : (ikki nuqta) va :: (bir necha ikki nuqta) belgidan keyin qo‘yilib, unlining uzunligini, cho‘zib aytilishini ifodalaydi.

’ - lenis, g‘ ning yoniga qo‘yilib [g’], talaffuzda portlashni ifodalaydi.

‘ - asper, g ning yoniga qo‘yilib [g`], spirantizatsiyani, ya’ni shu tovushni sirg‘aluvchi ekanligini ifodalaydi.

**r**- akut, belgining o‘ng tomoniga qo‘yilib, [lr] palatalizatsiya (yumshalish)ni ko‘rsatadi.

**Ch** - belgisi, konvergensiya (birlashish) hodisasini ko‘rsatish uchun tovushlar va fonemalar orasiga qo‘yiladi.

> belgisi - o‘tish hodisasini ko‘rsatadi.

< belgisi - o‘zgarish hodisasini ko‘rsatadi.

|| belgisi - tovushlarning almashinishi va ikki faktning parallel qo‘llanishni ko‘rsatadi.

| va ~ belgilari taqqoslashni ko‘rsatadi.

( ) qavs - shart bo‘lmagan, tushib qoladigan elementni ko‘rsatadi.

[ ] o‘rta qavs - umumiy matndan transkripsiya qilingan so‘zlarni ajratib ko‘rsatish uchun ishlatiladi.

*Kursiv* – (harflarni yotiq holda ifodalanishi) - turli darajadagi kuchsizlanish va reduksiyaning ko'rsatadi.

### **Savollar**

1. Transkripsiya deganda nimani tushunasiz?
2. Diakritik belgi nima?
3. Transkripsiya turlari haqida gapirib bering.
4. Transliteratsiyaga ta'rif bering.
5. Fonetik transkripsiyaning ahamiyati nimada?
6. Fonologik transkripsiyaning vazifasi nimadan iborat?
7. Transkripsiyaning tuzilishi haqida gapirib bering.
8. Unli tovushlarni ifodalash uchun qanday transkripsion belgilar qabul qilingan?
7. Berilgan transkripsion belgilar orqali shevalarda uchraydigan barcha tovushlarni ifodalab bo'lmasa qanday yo'l tutiladi?
8. O'zbek tilidagi undosh tovushlar transkripsiyada qanday ifodalanadi?

### **Tayanch termin va iboralar.**

*Transkripsiya; transkripsion belgi; diakritik belgi; transliteratsiya; fonetik transkripsiya; fonologik transkripsiya; xalqaro fonetik alfavit; unlilar transkripsiyasi; undoshlar transkripsiyasi.*

### **NUTQ APPARATI**

Reja:

1. Faol (aktiv) nutq organlari.
2. Nofaol (passiv) nutq organlari.

Fonetika tovushlarning hosil bo'lishi, talaffuzi, bo'g'in va urg'uning xususiyatlari haqida ham ma'lumot beradi. Tilimizdagi barcha so'zlar nutq tovushlaridan tashkil topgan. Nutq tovushlari ma'no ajratish uchun xizmat qiladi. Ana shu jihati bilan tabiatdagi boshqa tovushlardan farq qiladi. Nutq tovushlarini nutq a'zolarimiz hosil qiladi.

Nutq tovushlari talaffuz organlarining ma'lum harakati bilan hosil bo'ladi. Nutq tovushlari hosil bo'lishda ishtirok etuvchi organga nutq organlari deyiladi. Bu organlarning yig'indisi esa nutq apparati sanaladi.

Nutq apparati o'zining holati va harakatiga qarab ikkiga bo'linadi:

1. Faol nutq organlari: tovush paychalari, kichik til, til, lab va pastki jag'lar.
2. Nofaol nutq organlari: ko'krak qafasi, kekirdak, yuqori jag', qattiq tanglay, burun, tish.

Demak, nutq tovushlarini hosil qilish uchun xizmat qiladigan a'zolar shartli ravishda nutq apparati deb yuritiladi. Nutq apparati asosan uch qismdan iborat: 1)

nafas yoli – nutq apparatining quyi qismi; 2) hiqildoq – nutq apparatining oʻrta qismi; 3) tomoq, ogʻiz va burun boʻshliqlari - nutq apparatining yuqori qismi.

B i r i n c h i qismi boʻgʻizdan pastki qism boʻlib, unga *ikki oʻpka, ikki bponx va traxeya* kiradi. Ular oʻzidan tovush chiqara olmaydi, balki yuqoridagi nutq apparatiga havoni yoʻnaltiruvchi vosita sifatida ishtirok etadi. Nutq apparatining quyi qismi oʻpka, bronxlar (oʻpkada tarmoqlanib ketgan nafas yoʻllari), diafragmadan iborat. Havo oʻpkadan bronxlar orqali oʻtib, tarmoqdagi nafas yoʻlidan nutq tovushlarini hosil qiladigan vaziyatda tashqariga chiqib ketadi. Oʻpkadan chiqqan nafasni tovush hosil qilish holatiga keltirishda koʻkrak qafasini qorin boʻshligʻidan ajratib turadigan parda (diafragma) muskullarining xizmati katta. Bu bosqich tovush chiqarish uchun asos sifatida xizmat qiladi.

I k k i n c h I s i boʻgʻiz boʻshligʻi boʻlib, unga asosan *halqasimon togʻay, ikki piramidasimon togʻay va qalqonsimon togʻaylar* joylashgan. Halqasimon va qalqonsimon togʻaylar tovush paychalarining harakatlarini boshqarib turadi. Nutq apparatining oʻrta qismida joylashgan tovush paychalari nomi bilan yuritiladigan elastik muskullar va bu muskullarni harakatga keltiruvchi togʻaylar nutq tovushlarini hosil qilishda muhim ahamiyatga ega. Ovoz nutq apparatining oʻrta qismida (hiqildoqda), nafas yoʻlida paydo boʻladi. Elastik muskullardan iborat boʻlgan tovush paychalarining yuqoridagi qismi qalqonsimon kemirchakka, quyi qismi esa halqasimon kemirchakka yopishgan piramida shaklidagi choʻmichsimon ikki kemirchakka boʻgʻlangan. Shu kemirchaklarning yordami bilan tovush paychalari harakatga keladi. Hiqildoqda koʻndalang turgan tovush paychalarini goh ochiladi, goh yopiladi. Tovush paychalari oraligʻining torayishi va oʻpkadan chiqqan nafasning tovush paychalarini titratishi, tebratishi natijasida ohangdr tovushlar yuzaga keladi.

Nutq apparatining u c h i n c h i qismiga *boʻgʻiz va tomoq, ogʻiz va burun boʻshliqlari, til va tanglay, lab va tish, hiqildoq* kabilar kiradi. Bular turli tovushlarni vujudga keltirish bilan birga, shovqin, tovush va ovozni kuchaytirish, qoʻshincha ranglar hosil qilish kabi xususiyatlarga ega. Tomoq, shuningdek, ogʻiz va burun boʻshliqlari tovushni kuchaytirib beruvchi rezonatorlik vazifasini bajaradi.

Ogʻiz boʻshligʻI yuqori tomondan qattiq va yumshoq tanglay, pastdan jagʻ bilan til osti oʻrtasida joylashgan muskul, yon tomondan lunjjar bilan chegaralanib turadi. Ogʻiz boʻshligʻining pastida til va uning negizi, tubi, tilning orqa, oʻrta va old qismlari, pastki qator tishlari, soʻngra ostki lab joylashgan. Ogʻiz boʻshligʻining yuqorisida kichik til, yumshoq tanglay, tanglay va uning old qismi, yuqori qator tishlar va ustki lab joylashgan.

Agar yumshoq tanglay yuqori tortilib, kichik til orqaga surilsa hamda tomoqqa taqalsa, burun boʻshligʻiga oʻtadigan havo yoʻli toʻsiladi va nafasning ogʻiz boʻshligʻidan oʻtishi natijasida ogʻiz tovushlari paydo boʻladi.

Yumshoq tanglay pastga tushirilib, kichik tiloldinga surilsa, ogʻiz boʻshligʻidan oʻtadigan havo yoʻli toʻsiladi, nafas burun boʻshligʻidan oʻtadi va burun tovushlari hosil boʻladi.

Nutq apparatining yuqori qismi – hiqildoqning etagi, boʻgʻiz va tomoq, ogʻiz va burun boʻshliqlari, til va tanglay, lab va tish asosiy nutq oʻrganlari boʻlib, bu organlar nutq tovushlarining rang-barang turlarini vujudga keltiradi.

Shunday qilib, diafragma, o'pka, bronx va traxeya havo o'tkazuvchi manbalar ekan. Ulardan o'tgan havo oqimi nutq tovushlarini hosil qilishda harakatlantiruvchi sifatida xizmat qiladi. Hiqildoq ovoz paydo bo'ladigan manba hisoblanadi. Tomoq, og'iz va burun bo'shliqlari esa oberton va rezanatorlonlar manbaidir. Og'iz bo'shlig'idagi organlarning siqilishi va bir-biriga yaqinlashuvi natijasida turlicha shovqinlar hosil bo'ladi.

Ko'krak qafasi qobirg'a, o'pka, kekirdakdan iborat. O'pkadan chiqqan havo kekirdak orqali og'iz bo'shlig'iga kelib, turli to'siqlarga uchraydi.

Tovush paychalari tomoqda kekirdak yuqorisida joylashgan mayda lastik muskulchalardan iborat. Tovush paychalari unli tovush hosil qilishda harakatga keladi. Tovush paychalarining ishtirokiga ko'ra undoshlar ham ikkiga bo'linadi. Tovush paychalari harakatga kelib taranglashganda va ular oralig'i bir-biidan uzoqlashganda, jarangli undoshlar hosil bo'ladi. Tovush paychalari harakat qilmasa, jarangsiz undoshlar hosil bo'ladi.

Kichik til chuqur til orqa va burun tovushlarini hosil qilishda qatnashadi.

Og'iz bo'shlig'i hajm va shakl jihatdan har xil tusga kira oladi. Bunda til harakati bilan pastki jag' harakati muhim rol o'ynaydi. Og'iz bo'shlig'i umuman tovush hosil qilishda bosh rezanatorlik vazifasini bajaradi.

Til og'iz bo'shlig'idagi eng harakatchan nutq organidir. Tilning harakati va holatiga ko'ra unlilar tor, o'rta va keng fonemalarga bo'linadi.

Pastki jag' harakatchan nutq organlaridan biridir. Uning harakati natijasida og'iz bo'shlig'i turli hajm va shaklga ega bo'ladi. Unlilar tasnifida tor, o'rta, keng unlilarning farqlanishida tilning ko'tarilishi va tushish darajasi ham muhim rol o'ynaydi.

Tish passiv nutq organidir. Tish til oldi, tish va lab-tish tovushlarini hosil qilishda ishtirok etadi.

Lab lablashgan tovushlarni, shuningdek, ba'zi portlovchi tovushlarni hosil qilishda faol ishtirok etadi.

Burun passiv nutq organidir. U tovush hosil qilishda qo'shimcha rezonans vazifasini bajaradi. O'pkadan kekirdak orqali kelayotgan havo oqimining bir qismi kichik til orqali boshqarilib, burun bo'shlig'i yo'li bilan tashqariga chiqadi, natijada tovush tembrida qo'shimchcha ohang hosil bo'ladi. Lekin bunday vaqtda ham havoning (ohangning) asosiy qismi asosiy rezonator bo'lgan og'iz bo'shlig'i orqali tashqariga chiqadi.

Yozuv sistemasida bir nutq tovushining emas, balki nutq tovushlaridan ikkitasining birikmasini ifodalaydigan ye, yo, yu, ya kabi shakllar kirill yozuvida qo'llanadi. Bu shakllar grafema deb ataladi. Grafemalarning birinchi elementi til o'rta y undoshi va ikkinchi elementi e, o, u, a unlilarining birisidan iboratdir.

Lotin yozuviga asoslangan yozuvda esa bir tovushni ikki shakl orqali ifodalanish hodisasi mavjud. Ularni harflar birikmasi deb nomlashadi. Bular: ng, ch, sh harfiy birikmalaridir. Ng n g harflar birikmasi *yangi, ko'ngil, dengiz, singil, keling, bordingiz; tong, ming, teng* kabi so'zlarda til orqa ovozdor burun tovushini ifodalash uchun yoziladi. Ch ch harflar birikmasi *choy, chevar, chiroyli, chaman; achchiq, uchun, bichiqliq; kuch, kech* kabi so'zlarda til oldi jarangsiz qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi. Sh sh harflar birikmasi *shahar, shisha, shodlik, ish, pishiq;*

*bosh, tosh* kabi soʻzlarda til oldi jarangsiz sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

Orfografik belgilar hech qanday tovushni bildirmaydi, bular maʼlum orfografik vazifalarnigina bajaradi. Kirill yozuvida orfografik belgilarni ‘, belgilari tashkil qilsa, lotin yoviga asoslangan oʻzbek yozuvida orfografik belgiga tutuq (‘) belgisi kiradi. Tutuq belgisi ikki vazifani bajaradi. Birinchisi, *a’lo, ba’zan, ma’yus, ta’zim; ra’y, ta’b; e’lon, e’tibor, e’tiqod, me’mor, ne’mat, she’r, fe’l; Nu’mon, shu’la* kabi oʻzlashma soʻzlarda unidan keyin shu unli tovushning choziqroq aytilishini ifodalash uchun qoʻyiladi; *mo’jiza, mo’tadil, mo’tabar* kabi soʻzlarda oʻ unlisi choziqroq aytilsa ham, tutuq belgisi qoʻyilmaydi. Ikkinchisi, *in’om, sa’nat, qat’iy, mas’ul* kabi oʻzlashma soʻzlarda unidan oldin shu unli oldingi undosh tovushdan ajratib aytilishini ifodalash uchun qoʻyiladi.

Tutuq belgisi bu asosiy ikki vazifadan tashqari yana **c** va **h** harflari ikki tovushni ifodalaganda ularni farqlash uchun ular orasiga qoʻyiladi: *Is’hoq, as’hob* kabi.

Shunday qilib, nutq tovushlarining hosil qilinishi akustik va fiziologik jarayonning ishtiroki natijasida yuzaga keluvchi murakkab hodisadir. Nutq protsessida nutq tovushlarining sotsial qimmati (ma’no farqlovchi qimmati) hal qiluvchi rol oʻynaydi.

### **Savollar**

1. Qanday organlarga nutq organlari deyiladi?
2. Faol nutq organlarini aytib bering.
3. Nofaol nutq organlari qaysilar?
4. Nutq apparati qanday ishlaydi?
5. Artikulyatsion baza nima?
6. Grafema va harfiy birikmalarni izohlang.
7. Qanday orfografik belgilarni bilasiz?

### **Tayanch termin va iboralar.**

*Nutq apparati, nutq artikulyatsiyasi, grafema, harfiy birikma, orfografik belgi, nafas olish organlari, bo’g’iz bo’shlig’i, og’iz bo’shlig’i, burun bo’shlig’i, artikulyatsion baza, ekskursiya, rekursiya, bosh holat, artikulyatsiya o’rni, artikulyatsiya usuli.*

## **NUTQNING FONETIK BO’LINISHI**

Reja:

1. Segment birliklar.
2. Fraz
3. Takt.
4. Fonetik soʻz.
5. Bo’g’in.

Muloqot ikki shaklda olib boriladi: og’zaki va yozma. Yozma shakl nisbatan keyingi hodisadir. Og’zaki shakl esa tilning paydo bo’lishidan boshlab uning fikrni

ifodalovchi va muloqot vositasi sifatidagi yashash usuli hisoblanadi. Shuning uchun til haqidagi fanni uning material tomonisiz, tovushlarsiz, og'zaki nutqning qonuniyatlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Leksik hamda grammatik faktlar ham til taraqqiyotining u yoki bu davrida sodir bo'lgan uning tovush tomonidagi o'zgarishlar bilan asoslanadi va tushuntiriladi. Bundan tashqari, og'zaki nutq spetsifik tovush vositalariga ega bo'lib, ular tilda mazmunning ifodalanishi uchun bevosita aloqadordir. Bunday vositalarga fraza, takt, ohang, fonetik so'z, bo'g'in va urg'u kiradi. Tovushlar bilan birgalikda ular "tilning tovush sistemi"ni hosil qiladi.

Kichik birliklar esa o'zidan yuqori, kattaroq birliklarni hosil qilish uchun konstituentlik vazifasini bajaradi. Demak, segment birliklar o'rtasida ham umumiylik-xususiylik dialektikasining namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin.

Ushbu birliklarning maqomi masalasida ham tilshunoslar orasida bir xillik yo'q. Xususan, sintagma yoki takt olib ko'raylik. Uning chegarasini belgilash masalasi ham muammolidir. Agar Potebnya formulasi asosida takt (sintagma) chegarasi belgilansa, u holda har bir mustaqil so'z alohida sintagmani, takt olib hosil qiladi. Ushbu formula quyidagicha: ...12311... bu formula oddiy bo'lishiga qaramasdan, mazmunan juda salmoqlidir.

Birinchidan, u har bir takt faqat bitta urg'uli bo'g'inga egaligini ko'rsatadi: bu 3 raqami bilan belgilangan. Ikkinchidan, urg'u oldi bo'g'ini urg'uli bo'g'indan kuchsizroq, lekin boshqa bo'g'inlarga nisbatan kuchliroq ekanligini ko'rsatadi (bu 2 raqami bilan belgilangan). Uchinchidan, boshqa har qaysi bo'g'in kuch jihatdan o'zaro tengdir. Ular 1 raqami bilan belgilangan. To'rtinchidan, bo'g'in miqdoridan qat'i nazar, har bir so'z shu formulaga bo'ysunadi. Nihoyat, bu formula takt chegarasini aniqlash imkonini beradi. Masalan, 1231323 ketma-ketligi berilgan va bunda taktning miqdorini topish zarur. Formula bo'yicha, bu ketma-ketlik uchta takt mavjudligiga ishora qiladi, chunki uchta urg'uli bo'g'in mavjud (ular 3 raqami orqali ifodalanган). Endi taktlarning chegarasini aniqlash masalasi turadi. Potebnya formulasiga binoan bu quyidagicha chegaralanadi: 1231 / 3 / 23. Agar 123 / 13 / 23 tarzida ajratilsa, formulaga tushmaydi.

Bunga ko'ra *ishchilarimiz zimmalariga yuklatilgan vazifalarini a'lo darajada bajardilar* jumlasida ettida takt mavjud. Chunki jumlaning tashkil etuvchi har bir so'z o'z mustaqil urg'usiga ega.

Ikkinchi yondashuvga asosan, takt – bu frazaning qismi bo'lib, qisqa to'xtam bilan ajratiladi va tugallanmagan intonatsiyaga ega bo'ladi. Takt fraza kabi tilda mazmunning ifodalanishiga aloqadordir. Taktning chegaralari qarab matnning mazmuni o'zgarishi mumkin: *akalarim uchta ukam bor* jumlasida taktning chegarasiga qarab uchta akasi yoki uchta ukasi borligini tushunish mumkin. Agar akalarim so'zidan keyin qisqa to'xtam qilinsa, uchta ukasi mavjudligi, uchta so'zidan keyin to'xtam qilinsa, akasi uchtaligi ma'lum bo'ladi. Takt bir so'zga ham, bir necha so'zga ham teng kelishi mumkin. Ushbu qarashga ko'ra *Ishchilarimiz // zimmalariga yuklatilgan vazifalarini // a'lo darajada bajardilar* jumlasida uchta takt mavjud bo'lib, ularning birinchisi bir so'zga teng.

Takt, o'z navbatida, kichik birliklardan – fonetik so'zlardan tashkil topadi. Fonetik so'z – taktning (agar taktga ajralmasa, frazaning) qismi bo'lib, bir urg'uga ega bo'ladi. Fonetik so'z leksik va grammatik ma'nodagi so'zga teng kelishi ham

mumkin. Masalan, *Mehr nuri yog'ar doim yuzingizdan, ustozlar* da oltita fonetik va oltita leksik so'z mavjud; *Derazamning oldida bir tup o'rik oppoq bo'lib gulladi* jumlasida sakkizta leksik-grammatik, lekin oltita fonetik so'z mavjud.

Fonetik so'zlar bo'g'inlarga bo'linadi. Fiziologik jihatdan bo'g'in – bu bir havo zarbi bilan talaffuz etiluvchi fonetik so'zning qismidir. Akustik jihatdan esa bo'g'in – bu jarangdorlikning (zvuchnost) kuchayishi bilan xarakterlanuvchi fonetik so'zning qismidir.

### **Bo'g'in haqida umumiy tushuncha**

Nutq jarayonida o'pkadan chiqqan havo nutq apparati orqali bo'linib-bo'linib o'tib ketadi. Bu bo'linish ba'zan bir tovushdan keyin, ba'zan bir necha tovush birikmasidan so'ng yuzaga keladi. O'pkadan chiqayotgan havoning muayyan oraliqda bir zarb bilan o'tib ketishi bo'g'in hosil qiladi.

**Bilib olihg!** Bo'g'in bir yoki bir necha tovushdan tashkil topib, bir zarb bilan talaffuz qilinadigan fonetik birlikdir. Bo'g'in asosan unli tovush bilan belgilanadi.

Odatda bo'g'inning boshlanishida tovush past bo'lib, so'ngra kuchayadi, bo'g'in oxiriga borib, yana pasayadi. Bu hol bir necha tovushli bo'g'inlarda aniqroq seziladi. Havoning o'tishida zarbga duch kelgan fonema bo'g'inni yuzaga keltiruvchi nutq tovushi hisoblanadi. Nutq jarayonida fonemalar emas, amala bo'g'inlar bir-birlaridan ajralib turadi. Shu sababli so'zning eng kichik tovush birligi bo'g'in hisoblanadi.

Bo'g'inlar unli yoki undosh bilan tugaydi, shunga qarab, ular ikki xil bo'ladi: ochiq bo'g'in yoki yopiq bo'g'in. Masalan, *o-ta, o-na, a-ka, u-ka, mak-tab, meh-nat-kash*.

Hozirgi o'zbek tilida bo'g'inlar ichki va tashqi xususiyatlariga ko'ra beshta asosiy tipga ajraladi.

1. Bir unlining o'zidagina tuzilgan bo'g'inlar: *u, e, a; o (-ta), e(-kan), o'(-tin), i(-chak)* kabi. Bu tipagi bo'g'in V bilan ifodalanadi. Birinchi tip bo'g'in ichki turlarga bo'linmaydi.

2. Bir unli va bir undoshdan tuzilgan bo'g'inlar. Bu tipdagi bo'g'inlarning ikki xil ichki turi bor: 1) bo'gin boshida unli, bo'g'in oxirida undosh: *osh, at(-las), er, o't, uch, ish* kabi. Bu bo'g'inlar yopiq bo'g'inlar bo'lib, formulasi VC; 2) bo'g'in oxirida unli, bo'g'in boshida undosh: *bo-la, ta-na, te(-rak), to'-ra, bu(-tun), qi (-liq)* kabi. Bular ochiq bo'g'in bo'lib, formulasi CV.

3. Bir unli va ikki undoshdan tuzilgan bo'g'inlar. Bu tip bo'g'inning uch xil ichki turi bor: 1) bo'g'in boshida unli, oxirida ikki undosh: *ost, art, erk, ust, ilm* kabi. Bular yopiq bo'g'in bo'lib, formulasi VCC; 2) ikki chetda undosh, o'rtada unli: *bor, par, bel, tur, to'r, bir* kabi. Bular ham yopiq bo'g'in bo'lib, formulasi CVC; 3) bo'g'in boshida ikki undosh, oxirida unli: *blo(-kada), dra(-ma), tri(-ko)* kabi. Bular ochiq bo'g'in bo'lib, formulasi CCV. Bu tip bo'g'inlarinternatsional so'zlardagina uchraydi.

4. Bir unli uch undoshdan tuzilgan bo'g'inlar. Bu tipdagi bo'g'inlar unli bilan emas, undosh bilan boshlanadi va undosh bilan tugaydi, demak, bular yopiq bo'g'inlarni tashkil qiladi. Bunday tipdagi bo'g'inlarning ikki xil turi bor: 1) bog'in boshida bir undosh, oxirida ikki undosh, orada bir unli: *tort, barg, berk, to'rt, matn,*

*qurt* kabi. Formulasi CVCC; 2) ikki undosh, keyin unli, oxirida yana undosh: *prob(-lema)*, *plan*, *krem*, *kruj(-ka)* kabi. Formulasi CCVC.

5. Bir unli va to'rt undoshdan tuzilgan bo'g'inlar, bunday bo'g'inlar yopiq bo'g'inni tashkil qiladi, ya'ni unli bilan tugamaydi. Bu bo'g'inlar ham o'z ichida to'rt turga bo'linadi: 1) boshda bir, oxirida uch undosh, o'rtada unli: *tekst*, *punkt* kabi. Formulasi CVCCC; 2) boshda va oxirida ikkitadan undosh, o'rtada bir unli: *sport*, *kross*, *start*, *trest*, *shturm* kabi. Formulasi CCVCC; 3) boshda uch oxirida bir undosh, orada bir unli: *shprot*, *shiraf*, *skrip(-ka)*, *shprints*, *sprav(-ka)*, *strel(-ka)*, *struk(-tura)* kabi. Formulasi CCCVC; 5) chet el kishi nomlarida bo'g'inning VCCCC turi ham uchraydi: *Ernst* kabi.

Ko'rinadiki, hozirgi o'zbek tili bo'g'in turlari o'zga tillardan qabul qilingan so'zlar hisobiga ko'paygan.

### Savollar

1. Segment birliklar va uning turlarini aytib bering.
2. Segmentatsiya nima?
3. Eng kichik segment birligi qaysi?
4. Bo'g'in va uning turlarini aytib bering.
5. Ustsegment birliklarni aytib bering.

### Tayanch termin va iboralar

*Nutqning fonetik bo'linishi, segment birlik, ustsegment birlik, fraza, sintagma, bo'g'in, tovush, ohang, urg'u, so'z urg'usi, logik urg'u, emfatik urg'u, kvantitativ urg'u, dinamik urg'u, muzikal urg'u, sifat, kuch, miqdor, ajratuvchi urg'u, tembr, temp, intensivlik.*

## PROSODIKA

### Reja:

1. Aksentuatsiya - urg'ular tizimi.
2. Intonatsiya, uning prosodik elementlari.

Nutq jarayonida har qanday jumlaning tashqi tomondan shakllantiruvchi, bir butun qiluvchi vosita bu intonatsiyadir. Bizga ma'lumki, intonatsiya butunlik sifatida melodika, nutq tempi, nutq balandligi, pauza, tembr va urg'uni o'z ichiga oladi. Intonatsiya tarkibida har bir komponent o'z o'rniga va xususiyatiga ega. Bu komponentlarning har birini alohida o'rganish intonatsiyaning mohiyatini tushunishga va uning jumla tuzilishidagi maqomini belgilashga yordam beradi.

A.Abduazizov so'zning prosodik xususiyatlari haqida fikr yuritib, so'z tarkibida urg'u boshqa fonologik birliklar kabi quyidagi vazifalarni bajarishini ta'kidlaydi:

1) konstitutiv, ya'ni so'zning material qismlarini fonemalar birikuvini ta'minlovchi, "sementlovchi" vosita vazifasini bajaradi.

2) distinktiv, ya'ni so'z va morfemalarning ma'nosini farqlaydi.

3) delimitativ yoki chegaralash. Urg‘u so‘zlarning, sintagma va frazalarning chegarasini belgilab beradi.

4) rekognitiv, ya’ni urg‘u so‘z yoki morfemalarni urg‘uning o‘rniga qarab tanib olish vazifasini bajaradi..

Urg‘u intonatsiyaning tarkibiy qismi bo‘lgani holda, o‘zi ham diskret birlik bo‘lib, tovush cho‘ziqligi yoki miqdori, urg‘uli bo‘g‘inning ajratilishiga yordam beruvchi tovush kuchi, bo‘g‘in tarkibidagi unlining sifati va tonning balandligi kabi komponentlarning kombinatsiyasidan tashkil topadi. Shuni ta’kidlash joizki, urg‘u tarkibidagi komponentlarning proporsiyasi turlicha bo‘lishi mumkin. Shunga ko‘ra urg‘u turlari ajratiladi. Agar urg‘u tarkibida uni tashkil etuvchi boshqa komponentlarga nisbatan tovush kuchining miqdori ko‘proq bo‘lsa, bunday urg‘u ekspirator urg‘u; tovushning miqdoriy belgisi ustun bo‘lsa, kvantitativ urg‘u; tonning balandligi ustun bo‘lsa, muzikal urg‘u hisoblanadi<sup>1</sup>. Har bir tilning artikulyatsion-akustik xususiyatlaridan kelib chiqib turli tillarda urg‘uning turlari ham turlicha bo‘lishi mumkin. Shu jihatdan o‘zbek tili urg‘usi qanday urg‘u, degan savol tug‘iladi.

Bu borada tilshunoslar o‘rtasida bir xillik mavjud emas. Ayrim tilshunoslar turkiy tillardagi urg‘u, asosan ekspirator urg‘u ekanligini e’tirof etadilar va bu urg‘u ustiga asosiy tonning ko‘tarilishi, ya’ni muzikal urg‘u qo‘shimcha bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydilar<sup>2</sup>.

Urg‘u haqidagi ikkinchi nazariya tarafdorlari esa shu nazariya asoschilari G.Rakket va B.Kollinderga ergashgan holda, turkiy tillardagi urg‘u ekspirator emas, balki muzikal urg‘u ekanligini ta’kidlaydilar<sup>3</sup>.

O‘zbek tilining aksentologik xususiyatlari haqida fikr yuritar ekan, prof.M.Mirtojiyev o‘zbek tili urg‘usi kvantitativ urg‘u ekanligini e’tirof etadi. Uning fikricha, o‘zbek tilida leksik urg‘u kvantitativ urg‘u bo‘lib, chetdan o‘zlashtirilgan so‘zlarning bo‘g‘inidagi dinamik urg‘uni ham o‘zgartirib, o‘z ta’siriga oladi<sup>4</sup>.

Turkiy tillardagi urg‘uning tabiati va xususiyatlari haqida N.A.Baskakovning fikri ham e’tiborga loyiqdir. Uning fikricha, turkiy tillardagi urg‘uni ikki planda o‘rganish lozim: alohida so‘zga nisbatan so‘z tarkibidagi biron bo‘g‘inning kuch bilan ajratilishini ko‘rsatuvchi dinamik yoki ekspirator urg‘u hamda mantiqiy planda jumla tarkibidagi biron bir bo‘lakning mazmuniy ajratilishini ko‘rsatuvchi mantiqiy yoki muzikal urg‘u<sup>5</sup>.

Ko‘rinadiki, dinamiklik so‘z urg‘usiga nisbatan, muzikallik esa jumla yoki logik urg‘uga nisbatan belgilanadi.

I.A.Kissen o‘zbek talabalarga rus tilini o‘rgatish jarayonidagi kuzatuvlari asosida quyidagilarni bayon etadi: “Rus tilining urg‘usi kuch jihatdan o‘zbek tilidagiga nisbatan kuchliroq bo‘lib, o‘zbek tilida urg‘uli bo‘g‘inlar ovoz kuchining o‘zgarishi bilan xarakterlanmaydi va bu bo‘g‘inlarni alohida kuch bilan talaffuz qilish o‘zbeklar uchun xos emas. Shu sababdan rus tilini o‘rganayotgan talabalar o‘rganishning dastlabki bosqichida urg‘uli bo‘g‘inni yetarli miqdordagi kuch bilan talaffuz qilmaydilar”.

<sup>1</sup> Матусевич М.И. Современный русский язык. Фонетика. –Москва: Просвещение, 1976. –С.224-225.

<sup>2</sup> Бу хакида қаранг: Баскаков Н.А. Историко-типологическая фонология тюркских языков. –М: Наука, 1988. –С.185-199.

<sup>3</sup> Ўша асар, ўша бет.

<sup>4</sup> Миртожиев М. Ўзбек тилида лексик ургу // Ўзбек тили ва адабиёти, №3, 2011. -Б.24-31.

<sup>5</sup> Баскаков Н.А. Историко-типологическая фонология тюркских языков. –М.: Наука, 1988. –С.186.

Demak, I.A.Kissenning fikricha, o'zbek tilidagi urg'u dinamiklik belgisiga ega emas.

Yuqoridagi fikrlardan ma'lum bo'ladiki, turkiy tillardagi va, xususan, o'zbek tilidagi urg'uning tabiatini belgilash murakkab va muammoli masalalardan biridir. O'zbek tilida shunday so'zlar mavjudki, ularning urg'usini belgilash qiyinchilik tug'diradi. Masalan, bir bo'g'indan iborat bo'lgan *bir, bil, biz* kabi so'zlardagi *i* unlisi urg'u ostida bo'lishiga qaramay, reduksiyaga uchraydi, ya'ni miqdor belgisini yo'qotadi; *o'quvchimiz* (kesimlik formasida) va *o'quvchimiz* (egalik formasi) kabi so'zlarning uchinchi bo'g'inida talaffuz kuchining ortiqqligi kuzatiladi, lekin oxirgi bo'g'indagi *i* ning miqdoriy belgisi undan oldingiga nisbatan ortiqroqdek ko'rinadi. Bu kabi so'zlarda urg'u qaysi turga mansub? Urg'u olmaydi deb qabul qilinayotgan elementlar chindan ham urg'u olmaydimi? Yordamchi (ko'makchi va yuklamalar) va oraliq (undov, taqlid va modal so'zlar) so'zlarda urg'uning xususiyati qanday? O'zbek tilida urg'usiz bo'g'inning urg'uli bo'g'inga nisbatan cho'ziqroq va aniqroq talaffuz qilinishi ko'plab uchraydi. Buni lingvistik paradokslardan biri, deb qabul qilish kerakmi yoki o'zbek tilining aksentual xususiyatlarini chuqurroq tahlil etib, urg'u haqidagi mavjud qoidalarni o'zgartirish kerakmi?

Bu kabi savollarga javob berish hozirgi tilshunoslik oldida turgan dolzarb muammolardan biridir.

Intonatsiya butunlik sifatida uni tashkil etuvchi elementlarning barqaror munosabatlaridan tashkil topadi. Intonatsiyaning tarkibiy qismlari ilmiy adabiyotlarda turlicha ko'rsatiladi<sup>1</sup>. Ularni umumlashtirgan holda, quyidagicha belgilash mumkin: asosiy ovoz tonining pasayib ko'tarilishini nazorat qiluvchi komponent – melodika; artikulyatsiya tezligining o'zgarishini nazorat qiluvchi nutq tempi; artikulyatsion harakatlar kuchining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan ovoz balandligi; nutq jarayonida fonatsiyaning to'xtalishi, ya'ni pauza; urg'u hamda ovozning o'ziga xos bo'yqadorligini aks ettiruvchi ovoz tembri.

Bu komponentlarning intonatsiya tarkibidagi mavqei masalasida ham tilshunoslar o'rtasida bir xillik mavjud emas. Ba'zi tilshunoslar intonatsiyaning asosiy komponenti sifatida melodikani ajratsalar<sup>2</sup>, boshqalari urg'u va pazani ko'rsatadilar<sup>3</sup>. Ta'kidlash kerakki, til sistemasida intonatsiyaning tashkil etuvchi komponentlar teng qimmatlidir. Lekin bu komponentlarning mavqei nutq jarayonida so'zlovchining emotsional holati, kommunikativ maqsadi, nutq vaziyati va har bir xususiy tilning o'ziga xos jihatlari kabi omillar ta'sirida o'zgarishi mumkin.

Intonatsiya supersegment birlik sanalib, huddi leksik va grammatik vositalar singari gapni tashqi tomondan shakllantiruvchi, sintaktik uyushtiruvchi vositadir. Demak, intonatsiyaning funksiyasi nutq jarayonida ko'rinadi. V.G.Gak to'g'ri

<sup>1</sup> Бондарко Л.В., Вербицкая Л.А., Гордина М.В. Основы общей фонетики. – Санкт-Петербург: Изд. С.-Петербургского университета, 1991; Матусевич М.И. Современный русский язык. Фонетика. –М.: Просвещение, 1976; Жинкин Н.И. Взаимоотношения компонентов интонации в речи и в музыке. –Сб. Проблемы структурной лингвистики 1982. –М.: Наука, 1984; Брызгунова Е.А. Основные типы интонационных конструкций и их употребление в русском языке. – Русский язык за рубежом, 1973, №1, №2. Панов М.В. Современный русский язык. Фонетика. –М.: Высшая школа, 1979.

<sup>2</sup> Матусевич М.И. Современный русский язык. Фонетика. –М.: Просвещение, 1976; Панов М.В. Современный русский язык. Фонетика. –М.: Высшая школа, 1979; Бондарко Л.В., Вербицкая Л.А., Гордина М.В. Основы общей фонетики. – Санкт-Петербург: Изд. С.-Петербургского университета, 1991.

<sup>3</sup> Жинкин Н.И. Взаимоотношения компонентов интонации в речи и в музыке. –Сб. Проблемы структурной лингвистики 1982. –М.: Наука, 1984.

ta'kidlaganidek, intonatsiya gapda ikki funksiyani bajaradi: struktur-sintaktik (uyushtiruvchi) va xususiy semantik<sup>1</sup>.

Intonatsiyaning struktur-sintaktik funksiyasi intonemalarni birlashtirish va ajratish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Bu funksiya yordamida jumlaning tugallanganligi va tugallanmaganligi oppozitsiyasi, jumla komponentlarining bog'liqligi va ajralganligi, uyushganligi va uyushmaganligi kabi oppozitsiyalar ifodalanadi.

Intonatsiyaning semantik funksiyasi esa kommunikatsiya jarayonida yuzaga chiqadi. U nutq akti va muloqot vaziyati ta'sirida jumla mazmunining o'zgarishi bilan belgilanadi. Bunga ko'ra, intonatsiya gaplarning kommunikativ hamda informativ turlarini, mazmuniy tugallanganligi yoki tugallanmaganligini, emotsional bo'yog'ini, kommunikantlarning bir-biriga va bildirilayotgan fikrga munosabatlarini ifodalaydi. Masalan, quyidagi misollar orqali intonatsiyaning gapning aktual bo'linishiga ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Ovoz tonining ko'tarilishi gap tarkibidagi qaysi bo'lakka to'g'ri kelishi (logik urg'uning o'rni)ga va pauzaning o'rniga qarab gapning tema-rematik munosabati o'zgarishi mumkin:

**Kecha** akam Toshkentdan keldi – qachon keldi?

Kecha **akam** Toshkentdan keldi – kim keldi?

Kecha akam **Toshkentdan** keldi – qaerdan keldi?

Ko'rinadiki, aktual bo'linishda, ya'ni kommunikativ maqsadning yuzaga chiqishida jumla tarkibiy qismlarining shu jumla tarkibidagi o'rnining o'zgarishigina emas, balki ohangning o'zgarishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Intonatsiya, uning prosodik elementlari**

Intonatsiya lisoniy faktor sifatida alohida lingvistik ahamiyatga ega. Chunki aynan u tufayli nutqda o'z ifodasini topayotgan sintaktik birliklar turli ma'nolarda jilolanadi. Intonatsiya til sistemasida o'ziga xos mavqega ega bo'lib, o'z tarkibiga nutqning barcha supersegment birliklarini qamrab oladi. Bular quyidagilar:

1. Akustik sathda asosiy ovoz chastotasining o'zgarishiga olib keluvchi tovush paychalari tebranish chastotasining o'zgarishi. Bu komponent frazada tonning harakatini anglatib, balandlikning o'zgarishi sifatida qabul qilinadi va melodika deb yuritiladi.

2. Tovushlarning cho'zilishiga olib keluvchi artikulyatsiya tezligining o'zgarishi. Bu nutq tempidir. Shu bilan birga, bu komponentni ko'p holatlarda nutqning davriy birlashmasi (organizatsiyasi) deb ham yuritiladi.

3. Tovush intensivligining o'zgarishiga olib keluvchi artikulyatsion harakatlar kuchining o'zgarishi. Bu balandlik.

4. Nutq jarayonida fonatsiyaning to'xtalishi. Bu pauza sifatida qabul qilinadi.

5. Urg'uning barcha turlari.

6. Ovoz tembri.

Lekin shuni ta'kidlash lozimki, tilshunoslarning intonatsiyani tashkil etuvchi komponentlar haqidagi qarashlari bir xil emas. Xususan, L.V.Bondarko intonatsiyani tashkil etuvchi komponentlar sifatida melodika, temp, intensivlik va pazani

<sup>1</sup> Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. Синтаксис. –М.: Высшая школа, 1981. –с.102.

ajratadi<sup>1</sup>. M.I.Matusevich esa melodikani, urg‘uning barcha turlarini, pauzani va ovoz tembrini intonatsiyaning tarkibiy qismlari deb baholaydi<sup>2</sup>.

Shu bilan birgalikda, intonatsion komponentlarning nutq jarayonidagi mavqei masalasi ham tortishuvlidir. M.I.Matusevichning fikricha, intonatsiyani tashkil etuvchi komponentlar ichida melodika eng asosiysi, yetakchisi hisoblanadi. Melodika mazmun (semantika) va sintaksis bilan zich aloqada bo‘lib, har bir tilda o‘ziga xos tarzda uning melodik strukturasi tashkil etadi<sup>3</sup>.

L.V.Bondarko ham intonatsiya tarkibida melodika alohida o‘ringa ega ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, jumlaning intonatsion shakllanishida uni tashkil etuvchi turli komponentlarning roli turlichadir. Asosiy og‘irlik melodika zimmasiga, ya’ni asosiy ton chastotasining o‘zgarishiga tushadi. Shu jihatdan jumlaning fonetik xarakteristikasini ifodalovchi *intonatsiya* teriminining ton tushunchasi bilan bog‘liqligi ham bejiz emas<sup>4</sup>.

N.I.Jinning ta’kidlashicha, intonatsiya faqat eshitish orqali ta’riflanadigan bo‘lsa, unda ikki hodisani – ovozning ko‘tarilishi va pasayishini kuzatish mumkin. Bu ko‘zlanayotgan natijaning qashshoqligidan darak beradi. Aslida intonatsiyaning ma’no qirralari boy va rang-barangdir. Intonatsiyani uning asosiy dinamik komponenti (urg‘u) va cho‘ziqligi (pauza) asosida aniqlashning xarakterli tomoni shundaki, bu tayanch nuqtalarning o‘zgarishi jumla mazmunini o‘zgartirishi yoki umuman bema’nolikka olib kelishi mumkin. Masalan, agar *Dva dnya yemu kazalis novy (Ikki kun unga yangi tuyuldi)* jumlasidagi *Ikki kun ni unga yangi tuyuldi* komponenti bilan bog‘laydigan bo‘lsak, u holda *yangi kunga* tegishli bo‘ladi. Aslida esa she’rda boshqa mazmun kuzatiladi: *Dva dnya // yemu kazalis novy uedinyonnye polya / proxlada sumrachnoy dubravy / jurchane tixogo ruchya*. Bundan ko‘rinadiki, kun yangi emas, balki dalalar, salqinlik va shivirlash yangi edi. Agar ushbu jumlaning tashkil etgan turli komponentlarni, xususan, *ikki kun ni pauza yordamida ajratib kun ni unga* bilan bog‘lasak, bunday holatda be’manolik yuzaga keladi

Rus intonatsiyasining o‘ziga xos jihatlarini yoritish ekan, M.I.Matusevich melodika sub’ektiv, erkin bo‘lishi mumkin emasligini ta’kidlaydi. Uning ta’kidlashicha, melodika har bir tilning grammatik strukturasi mos bo‘lishi lozim; so‘zlovchida (tinglovchida ham) o‘z tili melodikasining muayyan modellari mavjud bo‘ladi. Bularni bilmasdan turib so‘zlovchilar bir-birlarini, ayniqsa, bildirilayotgan jumalarning nozik qirralarini tushunmasligi mumkin. Melodikaning sub’ektivligi haqida esa faqat uning cheklangan miqdorda variantlanishi mumkinligini e’tiborga olgan holatlardagina gapirish mumkin. Masalan, bir matnning turli xil intonatsion interpretatsiyasi mavjud. Shunda ham so‘zlovchi tilda mavjud bo‘lgan intonatsion modellardan ularning semantik-sintaktik strukturasi mos ravishda foydalanadi. Buni sintaktik strukturasi bir xil, lekin intonatsiya yordamida farq qiluvchi darak va so‘roq gaplar misolida ko‘rish mumkin<sup>5</sup>.

<sup>1</sup> Бондарко Л.В., Вербицкая Л.А., Гордина М.В. Основы общей фонетики. – Санкт-Петербург: Изд. С.-Петербургского университета, 1991. –с.118.

<sup>2</sup> Матусевич М.И. Современный русский язык. Фонетика. –М.: Просвещение, 1976. –с.242.

<sup>3</sup> Матусевич М.И. Современный русский язык. Фонетика. –М.: Просвещение, 1976. –с.242.

<sup>4</sup> Бондарко Л.В., Вербицкая Л.А., Гордина М.В. Основы общей фонетики. Санкт-Петербург: Изд. С.-Петербургского университета, 1991. –с.118.

<sup>5</sup> Матусевич М.И. Современный русский язык. Фонетика. –М.: Просвещение, 1976. –с.242.

Ye.Brizgunova ham rus tilida intonatsiyaning xususiyatlarini o'rganar ekan, uning ma'no farqlash imkoniyatlarini gap leksik-grammatik sostavining kommunikatsiya jarayonida turli ma'nolarda qo'llanilishi mumkinligi bilan bog'laydi va buni quyidagi holatlarda yuzaga keladigan gaplar misolida izohlashga harakat qiladi. Siz ekskursiyaga ketyapsiz. Ekskursiya rahbari sizga chiptalarni tarqatyapti: *Vash bilet...Vash bilet...(Sizning chiptangiz... Sizning chiptangiz...)*( IK – 1). Siz chiptani tushirib qo'ydingiz. Uni olgan kishi sizdan so'raydi: *Vash bilet?* (IK – 3) (*Sizning chiptangiz? (Chipta siznikimi?)*). Tekshiruvchi har bir kishining chiptasini tekshirayotib so'raydi: (A) *Vash bilet?* (IK – 4). (Bu -chi yuklamasi yordamida beriladigan savolning qisqartirilgan shakli: *Sizning chiptangiz? (Sizning chiptangiz-chi?)*)<sup>1</sup>.

Uning fikricha, gaplarning ma'nolari o'rtasidagi farq shu gaplarning leksik-grammatik tuzilishi va ohangi o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida yuzaga chiqadi. Masalan, *Bugun havo sovuq! Bugun havo sovuq? Qanday ovoz! Qanday ovoz?* kabi gaplarda o'zaro ta'sir bir leksik-grammatik sostavga (tuzilishga) turli intonatsion konstruksiyalarning yuklanishi bilan ifodalanadi. Muallif kommunikatsiya jarayonida turli ma'nolarda birdan ortiq usulda qo'llanish imkoniyatiga ega bo'lgan leksik-grammatik tuzilishlarni ko'p ma'noli deb baholab, ularga aloqa-aralashuvda bir qo'llanishli leksik-grammatik tuzilishlarni zidlaydi. Bunda ko'p ma'nolilik gaplarni so'roq, xabar, baho kabi turlarga ajratishga sabab bo'luvchi farqlovchi belgilarning mo'tadillashuvi natijasida yuzaga chiqadi<sup>2</sup>. Masalan, baho ifodalovchi *Qanday yoqimli ovoz!* gapidagi farqlovchi belgi *yoqimli* so'zidir. Gap leksik-grammatik sostavidan baho ifodalovchi ko'rsatkichning (*yoqimli* so'zining) tushirilishi gap mazmunining o'zgarishiga olib keladi. Uning mazmuni kommunikatsiya jarayonida ohang yordamida konkretlashtiriladi.

E.A.Brizgunova 7 xil intonatsion konstruksiyalarni (IK) va ma'nolari shu IKlar yordamida konkretlashuvchi gaplarning quyidagi turlarini ajratadi:

1. IK – 1 (darak gap) *Qanday ovoz sihibi*
2. IK – 2 (neytral so'roq) *Qanday ovoz sihibi?*
3. IK – 3 (savolning qaytarilishi) *Qanday ovoz sihibi?*
4. IK – 4 (savol-eslatma) *Qanday ovoz sihibi?*
5. IK – 4a (baho gap: yengil hayrat) *Qanday ovoz sihibi!*
6. IK – 5 (baho gap: chuqur hayrat yoki g'azab) *Qanday ovoz sihibi!*
7. IK – 5a (baho gap: negativ baho, bepisandlik) *Qanday ovoz sihibi!*<sup>3</sup>

Demak, tonning (intonatsiyaning) harakati gaplarni bir-biridan farqlaydi. Turli intonatsion konstruksiyalar mustaqil holda turli ma'noli birliklarni, turli tipdagi gaplarni farqlash xususiyatiga ega. Masalan, *Keling. (Ertaga albatta keling tarzidagi maslaxat ma'nosida); Keling? (Nega keling dedingiz degan e'tiroz ma'nosida); Keling! (Mehmonni qarshi olish ma'nosida); Keling! (Szni bu yerda hech kim kutayotgani yo'q tarzidagi kesatiq, piching ma'nosida)* va h.k.

<sup>1</sup> Брызгунова Е.А. Основные типы интонационных конструкций и их употребление в русском языке. – Русский язык за рубежом, 1973, №1, №2.

<sup>2</sup> Брызгунова Е.А. О смысловозначительных возможностях русской интонации. –ВЯ., 1971, №4. с.42.

<sup>3</sup> Брызгунова Е.А. О смысловозначительных возможностях русской интонации. –ВЯ., 1971, №4. с.42.

M.V.Panov Ye.A.Brizgunovanning fikrlarini ma'qullagan holda, u ajratgan intonatsion konstruksiyalar "rus intonatsiyasining negizini tashkil etadi", deb baholagan holda, IK – 1 va IK – 3 lar rus tilining intonatsion "minimum minimorum" ini tashkil etishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, har bir fraza uch qismdan iborat: markazdan oldingi, markaziy va markazdan keyingi qismlar. Frazaning markaziy qismi – bu fraza urg'usi tushgan taktning urg'uli bo'g'inidir. Ungacha bo'lgan qismlar markazdan oldingi, undan keyingi qismlar esa markazdan keyingi qismlar sanaladi. Bunda IK – 1 quyidagicha izohlanadi: markazdan oldingi qism o'rta tonda talaffuz qilinadi. Markazda ton o'rtadan ko'ra pastroq bo'ladi va bu holat markazdan keyingi qismda ham davom etadi. Buni chizmada quyiga yo'nalgan strelkalar yordamida ifodalanadi: *Ahmadjon biznikiga mehmonga kedi.* \ (Nikolay prishyol ko mne v gosti.) \ *Azamat ham biznikiga mehmonga kedi.* \ (I Boris prishyol ko mne v gosti.) \ Ya'ni jumla yakunida tonning pasayishi kuzatiladi. Ko'rinadiki, IK – 1 darak gaplar uchun xos.

IK – 3 ning izohi quyidagicha: markazdan oldingi qism o'rta tonda talaffuz qilinadi. Markaziy qismning boshlanishi undan avvalgi qismga nisbatan kuchliroq. Balandlik bo'g'in davomida ko'tarilib boradi. Markazdan keyingi qismda ton o'rtadan pastroqqacha pasayyadi

*Sen bugun kutubxonaga borasan?*

*Sen bugun kutubxonaga borasan?*

*Sen bugun kutubxonaga borasan?*

Demak, IK – 3 so'roqni ifodalovchi elementlarsiz shakllangan so'roq gaplar uchun va "vergul intonatsiyasi" uchun xos bo'lib, eski qoidaga, ya'ni mazmun tugallanmadi – ovoz tepaga, mazmun tugallandi – ovoz pastga qoidasiga amal qiladi<sup>1</sup>. Haqiqatan, so'roq gaplar ham, nutqning "vergulgacha" bo'lgan bo'lagi ham (bular IK – 3) javobni yoki nutqning davomini talab qiladi, "mazmun tugallanmagan". Nuqta (IK – 1) esa mazmun (axborot) uzatishning muayyan qismi tugaganligi haqida ma'lumot beradi.

Frazaning birinchi unlisida melodika ko'tariladi va u birinchi so'zning urg'udan keyingi bo'g'inida ham davom etadi. Bunda melodik maksimum hosil bo'ladi. Ikkinchi bo'g'indan boshlab melodikaning keskin pasayishi kuzatiladi va melodik minimumni hosil qiluvchi keyingi bo'g'ingacha davom etadi. L.V.Bondarkoning fikricha, agar fraza urg'usi ostida turgan so'z urg'uli unlisining chastotasi keskin ko'tariladigan bo'lsa, bu holatda so'roq intonatsiyasi vujudga keladi<sup>2</sup>.

Agar frazaning urg'uli unlisida melodikaning ko'tarilib pasayuvchi harakati kuzatilsa, bunda fraza muayyan emotsional bo'yoqqa, asosan, ijobiy bo'yoqqa ega bo'ladi va fraza oxirida melodika darak yoki so'roq intonatsiyasida bo'lgani kabi pasayib, tugallangan hisoblanadi. Agar bunday pasayish bo'lmasa, fraza tugallanmagan bo'lib, uni davom ettirish mumkin. Bu holatda frazaning boshlanishida urg'uli unlining balandligi maksimal chastotaga yaqin bo'ladi, tugallanishi esa melodikaning ko'rib chiqilgan tiplaridan tamoman farq qiladi, ya'ni

<sup>1</sup> Панов М.В. Современный русский язык. Фонетика. –М.: Высшая школа, 1979. –с.86.

<sup>2</sup> Бондарко Л.В., Вербицкая Л.А., Гордина М.В. Ўша асар, 120-б.

melodik cho‘qqi urg‘uli bo‘g‘indan keyingi unliga to‘g‘ri keladi. Urg‘uli unli esa ko‘tariluvchi melodika bilan xarakterlanadi.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, nutq jarayonida gapning leksik-grammatik strukturasi o‘zgartirmagan holda, faqat intonatsion vositalar yordamida gap mazmunini o‘zgartirish mumkin. Muayyan bir shakl orqali ifodalangan gaplar bir o‘rinda oddiy xabar mazmunini, ikkinchi o‘rinda hayrat, uchinchi o‘rinda so‘roq, yana bir o‘rinda belgining inkori ma‘nolarini anglatishi bilan shakl va mazmun o‘rtasidagi nomuvofiqlikni yuzaga keltiradi. Demak, gap mazmunining tushunilishida intonatsiya muhim ahamiyat kasb etadi.

Urg‘usi turg‘un bo‘lgan tillarda, xususan, o‘zbek tilida urg‘u, asosan, so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi. Bunday holatda urg‘usiz unlilar urg‘u oldi pozitsiyasiga ega bo‘ladi va intonatsion markazning o‘rni ham turg‘unlik kasb etadi. Bu esa, tabiiyki, intonatsion konturlarning o‘ziga xosligini, betakrorligini ta‘minlaydi. Shunga qaramay, o‘zbek tilida shunday birliklar borki, ular o‘ziga urg‘u olmaydi. Shu o‘rinda e‘tirof etish kerakki, o‘zbek tilshunosligida o‘zbek tilining intonatsion xususiyatlari keng monografik planda tadqiq ob‘ekti bo‘lgan emas. Bu masalaga o‘zbek tilining ayrim muammolarini, xususan, so‘zlashuv nutqi xususiyatlarini, gapning kommunikativ aspektini yoritish jarayonida yo‘l-yo‘lakay e‘tibor qaratilgan. Bu esa ushbu masala o‘zbek tilshunosligida o‘z yechimini kutayotgan yana bir dolzarb muammolardan biri ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbek so‘zlashuv nutqini o‘rganish jarayonida B.O‘rinboev so‘zlashuv nutqining intonatsion xususiyatlariga e‘tibor qaratadi. Uning ta‘kidlashicha, so‘zlashuv nutqi og‘zaki nutq bo‘lganligi uchun unda intonatsiya muhim rol o‘ynaydi. So‘zlashuv nutqi uchun bir tekis ritmik-intonatsion oqim xarakterli emas. So‘zlashuv nutqi intonatsion nuqtai nazardan «chopayotgan», «sakrayotgan» kabi tuyuladi. Uning bunday stixiyaliligi, intonatsion shakllanmaganligi nutqning tabiiyligini ko‘rsatuvchi omildir. Shuning uchun gapning ko‘zlangan maqsadga ko‘ra, emotsionallikka, modallikka ko‘ra turlari ko‘p jihatdan intonatsion farqlarga qarab belgilanadi.

B.O‘rinboev intonatsiyaning quyidagi turlarini ajratadi:

1. Grammatik yoki sintaktik-sintagmatik intonatsiya. Bu, odatda, sintaktik bo‘linishning, mazmunning boshqaligini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Bu xil intonatsiya gaplarni sintaktik bo‘laklarga ajratishda va so‘z tarkibida aniq ko‘rinadi. Masalan: *Katta mevali daraxt* (mevasi katta). *Katta mevali daraxt* (daraxt katta). *Yigit qiz izladi* (yigit—ega, qiz—to‘ldiruvchi). *Qiz yigit izladi* (qiz—ega, yigit—to‘ldiruvchi).

2. Mantiqiy yoki mantiqiy-ekspressiv intonatsiya. Bu intonatsiya grammatik-fikriy munosabatni belgilashda muhim rol o‘ynaydi. Bunda mantiqiy urg‘u muhim rol o‘ynaydi. Masalan: *U keldi, men ketdim*(*sanash: U keldi va men ketdim*). *U keldi — men ketdim* (sabab: *U kelgani uchun men ketdim. U keldi-men ketdim* (Ikki ishning bo‘lishida oradagi vaqtning qisqaligi: *U kelishi bilanoq men ketdim*).

3. Emotsional-ekspressiv intonatsiya. Intonatsiya ekspressivlikka boy, mantiqiy kuchga egaligi bilan ajralib turadi. Bunda soʻzlovchi avvalo nutqning badiiy goʻzalligiga, qolaversa fikrning oʻta taʼsirchanligiga erishadi<sup>1</sup>.

Shu bilan birgalikda, muallif soʻzlashuv nutqida intonatsiya maʼnoni differentsiatsiya qilishda muhim rol oʻynashini, har bir gap tarkibida u yoki bu maʼnoni ifodalash uchun xizmat qiluvchi intonatsion konstruksiyalar (IK) mavjudligini taʼkidlaydi va oʻzbek soʻzlashuv nutqidagi faktik materiallarga asoslangan holda, intonatsion konstruksiyalarning koʻp qirrali va rang-barang ekanligini eʼtirof etadi. Uning fikricha, intonatsiyaning turli-tuman koʻrinishlarini yozma nutqda har doim tinish belgilari orqali ifodalab boʻlmaydi. Intonatsion konstruksiyalar nutqda gap, sintagma, soʻz birikmasi va soʻzlar, shuningdek, kontekst bilan bogʻliq boʻlib, ular bilan birgalikda harakat qiladi. Shuning uchun intonatsion konstruksiya gapning eng muhim xarakterli belgilaridan hisoblanadi<sup>2</sup>.

Demak, intonatsiya supersegment fonetik hodisa boʻlib, u nutqni fonetik jihatdan shakllantiradi va bir butun qiladi hamda uning mazmuniy qirralarini yoritish uchun xizmat qiladi.

B.Oʻrinboev ham oʻzbek soʻzlashuv nutqida gaplarni bir-biridan farqlash uchun qoʻllaniluvchi intonatsion konstruksiyalarning yetti turini ajartgani holda, bu IKlarning qanday vaziyatlarda qanday maʼnolarni anglatishi mumkinligini batafsil izohlab beradi.

A.Ahmedov ham oʻzbek tilida gapning kommunikativ turlarini tadqiq etish jarayonida gap mazmuniga intonatsiyaning taʼsir etishiga eʼtibor qaratadi. Uning taʼkidlashicha, baʼzan tasdiq shakldagi gap inkor mazmuni uchun va, aksincha, inkor shakldagi gap tasdiq mazmuni uchun qoʻllanishi mumkin. Shunda ham bari bir, tildagi muayan usul va vositalardan foydalaniladi. Masalan, tasdiq formadagi *U bajarib boʻpti* gapi maxsus intonatsiya yordamida *U bajara olmaydi* degan inkor mazmunini, xuddi shuningdek, inkor shakldagi *U bermaydi*-ya gapi *U beradi* degan tasdiq mazmunini anglatadi. Shuningdek, *Men ovozim boricha chaqirdim, qani endi u javob bersa* gapining *u javob bermadi* degan inkor mazmunining anglatishi ham intonatsiya va sintaktik strukturadan bilinib turadi. Biroq bunda asosiy rol ni intonatsiya oʻynaydi. Sintaktik struktura esa yordamchi vazifani bajaradi (sintaktik struktura yuqoridagi gapning intonatsiya yordamida inkor mazmunini anglatishga zamin yaratgan)<sup>3</sup>.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan koʻrinib turibdiki, intonatsiya gap strukturasiining zaruriy komponentlaridan biri boʻlib, u gap tarkibiy qismlarini, N.I.Jinkin taʼbiri bilan aytganda, sementlovchi vositadir<sup>4</sup>. Intonatsiya oʻz funksiyasini kommunikatsiya jarayonida bajarib, gap mazmuniga taʼsir etishi va natijada gapning shakli hamda mazmuni oʻrtasidagi munosabatlarning murakkablashuviga sabab boʻlishi mumkin.

Rus tilshunosligida N.I.Jinkin nutqiy intonatsiyaning xususiyatlarini musiqiy intonatsiyaga qiyoslab oʻrganish natijasida nutqiy intonatsiyaning boy va rang-

<sup>1</sup> Ўринбоев Б. Ўша асар,

<sup>2</sup> Ўринбоев Б. Ўша асар,

<sup>3</sup> Аҳмедов А. Ўзбек тилида гапнинг коммуникатив турлари. –Тошкент: Фан, 1979. 32-бет.

<sup>4</sup> Жинкин Н.И. Взаимоотношение компонентов интонации в речи и в музыке. – Сб. Проблемы структурной лингвистики. – М.: Наука, 1984. –с. 137-148.

barangligini hamda uning ma'no ifodalash imkoniyatlarining kengligini e'tirof etadi. Uning fikricha, intonatsiyaning o'ziga xos jihatlarini namoyon etuvchi hamda uning nutq jarayonidagi funksiyasini reallashtiruvchi asosiy komponentlari urg'u va pauzadir. U intonatsiyaning ma'no qirralari boy va rang-barang ekanligini e'tirof etadi va uni asosiy dinamik komponenti (urg'u) va cho'ziqligi (pauza) asosida aniqlash maqsadga muvofiqligini, bu tayanch nuqtalarning o'zgarishi jumla mazmunini o'zgartirishi yoki umuman ma'nosizlikka olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Bundan tashqari, kommunikatsiya jarayonida intonatsiya orqali so'zlovchining tinglovchiga bo'lgan munosabati yuzaga chiqishi va shu bilan birga, jumla so'zlanayotgan muhit, vaziyat haqida ma'lumot berilishi mumkin. Masalan, *Qizim, durustroq kiyinib oling, mehmonlar masxara qilib yurishmasin, tag'in (A.Qodiriy)* jumlasida bir qarashda maslaxat, nasixat ma'nosi anglashilayotganga o'xshaydi. Lekin bu ko'rinish, xolos. Aslida esa o'zbeklarga xos bo'lgan qaynona-kelin munosabatlarining bor bo'yi bilan yuzaga chiqishining guvohi bo'lamiz. Bunday munosabatlarining yuzaga chiqishida jumla tarkibidagi leksik-semantik va sintaktik vositalar bilan bir qatorda intonatsiyaning o'rni muhimdir.

B.O'rinboev o'zbek tilining so'zlashuv nutqini tahlil etar ekan kommunikatsiya jarayonida intonatsiyaning ahamiyatiga e'tibor qaratadi va uning quyidagi turlarini ajratadi:

1. Grammatik yoki sintaktik-sintagmatik intonatsiya. Bu, odatda, sintaktik bo'linishning, mazmunning boshqaligini ko'rsatishga xizmat qiladi. Bu xil intonatsiya gaplarni sintaktik bo'laklarga ajratishda va so'z tarkibida aniq ko'rinadi. Masalan: *Katta mevali daraxt* (mevasi katta). *Katta mevali daraxt* (daraxt katta). *Yigit qiz izladi* (yigit—ega, qiz—to'ldiruvchi). *Qiz yigit izladi* (qiz—ega, yigit—to'ldiruvchi).

2. Mantiqiy yoki mantiqiy-ekspressiv intonatsiya. Bu intonatsiya grammatik-fikriy munosabatni belgilashda muhim rol o'ynaydi. Bunda mantiqiy urg'u muhim rol o'ynaydi. Masalan: *U keldi, men ketdim*(sanash: *U keldi va men ketdim*). *U keldi — men ketdim* (sabab: *U kelgani uchun men ketdim. U keldi-men ketdim* (Ikki ishning bo'lishida oradagi vaqtning qisqaligi: *U kelishi bilanoq men ketdim*).

3. Emotsional-ekspressiv intonatsiya. Intonatsiya ekspressivlikka boy, mantiqiy kuchga egaligi bilan ajralib turadi. Bunda so'zlovchi avvalo nutqning badiiy go'zalligiga, qolaversa fikrning o'ta ta'sirchanligiga erishadi<sup>1</sup>.

A.Ahmedov ham o'zbek tilida gapning kommunikativ turlarini tadqiq etish jarayonida gap mazmuniga intonatsiyaning ta'sir etishiga e'tibor qaratadi. Uning ta'kidlashicha, ba'zan tasdiq shakldagi gap inkor mazmuni uchun va, aksincha, inkor shakldagi gap tasdiq mazmuni uchun qo'llanishi mumkin. Shunda ham bari bir, tildagi muayyan usul va vositalardan foydalaniladi. Masalan, tasdiq formadagi *U bajarib bo'пти* gapi maxsus intonatsiya yordamida *U bajara olmaydi* degan inkor mazmunini, xuddi shuningdek, inkor shakldagi *U bermaydi*-ya gapi *U beradi* degan tasdiq mazmunini anglatadi. Shuningdek, *Men ovozim boricha chaqirdim, qani endi u javob bersa* gapining *u javob bermadi* degan inkor mazmunini anglatishi ham

<sup>1</sup> Ўринбоев Б. Ўзбек сўзлашув нутқи.

intonatsiya va sintaktik strukturadan bilinib turadi. Biroq bunda asosiy rol ni intonatsiya o'ynaydi. Sintaktik struktura esa yordamchi vazifani bajaradi (sintaktik struktura yuqoridagi gapning intonatsiya yordamida inkor mazmunini anglatishga zamin yaratgan)<sup>1</sup>.

Bularning barchasi nutq jarayonida jumla qurilishida intonatsiyaning roli va mavqei alohida e'tiborga loyiq ekanligidan, u tilning boshqa birliklari singari murakkab butunlik sanalib, til sistemasida o'ziga xos mavqega egaligidan dalolat beradi. Shu bilan birgalikda, ohangning bunday murakkab strukturaga egaligi, tabiiyki, ta'lim jarayonida bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Xususan, yuqorida ko'rib o'tilganidek, tartib o'zgarmagan holda tema-rematik munosabatning o'zgarishi, so'zlovchining kommunikativ niyati kabilar intonatsiya yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Demak, intonatsiya gap strukturasiining zaruriy komponentlaridan biri bo'lib, u gap tarkibiy qismlarini, N.I.Jinkin ta'biri bilan aytganda, sementlovchi vositadir<sup>2</sup>. Intonatsiya o'z funksiyasini kommunikatsiya jarayonida bajaradi va kommunikantlarning xohishiga qarab gapning shakliy tuzilishiga ta'sir etmagan holda, uning mazmuniy strukturasiiga rang-barang ma'no ottenkalarini yuklashi mumkin. Bundan tashqari, intonatsiya murakkab butunlik bo'lib, uni tashkil etuvchi komponentlarning o'zaro nisbatlanishi turli tillarda turlichadir. Shuning uchun har bir til doirasida uning intonatsion xususiyatlarini o'rganish shu tilning kommunikativ imkoniyatlarini va shu til egalarining mental xususiyatlarini yoritib berishga yo'l ochadi.

### Savollar

1. Urg'ular tizimi haqida nimani bilasiz?
2. Urg'uli bo'g'inning boshqa bo'g'inlardan farqi nimada?
3. O'zbek tilida urg'uning dinamik xususiyatini izohlang.
4. Umumiy qoidaga mos kelmaydigan holatlar qaysilar?
5. Urg'u ma'no farqlashga xizmat qiladimi?
6. Bosh urg'u va ikkinchi darajali urg'uni farqlab bering.
8. Takroriy so'zlarda, ko'makchili birikmalarda urg'uning o'rni haqida so'zlang.
9. Ton, melodika, temp, intensivlik, pauza tushunchalarini izohlang.
10. Qanday intonatsiya turlarini bilasiz?

### Tayanch termin va iboralar

*Aksentuatsiya, intonatsiya, prosodik elementlar, melodika, nutq tempi, nutq balandligi, pauza, tembr, urg'u, konstitutiv, distinktiv, delimitativ, rekognitiv, ekspirator urg'u, kvantitativ urg'u, muzikal urg'u, dinamik urg'u, sifat, kuch, miqdor, ajratuvchi urg'u, pauza, supersegment birlik, akustik sath, organizatsiya, fonatsiya, tembr, temp, intensivlik.*

<sup>1</sup> Ахмедов А. Ўзбек тилида гапнинг коммуникатив турлари. –Тошкент: Фан, 1979. 32-бет.

<sup>2</sup> Жинкин Н.И. Взаимоотношение компонентов интонации в речи и в музыке. – Сб. Проблемы структурной лингвистики. – М.: Наука, 1984. –с. 137-148.

## FONETIK O'ZGARISHLAR

Reja:

1. So'z va morfemalar ichida fonemalarning sintagmatik munosabati.
2. Unlilar reduksiyas
3. O'zbek tilida assimilyativ o'zgarishlar;
4. Metateza.
5. Fonetik moslashtirish.
6. Eliziya, sinerezis va aferezis.
7. Asimiliyatsiya va dissimilyatsiya.
8. Fuziya.
9. Akkomodatsiya va apokopa.

Fonema so'z va morfemalar ichida yashaydi. Demak, fonemalar so'z va morfemalarning ichida diskret element sifatida o'zaro sintagmatik munosabatda bo'ladi. Har bir tilda so'z va morfemalarning ma'lum fonetik struktura tiplari mavjud. Ammo bu masala shu vaqtga qadar tilshunoslikda yetarli o'rganilmadi. Shu bilan birga, ma'lum so'z bir necha morfemalardan tashkil topishi va ma'lum morfema turli morfemik qurshovda turlicha allomorflar sifatida yuzaga chiqishi mumkin. Masalan, *qizil+ar-qizar (il-Sh)*, *sarig'+ay-sarg'ay (i- Sh)*, *bilak+i-bilagi (k-g)* kabi so'zlarda *qizil-qiz*, *sarig'-sarg'*, *bilak-bilag* morflari bir morfemaning ma'lum pozitsiyaga xoslangan turli variantlaridir. Bu o'rinda fonema almashinuvlari hech qanday fonologik funktsiya bajarmaydi.

Tovush almashinuvi uzoq vaqtlardan buyon lingvistlar tomonidan o'rganilib kelinadi. Qiyosiy tilshunoslik o'zining dastlabki taraqqiyot bosqichidayoq tovush almashinuviga katta e'tibor berdi. Ayniqsa, german tillari tadqiqotchilari bu masalani alohida o'rganadilar, chunki tovush almashinuvi german tillari morfologiyasida asosiy o'rin egallaydi.

Yaqin yillargacha hind-evropa tillarida unlilar almashinuvi (ablaut) fonetik hodisa hisoblanib kelindi. Bunday qarash, ayniqsa, yosh grammatikachilar maktabiga xosdir. Ablautga fonetik hodisa sifatida qarash hozir ham ayrim tilshunolar asarlarida ucrab turadi.

Tilshunoslik tarixida tovush almashinuvi nazariyasining ishlanishida I.A.Boduen de Kurtene va N.V.Krushevskiyalar alohida o'rin egallaydi. Ular tilshunoslik tarixida birinchi bo'lib tovush o'zgarishlari va almashinuvlarini bir-biridan farqlab o'rganadilar. I.A.Boduen de Kurtene tildagi barcha tovush almashinuvlarini ikki kategoriyaga bo'ladi:

- 1) kombinator xoslangan alternatsiyalar;
- 2) traditsiyaga asoslangan alternatsiyalar.

U birinchi tipdagi alternatsiyalarni fonetikaga, ikkinchi tipdagilarni esa morfologiyaga kiritish lozimligini tavsiya qiladi.

Tovush o'zgarishlarini, avvalo, unlilar o'zgarishi va undoshlar o'zgarishiga ajratish maqsadga muvofiqdir. Unlilar o'zgarishiga unlilar reduksiyasi, unlilarning cho'zilishi, unlilar labializatsiyasi, unlilar delabializatsiyasi singari hodisalar mansubdir.

## **I Unlilar o'zgarishi**

### **Unlilar reduksiyasi**

Bir bo'g'inli leksemalarda hamda ikki bo'g'inli leksemalarning birinchi bo'g'inidagi sonor undoshlar oldida kelgan tor unli sonor undosh ta'sirida reduksiyaga uchraydi. Masalan, *b(i)lan, b(i)roq, s(i)ra, b(i)r* kabi.

Buning sababi shundaki, sonorlar ham, unlilar ham akustik belgisiga ko'ra umumiylikni tashkil etadi. Har ikkisi ham ovozdan iborat. Shuning uchun unlidagi ovoz undoshdagi ovoz hisobiga qisqarishi mumkin. Shu bilan birga unli ham, sonor ham funksional umumiylikka – bo'g'in hosil qilish funksiyasiga ega. Bulardan turkiy tillar uchun asosan unlilar bo'g'in hosil qiluvchilar sanalsa, roman-german tillarida esa sonorlar ham bo'g'in hosil qiladi. Bunga sabab sonorlarning akustik xossalaridir.

Ikki bo'g'inli leksemalarning birinchi ochiq bo'g'inidagi tor unli sirg'aluvchi undoshlar oldida reduksiyaga uchraydi. Natijada bu leksemaning majburiy varianti maydonga keladi. Masalan, *k(i)shi, p(i)shiq, q(i)zil*.

Bir va ikki bo'g'inli leksemalarning birinchi bo'g'inidagi sonor undoshlardan oldin kelgan tor unlilarning reduksiyaga uchrashi shu leksemalarning uslubiy variantlarining tug'ilishiga, ya'ni og'zaki so'zlashuv uslubiga xos variant bilan badiiy-publitsistik (radio, televidenie, sahna tili) uslubga xos variantning farqlanishiga olib keladi.

Uch bo'g'inli so'z shakllarining leksik morfema qismidagi ikkinchi bo'g'inda joylashgan tor unli reduksiyaga uchraydi. Natijada shu leksik morfemalarning majburiy varianti maydonga keladi. Majburiy variant deyilishining sababi shundaki, shu qurshovda bundan boshqa variantning kelishi mumkin emas. Masalan, *o'g'ilim-o'g'lim*.

Mazkur leksik morfemaning morfemik qurshovi o'zgarishi bilan boshqa variantiga almashinadi. Masalan, *o'g'ilga*.

Shunday qilib, morfemik qurshov majburiy variantlarning kombinator turining hosil bo'lishiga zamin yaratadi.

Polisillabik so'zlarda ikkinchi bo'g'indagi tor unlining reduksiyalanishi leksik urg'u bilan uzviy aloqador. Chunki so'z bo'g'inlarining ko'payishi bilan so'zning urg'usi oxirgi bo'g'inga qarab ko'chib boradi. Shu bilan birgalikda birinchi bo'g'in fonetik tuzilishining buzilib ketmasligiga intilish tendensiyasi tufayli, turkiy tillarda polisillabik so'zlarning birinchi bo'g'inida ham ikkinchi darajali urg'u mavjud bo'ladi.<sup>1</sup> Ko'rinadiki, polisillabik so'zlarning ikkinchi bo'g'ini ikki urg'uli bo'g'in o'rtasida qoladi. Bu esa ikkinchi bo'g'indagi tor unlining kuchsizlanishiga olib keladi.

## **II Undoshlarning o'zgarishi**

### **O'zbek tilida assimilyativ o'zgarishlar**

#### **Yodda tuting!**

Assimilyatsiya turkiy tillarda, xususan, o'zbek tilida keng tarqalgan hodisa bo'lib, nutqning moddiy zanjirida, ya'ni tovushlar ketma-ketligida ma'lum bir

<sup>1</sup> Ғуломов А. Ўзбек тилида ургу. -Тошкент, 1947.

belgiga ko'ra ikkita noo'xshash undoshning so'zlovchining talaffuz qulayligiga intilishi tufayli o'xshash undoshga aylantirilishidir. Ko'rinadiki, muayyan leksema tarkibida ma'lum belgi asosida zidlanuvchi ikki undosh talaffuz noqulayligini bartaraf qilish harakati tufayli zidlanish belgisini yo'qotadi, bir xil undoshlarga aylanadi. Natijada leksemaning og'zaki so'zlashuv varianti – uslubiy varianti maydonga keladi. Masalan, *tarnov- tannov, shirmoy non- shirmonnon, badtar-battar* kabi.

### Metateza

Metateza har qanday tilning ham diaxron, ham sinxron holati uchun mansubdir. Bunday holatdan o'zbek tili ham mustasno emas.

O'zbek tilida metateza shu tilning ikki davr oraliqidagi leksema nomemasining o'zgaruviga olib kelishi mumkin. Masalan, *o'granmoq- o'rganmoq, yog'mir-yomg'ir*. Shu bilan birgalikda, metatezaga uchramagan variant ham hozirgi kunda ayrim o'zbek dialektlarida saqlanayotgan bo'lishi mumkin. Bu esa tarixiy va dialektal variantlarning farqlanishiga olib keladi.

Tarixiy variant tarixiy mavzuga bafishlangan badiiy asarlar tilida uchraydi. Bu esa uning uslubiy variantga aylanishiga yo'l ochadi.

Shu bilan birgalikda, o'zbek tilining hozirgi holatida qo'llaniluvchi metateza yordamida hosil bo'lgan leksema nomemasining variantlari mavjud. Masalan, *daryo-dayra, faryod-payrad, tuproq- turpoq, to'g'ramoq-to'rg'amoq, kirpik-kiprik* va boshq.

Bularning barchasi leksema nomemasining ma'lum uslubga xoslangan variantlaridir. Birinchisi kitobiy uslubga, ikkinchisi esa og'zaki so'zlashuv uslubiga mansubdir. Shu bilan birgalikda ayrimlari fakultativ variantlarni ham hosil qiladi. Masalan, *qo'shni-qo'nshi, qamramoq-qarmamoq*.

Metateza har qanday tilning ham diaxron, ham sinxron holati uchun mansubdir. Bunday holatdan o'zbek tili ham mustasno emas.

O'zbek tilida metateza shu tilning ikki davr oralig'idagi leksema nomemasining o'zgaruviga olib kelishi mumkin. Masalan, *o'granmoq- o'rganmoq, yog'mir-yomg'ir*. Shu bilan birgalikda, metatezaga uchramagan variant ham hozirgi kunda ayrim o'zbek dialektlarida saqlanayotgan bo'lishi mumkin. Bu esa tarixiy va dialektal variantlarning farqlanishiga olib keladi.

Tarixiy variant tarixiy mavzuga bag'ishlangan badiiy asarlar tilida uchraydi. Bu esa uning uslubiy variantga aylanishiga yo'l ochadi.

### Fonetik moslashtirish

Turkiy leksemalar nomemalari o'ziga xos fonetik arxitektonikaga ega. Leksema nomemalarida bir bo'g'inda ikki va undan ortiq undoshlar kela olmaydi. Bundan faqat bir bo'g'inli leksema nomemalarining oxirida lt (*yilt-yilt, qult- qult, milt-milt*), st (*ost-ust*), rt (*ort, turt, to'rt*) undoshlarining qator kelishi mustasno.

Leksema nomemasining boshida va oxirida kelgan ikki va undan ortiq undoshlar ishtirok etgan so'zlarning ko'pi olinmalardir. Shuning uchun bunday olinma so'zlarning fonetik tuzilishi og'zaki nutqda turkiy so'zlar fonetik tuzilishiga moslashtirish, shu yo'l bilan talaffuz qulayligiga intilish harakati mavjud bo'ladi.

Bunday harakat tufayli olinma leksemalar nomemalarining ogʻzaki soʻzlashuv variantlari paydo boʻladi. Ular quyidagilardan iborat:

I.Rus tili va bu til orqali boshqa ovrupa tillaridan oʻtgan leksema nomemalarining boshida bir boʻgʻin tarkibida kelgan ikki va undan ortiq undoshlarni talaffuz qilish qiyin boʻlganligi tufayli, ogʻzaki nutqda talaffuz qulayligini taʼminlash uchun bu leksemalarning nomemalari fonetik tuzilishi turkiy leksemalar nomemalarining fonetik arxitektonikasiga moslashtiriladi. Natijada bu leksemalarning ogʻzaki soʻzlashuv nutqiga xos uslubiy varianti vujudga keladi.

Leksema nomemasi boshida bir boʻgʻinda kelgan ikki undosh quyidagi yoʻl bilan ikki boʻgʻinga boʻlinadi va bir boʻgʻindagi qator undoshlarni ikki boʻgʻin tarkibiga oʻtkazish yoʻli bilan turkiy tillar leksemalari nomemalarining fonetik arxitektonikasiga moslashtiriladi.

1.SSV, CCVC, CCVCC tipidagi fonetik tuzilishga ega boʻlgan leksema nomemalari VC-CV, VC-VC, VC-CVCC tipidagi fonetik tuzilishdagi leksema nomemasiga aylantiriladi. Masalan, *sta-kan* – *is-ta-kan*, *stol* – *us-tol*, *stul* – *us-tul* kabi.

2.CCV, CCVC, CCVCC tipidagi fonetik tuzilishga ega boʻlgan birinchi boʻgʻin nomemalari CV-CV, CV-CVC, CV-CVCC tipidagi fonetik tuzilishga ega boʻlgan birinchi boʻgʻin nomemasiga aylantiriladi. Masalan, *traktor* – *ta-rax-t(r)*, *trolleybus* – *ta-ra-la-bus* kabi.

II.1.Rus tili va bu til orqali oʻtgan leksema nomemalarining oxirida bir boʻgʻinda kelgan ikki va undan ortiq undoshlar leksema nomemasining oxiridagi qator undoshlardan soʻng bir unli orttirish yoʻli bilan bir boʻgʻindagi qator undoshlar boshqa-boshqa boʻgʻinlarga boʻlib yuboriladi. Masalan, *bank*, *tank* leksemalari *banka*, *tanka* variantlariga ega boʻladi. Natijada bir leksemaning ikki varianti yuzaga keladi.

2.Fors-tojik hamda rus tili orqali oʻtgan bir qator olinmalarning oxirgi boʻgʻinida ikki va undan ortiq undoshlar qator kelishlari mumkin. Lekin bir boʻgʻinda kelgan bu undoshlar ogʻzaki nutqda turkiy tillarning fonetik qonuniyatlariga moslashtiriladi va bir undosh tushirib qoldiriladi. Masalan, *goʻsht-goʻsh*, *gʻisht-gʻish*, *barg-bak*, *vaqt-vaq* va boshq.

3.Turkiy tillar leksemalarining nomemasi fonetik tuzilishining yana bir xususiyati shundaki, bir joyda ikki unli qator kela olmaydi.<sup>1</sup> Shu bois, oʻz leksemasiga doir leksemalar nomemalaridagi qator unlidan birini, shuningdek, oʻzlashgan leksikaga oid leksemalar nomemalaridagi qator unlilardan birini ogʻzaki nutqda tushirib qoldirish, yaʼni qator kelgan unlini bir unliga aylantirish yoʻli bilan yoki qator kelgan ikki unli oʻrtasiga y, v, h undoshlaridan birini orttirish yoʻli bilan turkiy leksemalar nomemalarining fonetik arxitektonikasiga moslashtirishga harakat qilinadi. Natijada bir leksemaning bir necha uslubiy variantlari – yozma va ogʻzaki soʻzlashuv uslubiga xos variantlari vujudga keladi.

Soʻz boshida tovushlar mosligi natijasida leksema variantlarining ortishi muammosi dastlab Mahmud Qoshgʻariy tomonidan bayon qilingan edi. Xususan, u qipchoq, oʻgʻuz tillarini hoqonicha turkcha tilga qiyoslar ekan, hoqonicha turkcha

<sup>1</sup>Котвич В.А. Исследования по алтайским языкам. -М.,1962. -С.83.

leksemalar boshidagi [y] undoshi qipchoq tillarida doimo [j] ga, o'g'uz tillarida esa nolga aylanishini bayon qiladi. Masalan, turkcha *jinji*, qipchoqcha *jinji*, o'g'uzcha *inji*.<sup>1</sup>

Turkiy tillar o'rtasidagi ana shu fonetik moslik bugungi o'zbek tilining shevalarida ham o'z ifodasini topadi. Natijada bir leksemaning majburiy va fakultativ variantlari vujudga keladi. Masalan, *jilon-yilon-ilon*; *juzum-yuzum-uzum*; *yirik-irik*; *jur-yur*; *yog'och-og'och* va boshq.

N.S.Trubetskoyning ta'biri bilan aytganda, bir fonetik qurshovda biri o'rnida ikkinchisi qo'llanib, ma'no farqlamasa, bunday fonetik birliklar bir fonemaning turli variantlari sanaladi.<sup>2</sup>

**(Yod oling).** **Eliziya** qator kelgan har xil turdagi ikki unlidan birining tushib qolishi hodisasidir. **Sinerezis** hodisasida qator kelgan unlilar o'zaro birikib, bir unliga aylansa, eliziya hodisalarida bu unlilardan biri tushib qoladi<sup>2</sup>. Ana shu xususiyatlari bilan bu hodisalar bir-biridan farq qiladi.

Birnnchi so'z oxiridagi unlining ikkinchi so'z boshidagi unli bilan to'qnashishi natijasida tushib qolishi hodisasi **eliziya** hisoblanadi.; Masalan, *borolmoq*<*bora olmoq*, *yozolmoq*<*yoza olmoq*, *echkemar* *echki emar*, *bekoyim*<*beka oyim*, *oltariq*<*oltiariq*, *oltoziq*<*olti oziq*, «to'qqiz yoshli ot», *yettozik*<*yetts oziq*, «o'n yoshli ot», mang'it shevasida *yashulli*<*yoshiulli* «yoshi katta», *xo'jeli*<*xo'jaeli* va b.

Leksema nomemalari tarkibida qator kelib qolgan ikki unlining talaffuz noqulayligini bartaraf qilishga moyillik tufayli sodir bo'ladigan fonetik hodisalardan yana biri **aferezis** hisoblanadi.

(Yodda tuting)**Aferezis** ham xuddi eliziya kabi ikkita qator unlidan birining reduksiylanishidir. Bir yerda keluvchi ikkita har xil unlidan birinchisining reduksiylanib, o'z artikulyatsiyasini yo'qotishi eliziya bo'lsa, xuddi shunday sharoitda ikkinchi unlining reduksiylanishi aferezis sanaladi. Masalan, *narsa*<*na ersa*, *nechun*<*ne uchun* va b.

Quyida qator kelgan ikki unlili leksema nomemalarining paydo bo'lish sabablari hamda paydo bo'lgan fonetik noqulaylikni bartaraf etish tendensiyasi tufayli uslubiy variantlarning ko'payishi haqida to'xtalib o'tamiz.

1. Leksema nomemalarida qator kelgan ikki unlining bir unliga aylanish yo'llaridan biri **sinerezis** hodisasidir.<sup>3</sup>

(Yodda tuting) **Sinerezis qator kelgan ikki unlining bir unliga aylanish hodisasidir.** Sinerezis qator kelgan ikki unlining bir unliga aylanish hodisasidir.

Sinerezis o'zbek tilida bir leksema nomemasi tarkibida hamda ikki leksema nomemalari oralig'ida ro'y berishi mumkin. Ikki leksema nomemalari oralig'ida sinerezis hodisasining ro'y berishi leksema nomemalarining soddalashishiga – bir leksema nomemasiga aylanishiga olib keladi. Natijada bir leksemaning bir necha uslubiy variantlari – yozma va og'zaki so'zlashuv uslubiga xos variantlari vujudga keladi.

<sup>1</sup> Махмуд Қошғарий. Девону луғотит турк. I том

<sup>2</sup> Трубецкой Н.С. Основы фонологии.

<sup>3</sup> Нурмонов А. Синерезис.// Ўзбек тили ва адабиёти. -№2, 1973.

Bir leksema nomemasida qator unli ikki holatda uchrashi mumkin: 1) o‘z leksikaga doir leksemalarda intervokal undoshning tushib qolishi natijasida; 2) olinma leksemalar nomemalari tarkibida.

Bir leksema nomemasida intervokal undoshning tushib qolishi natijasida hosil bo‘lgan ikki unli o‘zaro birikib, bir cho‘ziq unliga aylanadi. Natijada ikkilamchi cho‘ziq unlilar hosil bo‘ladi.

Intervokal undoshlarning tushib qolishiga ob‘ektiv sabab mavjud. Chunki undoshlar uchun intervokal holat kuchsiz pozitsiya sanaladi. Alohida pozitsion xususiyatga ega bo‘lgan bu holatda hatto portlovchi jarangsiz undoshlar ham kuchsizlanishi va tushib qolishi mumkin.<sup>1</sup> Buning sababi shundaki, unlilar artikulyatsion jihatdan “og‘iz ochuvchilar” sanaladi. Shunday ekan, ikkita og‘iz ochuvchilar oralig‘ida kelgan har qanday undosh birinchi “ochiqlik” bilan ikkinchi “ochiqlik” orasida qoladi va natijada undoshning “og‘iz yopuvchilik” artikulyatsion belgisi kuchsizlanadi. Ya’ni bunday pozitsiyada joylashgan undosh o‘zining to‘liq artikulyatsiyasiga ega bo‘lmaydi. Bunday holatdagi undoshlarni talaffuz qilish uchun nutq a‘zolari bir-biri bilan to‘la yaqinlashmay turib, navbatdagi unlini talaffuz qilishga tayyorlanadi. Oldidagi unli rekursiyasi va undan keyin kelgan unli ekskursiyasi bir-biriga taxlanib ketadi.<sup>2</sup>

Intervokal undoshlar artikulyatsiyasida hosil bo‘lgan nutq a‘zolari o‘rtasidagi bu oraliqning ba’zan kengayib ketishida undosh tamoman o‘z artikulyatsiyasini yo‘qotishi va ikki tomondagi unlilarning o‘zaro qo‘shilib ketishi mumkin.<sup>3</sup>

Hozirgi o‘zbek tilining og‘zaki so‘zlashuv uslubida va bir qator o‘zbek shevalarida portlovchi undoshlarning intervokal holatda kuchsizlashib, sirg‘aluvchi undoshlarga aylanishi, sirg‘aluvchi undoshlarning esa reduksiyalashib, unlilarning paydo bo‘lishi kuzatiladi. Bu ikkilamchi cho‘ziq unlilar ko‘pgina shevalarda oddiy cho‘ziqlikdagi unliga aylanadi. Masalan, bu yoqqa> buoqqa>ba:qa> baqa; shu yoqqa> shu oqqa> sha:qa>shaqqa.<sup>4</sup>

Intervokal holatda ko‘pincha y, v, h, g‘ undoshlari tushib qoladi va buning natijasida hosil bo‘lgan ikki unli sinerezis hodisasini hosil qiladi.

[y] undoshi o‘pkadan chiqayotgan havo oqimining kuchiga ko‘ra<sup>5</sup> va akustik belgisiga ko‘ra unli bilan umumiylik belgisiga ega. Shuning uchun bu undosh intervokal holatda to‘siqlik belgisini yo‘qotishi va vokalizatsiyalashishi mumkin.

Hozirgi o‘zbek shevalarida intervokal [y] ko‘proq birinchi bo‘g‘in bilan ikkinchi bo‘g‘in oralig‘ida va qisman keyingi bo‘g‘inlar oralig‘ida o‘z artikulyatsion belgisini yo‘qotib, vokalizatsiyaga uchraydi. Bunday xususiyat hozirgi barcha turkiy tillarga xos bo‘lib, ularning hammasi uchun mushtarak sanaluvchi qadimgi turkiy tilda ham va o‘zbek tilining ilk shakllanish davrida ham uchraydi. Masalan, qadimgi turk tilida tn> tyn tuyun> tugun (DTS, 561-bet); kk> kyk (DTS.307-bet); eski o‘zbek

<sup>1</sup> Ряснен М. Материалы по исторической фонетике тюркских языков. -М.,1955. -С.98; Щербак А.М. Сравнительная фонетика тюркских языков. -М.,1970. -С.101.

<sup>2</sup> Акбаев Ш.Х. Фонетика диалектов карачаево-балкарского языка. -Черкеск.,1963. -С.79.

<sup>3</sup> Нурмонов А. Ўзбек тилининг фонетик ўзгаришларида экономия принциплари. Филол.фан.ном....дисс. -Тошкент,1973. – Б.62.

<sup>4</sup> Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва халқ шевалари. -Тошкент, 1962. –Б.128.

<sup>5</sup> Барашков П.П. Звуковой состав якутского языка. -Якутск, 1953. -С.25.

tilida kz> kyz> kigiz<sup>1</sup>; bz> byz> bigiz (Navoiy “ML”) hozirgi xakas tilida kiis> kiyis “kiygiz” (xak.-rus.sl. s.74) va boshq.

Leksema nomemalari tarkibida intervokal [gʻ] undoshi ham oʻzining artikulyatsion belgisini yoʻqotishi, unlilar bilan farqlanish belgisi neytralizatsiyaga uchrashi mumkin. Chunki jarangli sirgʻaluvchi bu undosh akustik belgisiga koʻra oʻzining korrelyati boʻlgan [x] undoshiga nisbatan unliga kuchsiz zidlanadi. Buning sababi shundaki, [gʻ] undoshi akustik belgisiga koʻra unli bilan jarangsiz undosh oraligʻida turadi: [unli]- [gʻ]- [x]. Shunday ekan, ikki unli oʻrtasida qolgan [gʻ] undoshining vokalizatsiyalashishi uchun qulay imkoniyat yaratiladi. Masalan, oʻzbek tilining qipchoq shevalarida: ul > uul > ugʻul > oʻgʻil; to:> togʻa;

To:ra > togʻora.<sup>2</sup>

Leksema nomemasi tarkibidagi intervokal holatda vokalizatsiyalashuvchi undoshlardan yana biri [v] undoshidir.

Bilabiallik, sirgʻaluvchilik, jaranglilik belgilariga ega boʻlgan bu undosh ikki lablashgan unlilar oʻrtasida kelib, bir qator oʻzbek shevalarida vokalizatsiyaga uchraydi. Masalan, qorabuloq shevasida to:p > tovup > tabib; qa:p > qovup > qopib; so:q > sovuq; janubiy xorazm, oʻgʻiz va qipchoq shevalarida qu:n > quvun > qovun; su:q > suvuq > sovuq; qu:q > quvuq > qovuq<sup>3</sup> va boshq.

### Dissimilyatsiya. (Eslab qoling).

Leksema nomemasi tarkibidagi maʼlum belgisiga koʻra ikki oʻxshash undosh tovushning soʻzlovchining talaffuz qulayligiga intilish harakati tufayli oʻxshash belgilarning yoʻqotilishi dissimilyatsiya hodisasini keltirib chiqaradi. Bunday hodisaning roʻy berishi esa leksema nomemasining ogʻzaki soʻzlashuvga xos variantining hosil boʻlishiga olib keladi. Masalan, **biror** leksemasi tarkibidagi ikkita r undoshi titroqlik umumiy belgisiga ega boʻlganligi tufayli, ikkinchi undosh burun tovushga almashinadi. Natijada bir leksemaning **biror** va **biron** variantlari paydo boʻladi. Shuningdek, **moʻmay** leksemasidagi ikki bir xil undoshning birinchisi lab undoshlik belgisini yoʻqotib, til oldi undoshiga aylanib, talaffuz qulayligini hosil qiladi. Buning natijasida bir leksemaning **moʻmay** va **noʻmay** variantlari vujudga keladi.

Dissimilyatsiyaga uchrashi uchun ikkita bir xil undoshning boʻlishi shart emas. Maʼlum bir belgisi bilan oʻxshash boʻlgan ikki undosh ham dissimilyatsiyaga ehtiyoj sezishi mumkin. Masalan, **mabodo** leksemasidagi **m** va **b** undoshlari labiallik belgisiga koʻra oʻxshash boʻlganligidan, nutqiy jarayonda talaffuz qulayligini taʼminlash maqsadida birinchi undosh til oldi sonor undoshga almashtiriladi.

Leksema nomemasi tarkibidagi maʼlum belgisiga koʻra ikki oʻxshash undosh tovushning soʻzlovchining talaffuz qulayligiga intilish harakati tufayli oʻxshash belgilarning yoʻqotilishi dissimilyatsiya hodisasini keltirib chiqaradi. Bunday hodisaning roʻy berishi esa leksema nomemasining ogʻzaki soʻzlashuvga xos variantining hosil boʻlishiga olib keladi. Masalan, **biror** leksemasi tarkibidagi ikkita r

<sup>1</sup> Фазилов Э. Староузбекский язык. I. -С.601.

<sup>2</sup> Джумаев Б. Шахрисабский говор узбекского языка. -С.57.

<sup>3</sup>Бабаиязов Х.Б. Фонетико-морфологические особенности кипчакских говоров южного хорезма. Автореф.дисс...канд.филол.наук. Ташкент,1966. -С.16

undoshi titroqlik umumiy belgisiga ega bo'lganligi tufayli, ikkinchi undosh burun tovushga almashinadi. Natijada bir leksemaning **biror** va **biron** variantlari paydo bo'ladi. Dissimilyatsiyaga uchrashi uchun ikkita bir xil undoshning bo'lishi shart emas. Ma'lum bir belgisi bilan o'xshash bo'lgan ikki undosh ham dissimilyatsiyaga ehtiyoj sezishi mumkin. Masalan, **mabodo** leksemasidagi **m** va **b** undoshlari labiallik belgisiga ko'ra o'xshash bo'lganligidan, nutqiy jarayonda talaffuz qulayligini ta'minlash maqsadida birinchi undosh til oldi sonor undoshga almashtiriladi.

### Fuziya

Turkiy tillarning aglyutinativ tabiati barchaga ma'lum. Aglyutinatsiyaning fuziyadan muhim farqlovchi belgilari sifatida har bir grammatik ma'noning alohida-alohida shakllar yordamida ifodalanishi, grammatik ma'noni ifodalovchi grammatik shakllarning ko'payishi bilan so'zning chapdan o'ngga qarab cho'zilib borishi, leksik va grammatik morfemalarning bir-biriga qo'shilish chokining ajralib turishi, shuningdek, grammatik shakllarning qo'shilishi o'zak morfemaning fonetik tuzilishini o'zgartirmasligi kabi belgilar ta'kidlanadi.

Oxirgi belgi turkiy tillarning analitik qo'shilishidan tashqari, so'z morfem tuzilishining singarmonistik xususiyati bilan ham uzviy bog'liqdir. Chunki grammatik shakllarning kombinator variantlari o'zak morfemaning fonetik tarkibi bilan mos holda ro'yobga chiqadi. Boshqacha aytganda, leksik morfemaning o'ng tomonidagi grammatik morfemalar so'z shaklining chap chegarasini egallagan va o'zak morfema deb yuritiluvchi leksik morfemaning fonetik tuzilishiga moslashadi.

Ba'zi hollarda turkiy tillarga xos bo'lgan bu umumiy tamoyildan chetlanish holatlari, fuziya elementlari ko'zga tashlanadi.<sup>1</sup> Xususan, leksik morfemaga grammatik morfemalar qo'shilganda, o'zak (leksik) morfemaning fonetik tarkibida o'zgarish ro'y beradi. Masalan, *ong* –*angla*, *qashi-qashla*, *singil-singli*, *qizil-qizar* kabi. Natijada bir invariant leksik morfemaning bevosita nutqiy jarayonda *ong-ang*, *qashi-qash*, *singil-singl*, *qizil-qiz* kabi bir necha kombinator variantlar orqali namoyon bo'lishiga olib keladi.

Tildagi har qanday o'zgarish biron bir sabablarsiz ro'y bermaydi. Demak, ko'p morfemali so'z shakllarining o'zak morfema tarkibidagi fonetik o'zgarishning ro'y berishi ham muayyan sabablar asosida vujudga keladi.

Ular, bizning nazarimizda, quyidagilardan iborat:

1. Turkiy tillar uchun xarakterli bo'lgan singarmonizm qonuniyati yo'nalishiga tamomila zid bo'lgan yo'nalishning mavjudligi. Turkiy tillar uchun ko'pchilik tomonidan "temir qonun" sanalgan singarmonizm qonuniyatiga ko'ra, affikslarning fonetik tuzilishi o'zak morfemaning fonetik tuzilishiga moslashadi. Xususan, o'zak morfemaning fonetik tarkibi orqa qator tovushlaridan iborat bo'lsa, unga affikslarning ham unga mos variantlari qo'shiladi, yoki, aksincha, old qator tovushlardan iborat bo'lsa, unga affikslarning ham old qator varianti qo'shiladi. Bu palatal garmoniya hisoblanadi.

<sup>1</sup> Кононов А.Н. О фузии в тюркских языках. / Структура и история тюркских языков. -М.:Наука, 1971. -С. 158

Agar labial garmoniya saqlangan turkiy tillarni ham e'tiborga oladigan bo'lsak, har bir affiksning bir necha palatal va labial variantlari orqali namoyon bo'lishi ma'lum bo'ladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, turkiy tillarda ba'zan ana shu umumiy qonuniyatga zid keladigan holatlar uchraydi. Ya'ni affikslarning o'zak fonetik strukturasiga moslashishi emas, balki o'zakning affiks fonetik strukturasiga ta'sirida o'zgarishi ko'zga tashlanadi. Buning natijasida o'zak morfemaning kombinator variantlari maydonga keladi. Masalan, *aytib yubor* – *aytvor- etvor* (Toshkent shev.), *acha* – *echisi* (Namangan shev.), *bola* – *belesi* (Nam.shev.).

Bunday hodisa singarmonizmga teskari yo'nalishda bo'lgan umlaut hodisasini o'zida aks ettirgan Namangan shevasida ko'proq uchraydi.

2. Polisillabik so'zlarda ma'noga ta'sir etmagan holda so'zning shakliy tomonini tejashga intilish tendensiyasi natijasida bo'g'in qisqartirish hodisasi ro'y beradi. Bu hodisa ko'p bo'g'inli so'zlarning asosan tor unliga ega bo'lgan ikkinchi bo'g'iniga tegishlidir. Masalan, o'g'il+im – o'g'lim, singil+im – singlim, qizil + ar – qizar kabi. Natijada bir invariantning *o'g'il-o'g'l*, *singil-singl*, *qizil-qiz* singari variantlari maydonga keladi. Bu o'rinda qizil va qiz boshqa-boshqa invariantlarning variantlaridek tuyulsa ham, lekin bir morfemik qurshovda o'zaro qo'shimcha distributsiya munosabatidadir. Shuning uchun ular bir invariantning variantlari hisoblanadi.

Ba'zan ko'p bo'g'inli so'zlarning birinchi bo'g'inining ham qisqarishi hollari uchraydi. Lekin bu qisqarish morfemaning faqat shakliga daxldor bo'lib, shu morfemaning shakliy variantlarini vujudga keltiradi. Masalan, *olib bor* – *obbor* – *obor* (And.shev.), *olib ber* – *obber* – *ober* (Toshk.shev.), *olib kel* – *opkel* – *obke* (Toshk.,And.shev.).

Turkiy tillarda uchraydigan o'zak morfemadagi bunday o'zgarish ko'pchilik turkologlarning diqqatini tortgan. Xususan, turkman tilidagi xuddi shunday (**akel** so'zidagi **olib** morfemasining o shakliga, shu ul so'zidagi shu morfemasining sh ga aylanishi) holatni P. Azimov va Potseluevskiylar o'zak morfemaning prefikslashishi deb hisoblaydilar.<sup>1</sup> Natijada ol va o morfemalarini bir invariantning turli variantlari emas, balki birinchisini **olmoq** fe'lining varianti, ikkinchisini esa leksik ma'nodan mahrum bo'lgan yordamchi morfema prefiksining varianti deb izohlaydilar.

Bu hodisa haqida fikr yuritgan A.G'ulomov o'zak morfemadagi yuqorida ko'rsatilgan fonetik qisqaruv natijasida ro'y bergan shakliy o'zgarishlarni bir mohiyatning, ya'ni bir o'zak morfemaning turli shakliy variantlari sifatida izohlaydi. Bunga asos qilib, qisqarmagan variant bilan qisqa variant o'rtasidagi mazmuniy umumiylik belgisi olinadi.<sup>2</sup> Shuning o'ziyoq A.G'ulomovning variant va invariant munosabatini naqadar teran anglaganidan dalolat beradi.

3. O'zak morfemani moddiylashtiruvchi tovushlar qanday tartibda joylashishi bilan ham ahamiyatlidir. Bir xil tovushlarning turlicha joylashuvidan turli lisoniy birliklar vujudga keladi. Masalan, q, i, sh tovushlarining turlicha joylashuvidan **qish**, **shiq**, **ishq** singari birliklar vujudga keladi. Demak, bu lisoniy birliklarni

<sup>1</sup>Потцелуевский А.П. Происхождение личных и указательных местоимений. -Ашхабад,1947; Азимов П. Префиксация в туркменском языке. -Ашхабад,1947.

<sup>2</sup>Фуломов А., Тихонов А.Н., Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг морфем луғати. -Тошкент, Ўқитувчи, 1977.

moddiylashtirishda ishtirok etgan tovushlar bir xil, lekin ularning joylashish tartibi har xil. Tovushlarning ana shunday turlicha joylashish belgisi yuqoridagi lisoniy birliklar o'rtasidagi farqlovchi belgi vazifasini bajaradi.

Ayrim hollarda lisoniy birliklarning moddiy tomonini shakllantirgan shunday tovushlar tartibi muayyan sabablarga ko'ra almashinishi, lekin bu almashinish ma'noga ta'sir etmasligi mumkin. Demak, bunday vaqtda tovushlar tartibi lisoniy birlikning farqlovchi belgisizlik vazifasini yo'qotadi. Natijada bir lisoniy birlikning turli variantlari vujudga keladi. Masalan, *to'g'ra-to'rg'a, kiprik-kirpik, sirpanchiq-sipranchiq* kabi.

Ayrim hollarda o'zak morfemaning ikki xil shakliy variantiga affiks morfemaning ikki xil shakliy varianti qo'shilishidan bir so'zning ikki shakliy varianti vujudga keladi. Masalan, *yig'i* va *sig'i* morfemalarining birinchisiga otdan *fe'l* yasovchi morfemaning *-la* varianti, ikkinchisiga esa *-ta* varianti qo'shiladi. Natijada bir mohiyatning ikki shakliy varianti vujudga keladi: *yig'la-siqta*. Keyinchalik bu variantlar ma'no darajalanishi farqlovchi belgisi asosida bir umumiy arxisema asosida birlashuvchi ikkita leksema bo'lib ajralib chiqqan.

Xuddi shuningdek, sur allomorfiga *-ga* va *-da* (*-la* morfemasining variantlari) allomorflarining qo'shilishidan *surga* va *surda* leksema variantlari vujudga keladi va ikkinchisida rd tovushlarining o'rin almashinishidan shu leksemaning *sudra* varianti paydo bo'ladi.

4. So'z tarkibida soddalashish hodisasining ro'y berishi o'zak morfemaning variantlanishiga olib keladi. Xususan, o'zak morfemaga qo'shilgan grammatik ma'no ifodalovchi morfemalarning funksional almashinishi ham o'zak morfemaning turli shakliy variantlari vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Xususan, nisbat paradigmasiga birlashgan shakllarining biri o'rnida ikkinchisining funksional almashinuvi davrlar o'tishi bilan ular o'rtasidagi farqlovchi belgilar yo'qolishiga, zidlanuvchi a'zolarining neytrallashuviga va neytrallashgan nisbat shakllarining o'zak morfema tarkibiga singib, yaxlit bir morfemaga aylanib ketishiga olib keladi. Masalan, *uyalmoq* va *uyatmoq* leksemalarining asos qismi *uyal* va *uyat* bugungi kun nuqtai nazaridan bir leksik morfemaning ikki shakliy varianti sanaladi. Har ikki variant hozirgi o'zbek tili nuqtai nazaridan boshqa mayda qismlarga bo'linmaydi. Ya'ni **uya** va **l**, **uya** va **t** qismlariga ajralmaydi. Demak, bir o'zak morfemaning *uyal* va *uyat* variantlari soddalashish hodisasi tufayli tarixan ikki morfemadan tashkil topgan. Birinchi morfema (*uya*)ning mustaqil leksik morfema sifatida iste'moldan chiqishi affiks morfemaning leksik morfema tarkibiga singib ketishiga – soddalashuviga<sup>1</sup> zamin yaratgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, leksik morfemaga qo'shilgan affiks morfemalar tarixan ikki xil nisbat (*o'zlik* va *orttirma*) nisbat shakllari bo'lib, ular o'rtasida neytrallashuv ro'y bergan. Shuning uchun bir xil qurshovda ma'noga ta'sir etmagan holda o'zaro erkin almashinish distributsiya munosabatida bo'lgan. O'zaro erkin almashinish distributsiyasi munosabatida bo'lgan birliklar esa bir invariantning turli variantlari bo'ladi.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Ғуломов А., Тихонов А.Н., Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг морфем лугати. Тошкент: Ўқитувчи, 1977.

<sup>2</sup> Глисон Г. Введение в дескриптивную лингвистику. -М.,1959. -С.15.

Garchi hozirgi o'zbek tili nuqtai nazaridan uyal va uyat bitta morfemaning ikkita varianti sanalib, boshqa mayda ma'noli qismlarga bo'linish xususiyatini yo'qotgan bo'lsa ham, lekin bu leksik morfema variantlarining oxirgi tovushi -l va (-t) nisbat ma'nosini ham saqlab qolgan. Shuning uchun bu variantlar uyalish holatini ifodalashi bilan birgalikda sub'ektning shunday holatga tushishi ma'nosini ham ifodalaydi. Bundan ko'rinadiki, tarixan ikki morfemaning ma'nosi saqlanib qolgan holda, soddalashish faqat ularning shakliga daxldor bo'lgan.

Shunday qilib, turkiy tillarda so'z morfemik tuzilishida garchi agglyutinatsiya yetakchilik qilsa ham, ayrim hollarda fuziya holatlari ham ko'zga tashlanadi. So'zlarning o'zak morfemasida fuziyaning ro'y berishi leksik morfemaning variantlanish darajasining ko'payishiga olib keladi.

Turkiy tillarning aglyutinatativ tabiati barchaga ma'lum. Aglyutinatsiyaning fuziyadan muhim farqlovchi belgilari sifatida har bir grammatik ma'noning alohida-alohida shakllar yo'rdamida ifodalanishi, grammatik ma'noni ifodalovchi grammatik shakllarning ko'payishi bilan so'zning chapdan o'ngga qarab cho'zilib borishi, leksik va grammatik morfemalarning bir-biriga qo'shilish chokining ajralib turishi, shuningdek, grammatik shakllarning qo'shilishi o'zak morfema-ning fonetik tuzilishini o'zgartirmasligi kabi belgilar ta'kidlanadi.

Shunday qilib, turkiy tillarda so'z morfemik tuzilishida garchi agglyutinatsiya yetakchilik qilsa ham, ayrim hollarda fuziya holatlari ham ko'zga tashlanadi. So'zlarning o'zak morfemasida fuziyaning ro'y berishi leksik morfemaning variantlanish darajasining ko'payishiga olib keladi.

**Akkomodatsiya**-(muvofiqlashuv). Yonma-yon kelgan undosh va unli tovushlar artikulyasiyasining bir-biriga uyg'unlashuvi; i—u, k—g; kiyik, sigir, bugun, gul. i—u, q—k; qiyin, g'ujum, g'ijim.

**Apokopa**. So'z o'zagidagi oxirgi unli yoki undoshnig tushishi; do'st-do's, xursand-xursan kabi.

O'zbek tilidagi bu fonetik jarayonlar nutqning qulayligi hamda tejamkorligi uchun xizmat qiladi.

### Savollar

1. Fonemalarning sintakmatik munosabati haqida nimani bilasiz?
2. Tovush o'zgarishi va almashinuvini farqlab bering.
3. Unlilar reduksiyasini izohlang.
4. Singarmonizm ta'siridagi o'zgarishlar qaysilar?
5. Assimilyativ o'zgarishlarni tushuntiring.
6. Metateza qanday o'zgarish?
7. Fonetik moslashtirish haqida so'zlang.
8. Eliziya va sinerezis farqini aytib bering.
9. Aferezis va eliziya farqini izohlang.
10. Fuziya hodisasini tushuntiring.

### Tayanch termin va iboralar

*Singarmonizm, unlilar reduksiyasi, assimilyatsiya, metateza, fonetik moslashtirish, eliziya, aferezis, sinerezis, dissimilyatsiya, fuziya, akkomodatsiya, apokopa.*

## O'ZBEK TILIDA SINGARMONIZM TA'SIRIDA O'ZGARISHLAR

Reja:

1. Singarmonizm hodisasi.
2. Singarmonizmning undoshlarga ta'siri.
3. Singarmonizmning morfologiyaga ta'siri

**O'zbek tilida singarmonizm ta'siridagi o'zgarishlar. (Buni bilishingiz shart).** Tilshunoslikka oid adabiyotlarda singarmonizmni unlilarning moslashuvi, ohangdoshligi, uyg'unligi (garmoniyasi) deb ta'rif beriladi. Ammo singarmonizmning asosiy vazifasi so'zning chegarasini ko'rsatishdir. Singarmonizm hodisasi faqat turkiy tillardagina uchraydi.

Singarmonizmning ikki xil turi bor: 1) tanglay garmonisi yoki palatal garmoniya; 2) lab garmoniyasi yoki labial garmoniya.

Tanglay garmoniyasi singarmonizmning asosiy turi hisoblanadi. Palatal garmoniya so'zining asl ma'nosi til garmoniyasi demakdir. Tanglay garmoniyasida unlilar yumshoqlik yoki qattqlik, til oldilik yoki til orqalik jihatdan bir-biriga moslashadi. Singarmonizmning tanglay garmoniyasi qonuniga binoan so'zning boshida (o'zakda) til oldi unlisi kelsa, so'z o'rtasida va oxirida ham til oldi unlisi keladi. So'z boshida (o'zakda) til orqa unli kelsa, keyingi bo'g'inlarda ham til orqa unli keladi, ya'ni o'zakdagi unlilarga affiks (morfema)lardagi unlilarning moslashuvi, uyg'unlashuvi shart. Bu hol o'z navbatida minglab so'zlarning talaffuzida artikulyatsion qulaylikka olib keladi. Masalan: *kelamiz, ketamiz, gullar, temirchilik; baramyz, qyishlag'ymyz, ortag'ymyz, buyryg'i* kabi.

Lab garmoniyasida unlilarning moslashishi ikki tomonlama bo'ladi. Bunda unlilar ham til oldilik va til orqalik, ham lablanish nuqtai nazardan moslashadi. So'zning boshida lablangan til oldi unlisi bo'lsa, so'z oxirida ham lablangan til oldi unlisi keladi. Bunday moslashishni hozirgi qirg'iz tilida uchratish mumkin. Masalan: *qollar, keldor, bolot, bolvoyt* va boshqalar. Lab garmoniyasi o'zbek tilida butunlay uchramaydi.

Singarmonizm hodisasi, yuqorida ta'kidlanganidek, turkiy tillardan boshqa tillarda yo'q. lekin bu hodisa turkiy tillarning o'zida ham bir tekisda uchramaydi. Masalan, boshqird, yoqut, qirg'iz tillarida singarmonizmning har ikki turi ham mavjud. Turkman tilida esa og'zaki nutqda asosan lab garmoniyasi uchraydi. Ko'pgina turkiy tillarda singarmonizmning tanglay garmoniyasi saqlangani holda labial garmoniya kamroq uchraydi yoki deyarli uchramaydi. Chunonchi, ozarbayjon, turkman, tatar, qozoq, uyg'ur tillarining ayrimlarida lab garmoniyasining elementlari bor, xolos.

Hozirgi o'zbek tilida va o'zbek tilining ayrim shahar shevalarida singarmonizmning har ikki turi ham deyarli yo'q, ayrim o'rinlarda uning qoldiqlari uchraydi, xolos. Qolgan bir guruh shevalarda singarmonizmning tanglay garmoniyasi ancha izchil uchraydi. o'zbek tilining ayrim shevalarida esa singarmonizmning tanglay garmoniyasi hozirgi kunga qadar to'la saqlanib qolgan. Bunga qipchoq shevalarining deyarli hammasi, o'g'uz shevalari va shimoliy o'zbek shevalari kiradi.

Eski o'zbek adabiy tilida esa singarmonizm qonuni ancha izchil va ayrim hollarda to'lig'icha amal qilgan.

O'zbek adabiy tilida ham ba'zan bir bo'g'inli so'zlarning struktur elementlari – unli va undosh tovushlar o'rtasida tovush qatorlari bo'yicha o'zaro xoslanish hollari ko'zga tashlanadi. Xususan, GS, SGS strukturali so'zlarda tovushlar palatal garmoniyaga muvofiq birikadi: *qil, xil, g'ish, bil, siz, jil* va boshqalar. Ba'zan old va orqa qator variantlari ma'no farqlash funktsiyasini ham bajarishi mumkin. Masalan, *tiq-tik*.

N.S.Trubetskoy ham turkiy tillardagi unlilar garmoniyasini e'tiborga olgan holda, yuqoridagi sakkizta fonologik qimmatga ega bo'lgan unlilar sistemasi mavjudligini va ular faqat birinchi bo'g'in uchungina xos ekanligini, keyingi bo'g'inlar unlisining tembr belgisi o'zidan oldingi bo'g'in unlilar ostida ularga muvofiqlashuvini, demakki, tebr oppozitsiyasi neytrallashuvini ta'kidlaydi.

O'zbek tili uchun singarmonizm o'tkinchi hodisa bo'lganligi uchun, bu tilda anglash (pertseptiv) va ajratish (delimitativ) funktsiyani leksik urg'u bajaradi. Singarmonizm elementlari esa qadimda amalda bo'lgan hodisaning qoldig'i sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek tilida ayrim affiksall morfemalarning bir necha palatal va akustik allomorflari mavjud. Bu allomorflar o'zak morfemaning fonetik xususiyatiga mos holda qo'llaniladi. Demak, bu hodisa morfonologiyaning o'rganish ob'ektidir. Masalan, jo'nalish kelishigining **-ga, -ka, -qa, -g'a, -a** variantlari mavjud. Ularning har qaysisining qo'llaniladigan shart-sharoitlari mavjud. Shuningdek, chiqish kelishigi akustik variantga: **-dan, -tan**. Ammo bunday xususiyat barcha affikslar uchun xos emas. Xususan, jo'nalish kelishigidan boshqa kelishik formalari palatal allomorflarga ega emas. Egallik, ko'plik affikslari ham old va orqa qator variantlariga ega emas.

Bir qator yasovchi affikslarda ham palatal variantlilik kuzatilishi mumkin. Masalan, *kichik, qiliq, tepki, suzgich, elak* kabi. Ayrim ikki bo'g'inli so'zlar tarkibida labial garmoniyaning ham qoldig'i uchraydi: *ulug', buyuk, ulush, kunduz, uchqun, turg'un, yugur* va boshqalar. Biroq singarmonizmning bu ikki ko'rinishi ham hozirgi o'zbek tili uchun qadimgi qonuniyatning izidir.

**Bilib oling!** O'zbek tilining ayrim shevalarida, xususan Namangan shevasida singarmonizmning boshqa ko'rinishi – affikslarning o'zak fonetik xususiyatiga moslashish emas, balki o'zak unlilarining affiks unlilari xarakteriga moslashishi kuzatiladi. Bunday moslik **umlaut** hisoblanadi. Umlaut uyg'ur tili va hozirgi o'zbek tilining namangan va paxtaobob shevasiga xosdir. Umlautning uch ko'rinishi – palatal, labial va lingvial turlari mavjud. Birinchi turda birinchi bo'g'inning orqa qator keng unlisi keyingi bo'g'inning tor lablanmagan unlisi ta'siriga berilib, old qator unliga aylanadi. Masalan, namangan shevasida *toshi-teshi*. Ikkinchi turda birinchi bo'g'inning keng lablanmagan unlisi keyingi bo'g'inning lablanmagan unlilari ta'sirida lablashadi. Masalan, paxtaobod shevasida *temir-to'mir*. Uchinchi turda og'izning ochilish darajasi o'zgaradi. Keyingi bo'g'inning tor i unlisi ta'sirida birinchi bo'g'inning old qator keng unlisi o'rta keng unliga aylanadi. Masalan, uyg'ur tilida *kesish-kasish*.

**Singarmonizmning undoshlarga ta'siri.** Singarmonizm aslida unlilarning moslashuvidan iborat bo'lsa-da, biroq u undoshlarga ham ta'sir qiladi.

Singarmonizmning undoshlarga ta'siri, asosan assimilyatsiya hodisasi tarzida yuz beradi. Lekin unlilar bilan undoshlarning moslashishida ba'zi bir farqlar ham bor. Masalan, unlilar garmoniyasida so'z boshidagi unlilarga so'z oxiridagi unlilar moslashadi, undoshlar garmoniyasida esa affikslardagi birinchi undosh so'z boshidagi undoshga emas, balki o'zakning oxiridagiga moslashadi. Undoshlarning moslashuvi jaranglashuv, jarangsizlashuv, burun tovushining ta'siriga uchrash, lablashish va shu singari tomonlardan bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, ba'zan singarmonizm doirasida regressiv assimilyatsiya hodisasi ham yuz beradi: *qatnadi* > *qannadi*. Ana shuning uchun ham singarmonizmli shevalarda morfologik qo'shimchalar variantlarning bir qismi affiksdagi unlilarning o'zakdagi unlilarga lablashish (yoki palatal garmoniyasi) jihatdan moslashuvi natijasida yuzaga kelgan bo'lsa, o'sha variantlarning boshqa bir qismi affikslardagi undoshlarning o'zaklardagi undoshlarga moslashishi natijasida yuzaga kelgandir. Masalan, *keldi* va *ketti* so'zlarining har ikkisida ham o'zakdagi va affikslardagi unlilar til oldi bo'lganligi sababli bu so'zlar palatal garmoniyasining yumshoq variantiga misol bo'la oladi. Lekin bulardagi affikslar har xil variantlardagi affikslardir. Bunga unlilarning moslashuvi emas, balki undoshlarning moslashuvi sabab bo'lgan. Haqiqatan ham, *kel* so'zining oxiridagi **l** undoshi jarangli undoshdir. Shuning uchun ham affiksdagi undosh jaranglilashgan. *Ket* so'zining oxiridagi undosh jarangsiz bo'lgani sababli, shu so'zga qo'shilgan affiksdagi undosh ham unga moslashib, jarangsizlashgan. Masalan, *qullik*, *borlik*, *hurlik*, *enlik*. Lekin singarmonizm qonuniga muvofiq unlilarningtuyg'unligi (moslashuvi) undoshlarning moslashuviga nisbatan hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shuning uchun ham ba'zi so'zlarda affiksdagi tovushlar o'zakdagi tovushlarga til oldi yoki til orqalik nuqtai nazardan moslashuvi shart bo'lgani holda jaranglilik yoki jarangsizlik nuqtai nazaridan moslashishi uncha shart bo'lmaydi. Masalan, *tiklash*, *buklash*, *tinchlik* kabi.

**Singarmonizmning morfologiyaga ta'siri.** Singarmonizm morfologiyaga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bu hol singarmonizm mavjud bo'lgan til va shevalardagi barcha affikslarning (morfemalarning) juft-juft bo'lib bir necha variantlarda uchrashida ko'rinadi. Affikslar variantlaridan bir qismi singarmonizm mavjud bo'lgan til va shevalarga xos bo'lgan so'zlarning o'zaklaridagi unlilarning xarakteriga moslashgan holda yuzaga kelsa, affiks variantlaridan boshqa bir qismi o'sha o'zakdagi undoshlarning xarakteriga moslashgan holda yuzaga keladi. Masalan, o'zakdagi undoshning burun tovushi ekanligi ta'sirida ba'zan affiksdagi undosh ham burun tovushi bo'lib keladi: *kunlar*→*kunnar*, *unlar*→*unnar* kabi. Singarmonizm mavjud bo'lgan til va shevalargadagi boshqa affikslar ham ana shunday yo'l bilan yuzaga keladi. Shunday qilib, singarmonizm qonuni mavjud bo'lgan tillarda affikslar (morfemalar) ham singarmonizm qonuniga binoan ish ko'radi. Singarmonizm qonuniga ko'ra o'zakka affiks variantlarining soni bir va ikki juftdan tortib, 3 va 4 juftgacha, hatto, nazariy jihatdan olinganda, 5 va 6 juftgacha ham borib yetishi mumkin. Masalan, o'zbek tilining qipchoq shevalarida –lar affiksining asosan 4 ta varianti uchraydi: **-zar**, **-lär**, **-nar**, **-när**: *qoylar*, *echkilär*, *otnyär*, *kelinnär*. Affiks variantlarining juft bo'lib ko'rinishi kelishik, shaxs, egalik qo'shimchalarida ham, fe'llarning affikslarida ham uchraydi. Masalan, qipchoq shevalarida qaratqich kelishigining **-ning/-nəng**, **-ding/-dɨng**, **-ting/-tɨng**, ba'zi

holda **-nung/-ngng** kabi variantlari uchraydi; egalik va shaxs affikslarining **-mən/-man**, **-sən/-san**, **-miz/-mız**, **-dik/-dıq**, **-tik/-tıq** kabi variantlari, fe'llarning esa **-lə/-la**, **-nə/-na**, **-dim/-dım**, **-tim/-tım** kabi variantlari mavjud. Bunday affiks variantlari soʻzlarning talaffuzini qulaytirishga va ayni vaqtda, tilning tabiiy simmetrik holatini (muvozanatini) saqlab qolishga xizmat qiladi.

### **Savollar**

1. Singarmonizm hodisasi nima?
2. Palatal garmoniya va labial garmoniyani ffarqlab bering.
3. Palatal garmoniyada unlilar qaysi belgilari bilan moslashadi?
4. Artikulyatsion qulaylik deganda nimani tushunasiz?
5. Labial garmoniyada moslashish necha tomonlama boʻladi?
6. Hozirgi oʻzbek tilida singarmonizmning qanday turi mavjud?
7. Qaysi shevalarda palatal garmoniya saqlanib qolgan?
8. Umlaut moslikni tushuntiring.
9. Pertseptiv va delimitativ funksiya deganda nimani tushunasiz?
10. Singarmonizmning undoshlarga qanday taʼsiri bor?
11. Singarmonizmning morfologiyaga taʼsiri qanday?

### **Tayanch termin va iboralar**

*Singarmonizm, palatal garmoniya, labial garmoniya, artikulyatsion qulaylik, umlaut, pertseptiv funksiya, delimitativ funksiya, tovushlarning moslashishi, tovushlar uygʻunligi, muvozanat, variant, jaranglilik va jarangsizlik, til oldilik va til orqalik, yumshoq varianti, qattiq varianti.*

## GLOSSARIY

**Aferezis** ham xuddi eliziya kabi sandhi holatda hosil bo'lgan ikkita qator unlidan birining reduktsiyalanishi. Sandhi holatda bir yerda keluvchi ikkita har xil unlidan birinchisining reduktsiyalanib, o'z artikulyatsiyasini yo'qotishi eliziya bo'lsa, xuddi shunday sharoitda ikkinchi unlining reduktsiyalanishi aferezis sanaladi. Masalan, *narsa < na ersa*, *nechun < ne uchun* va b.

**Aksentema** - urg'u.

**Allofroniya** (yun. allo "boshqacha", tronos "o'ylamoq, sezmoq") – 1) ziddiyat, qarama – qarshilik; 2) lisoniy birliklardagi har qanday siljishlar lisoniy birlik va uning ma'nolari o'rtasidagi o'zgarishlar mantiqdagi ziddiyat terminini lingvistik korrolyati. Masalan, besoqol, soqolsiz ma'nosi bilan birga "bachcha" ma'nosini ham ifodalaydi. Metafora, metonimiya, aksyumoron, enontiosemiya kabilar A.ning ko'rinishlaridir.

**Antropofonik** - akustik-artikulyatsion xususiyatlarining oddiy umumlashmasi.

**Apakopa** - fors-tojik hamda rus tili orqali o'tgan bir qator olinmalarning oxirgi bo'g'inida ikki va undan ortiq undoshlar qator kelishlari mumkin. Lekin bir bo'g'inda kelgan bu undoshlar og'zaki nutqda turkiy tillarning fonetik qonuniyatlariga moslashtiriladi va bir undosh tushirib qoldiriladi. Masalan, *go'sht-go'sh*, *g'isht-g'ish*, *barg-bak*, *vaqt-vaq* va *boshq.*)

**Artikulyatsion baza** ma'lum bir tilga xos bo'lgan nutq tovushlarini hosil qilishga muvofiqlashgan nutq apparati. Tovush artikulyatsiyasida uch holat bo'ladi: **Ekskursiya** tovush artikulyatsiyasining tovush hosil qilishga o'tish holati. **Pauza** tovush artikulyatsiyasining tovush chiqarish uchun pauza qilish (to'xtab olish) holati. **Rekursiya** artikulyatsion bazaning asl holiga qaytish holati.

**Artikulyatsiya usuli** - tovush hosil qilish paytida ikki organning bir-biri bilan jipslashishi yoki jipslashmay, oradan havoning o'tib ketishi uchun bo'shliq qolishi.

**Artikulyatsiya o'rni** - tovush hosil qilishda nutq organlarining ishtirok etgan qismi.

**Artofroniya** (yun. ortos "to'g'ri", tronos "o'ylamoq, sezmoq") – 1) ziddiyatsizlik 2) lisoniy birliklarning to'g'ri ma'noda qo'llanishi. Allofroniyaning (q.) ziddi.

**Assimilyatsiya** turkiy tillarda, xususan, o'zbek tilida keng tarqalgan hodisa bo'lib, nutqning moddiy zanjirida, ya'ni tovushlar ketma-ketligida ma'lum bir belgiga ko'ra ikkita noo'xshash undoshning so'zlovchining talaffuz qulayligiga intilishi tufayli o'xshash undoshga aylantirilishidir. Ko'rinadiki, muayyan leksema tarkibida ma'lum belgi asosida zidlanuvchi ikki undosh talaffuz noqulayligini bartaraf qilish harakati tufayli zidlanish belgisini yo'qotadi, bir xil undoshlarga aylanadi. Natijada leksemaning og'zaki so'zlashuv varianti – uslubiy varianti maydonga keladi. Masalan, *tarnov- tannov*, *shirmoy non- shirmonnon*, *badtar- battar* kabi.

**Artofroniya** (yun. ortos "to'g'ri", tronos "o'ylamoq, sezmoq") – 1) ziddiyatsizlik 2) lisoniy birliklarning to'g'ri ma'noda qo'llanishi. Allofroniyaning (q.) ziddi.

**Bo‘g‘in** – fonetik birlik, o‘pkadan chiqayotgan havoning muayyan oraliqda bir zarb bilan o‘tib ketishi.

**Delimitativ funksiya** – ajratish funksiyasi, bu funksiyani leksik urg‘u bajaradi.

**Differensial belgilar** – farqlovchi belgilar.

**Dissimilyatsiya.** Leksema nomemasi tarkibidagi ma‘lum belgisiga ko‘ra ikki o‘xshash undosh tovushning so‘zlovchining talaffuz qulayligiga intilish harakati tufayli o‘xshash belgilarning yo‘qotilishi dissimilyatsiya hodisasini keltirib chiqaradi. Bunday hodisaning ro‘y berishi esa leksema nomemasining og‘zaki so‘zlashuvga xos variantining hosil bo‘lishiga olib keladi.

**Eksperimental fonetika** - nutq tovushlarining fiziologik va akustik xususiyatlarini turli xil asbob-uskunalar yordamida o‘rganadi. Tekshirishning ushbu usuli nutq tovushlarining alohida belgi-xususiyatlarini aniq belgilashga imkoniyat yaratadi.

**Eliziya** sandhi holatda qator kelgan har xil turdagi ikki unlidan birining tushib qolishi hodisasidir. Sinerezis hodisasida qator kelgan unlilar o‘zaro birikib, bir unliga aylansa, eliziya hodisalarida bu unlilardan biri tushib qoladi<sup>2</sup>. Ana shu xususiyatlari bilan bu hodisalar bir-biridan farq qiladi.

**Faringallik belgisi** – bo‘g‘izda hosil bo‘lish belgisi.

**Fuziya.** Turkiy tillarning aglyutinativ tabiati barchaga ma‘lum. Aglyutinatsiyaning fuziyadan muhim farqlovchi belgilari sifatida har bir grammatik ma‘noning alohida-alohida shakllar yordamida ifodalaniishi, grammatik ma‘noni ifodalovchi grammatik shakllarning ko‘payishi bilan so‘zning chapdan o‘ngga qarab cho‘zilib borishi, leksik va grammatik morfemalarning bir-biriga qo‘shilish chokining ajralib turishi, shuningdek, grammatik shakllarning qo‘shilishi o‘zak morfema-ning fonetik tuzilishini o‘zgartirmasligi kabi belgilar ta‘kidlanadi.

**Fonetik so‘z** – taktning (agar taktga ajralmasa, frazaning) qismi bo‘lib, bir urg‘uga ega bo‘ladi. Fonetik so‘z leksik va grammatik ma‘nodagi so‘zga teng kelishi ham mumkin. Masalan, *Mehr nuri yog‘ar doim yuzingizdan, ustozlar da oltita fonetik va oltita leksik so‘z mavjud; Derazamning oldida bir tup o‘rik oppoq bo‘lib gulladi* jumlasida sakkizta leksik-grammatik, lekin oltita fonetik so‘z mavjud.

**Fonetik transkripsiya** nutq tovushlarining talaffuz xususiyatlarini aks ettirish uchun ishlatiladigan belgilar sistemasi.

**Fonetika** – (gr. Phone - tovush) tilning keng ma‘noda tovush tuzilishini o‘rganuvchi tilshunoslikning bo‘limi. U tovushlar bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday hodisalarni tekshiradi. Shu sababli unga tilning faqat tovush tizimini tekshiruvchi bo‘lim sifatida qarash noto‘g‘ri.

**Fonologiya** – tilshunoslikning alohida bo‘limi bo‘lib, fonemalarning farqlovchi belgilarini o‘rganuvchi fan.

**Fonologik tasnifda** fonemalar paradigmatic va sintagmatik jihatdan qaraladi.

**Geminatlar** – cho‘ziq undoshlar. Geminatlar turkiy tillarda keyingi hodisa bo‘lib, ikki yo‘l bilan hosil bo‘ladi: 1) oldingi qisqa undoshning ikkilanishi, cho‘zilishi natijasida; 2) sintagmatik munosabatga kirisha-yotgan morfema yoki so‘zlar oralig‘idagi yonma-yon kelgan ikki xil undoshning o‘zaro assimilyativ yoki dissimilyativ ta‘siri natijasida (masalan, **siz+ni** – **sizzi** – **sizi**)

**Grafema** - bir nutq tovushining emas, balki nutq tovushlaridan ikkitasining birikmasini ifodalaydigan (e, yo, yu, ya) shakllar.

**Intonema** – ohang

**Irrelevant belgi** – ikkinchi darajali, qo‘shimcha, chegara belgi.

**Jarangli-jarangsizlik** belgisi ham undoshlarning fonologik muhim belgi sanaladi. Bu belgi asosida undoshlar o‘zaro privativ zidlanishga kirishadi. Jarangli undoshlar bunday belgiga ega, markerlangan, jarangsiz undoshlar esa ega emas, markerlanmagandir.

**Jumla** – nutqning bir va undan ortiq so‘z vositasida ma’lum fikr ifodalash maqsadida hosil qilingan nutq birligi.

**Kenglik va torlik belgisi** – unlilarning asosiy belgilaridan bo‘lib, og‘izning ochilish darajasiga xos belgi.

**Kombinator varianlar** - fonemalarning talaffuzdagi turlari.

**Konstituentiv munosabat** - “...dan tashkil topadi”, “...ga kiradi” sxemasini o‘zida namoyon etadi.

**Konstituent** – ma’lum sath birligining tarkibiy qismi.

**Korrelyativ belgi** – zidlanayotgan fonemalarning birida bor birida yo‘q bo‘lgan belgi.

**Ko‘chim** – Muayyan bir asosga (narsa va hodisalar orasidagi o‘xshashlik, aloqadorlik, vazifadoshlik va boshq.) tayangan holda bir so‘zning boshqa bir so‘z o‘rnida qo‘llanilishi. Ko‘chimning metafora, metonimiya, sinekdoxa singari turlari ko‘pchilik tomonidan e’tirof etiladi.

**Lablanishlik-lablanmaslik belgisi** – unlilarning asosiy belgilaridan bo‘lib, labning ishtirokiga ko‘ra farqlovchi belgi.

**Markerlangan** – ma’lum belgiga ega.

**Melodika** – akustik sathda asosiy ovoz chastotasining o‘zgarishiga olib keluvchi tovush paychalari tebranish chastotasining o‘zgarishi.

**Metafora** (yun. metaphora “ko‘chirish”) – so‘z va birikmalar orqali ifodalangan narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanuvchi ko‘chim turi. Masalan, Qozonchining qo‘lida qaydan quloq chiqarsa (maqol). Misolidagi qozon qulog‘i ma’nosi odam qulog‘iga tashqi o‘xshashlik asosida maydonga kelgan. M.mohiyatan yashirin o‘xshatish bo‘lib, unda o‘xshatilayotgan narsa tilga olinmagani holda, uning ma’nosini o‘xshayotgan narsani ifodalovchi so‘z bildiradi. O‘xshatishning to‘rt elementli ichki strukturasi (o‘xshatish sub’ekti, o‘xshatish etaloni, o‘xshatish ko‘rsatkichi, o‘xshatish asosi:) Masalan, Paxta oltindek qimmat o‘xshatishda paxta – o‘xshatish sub’ekti, oltin o‘xshatish etaloni, -dek o‘xshatish ko‘rsatkichi, qimmat – o‘xshatishga asos bo‘lgan belgi. O‘xshatishli qurilmalarda bu strukturaning har biri ma’lum lingvistik ko‘rsatkichlar orqali eksplitsit (oshkora) ifodalansa, metaforada yuqoridagi strukturalar mazmunan yashirin saqlangani holda, moddiy jihatdan o‘xshatiluvchi, narsalar nomi orqali ixcham holda imlitsit ravishda ifodalanadi. Albatta, bu o‘rinda o‘xshatilayotgan narsa va hodisalarning aynan o‘xshashligi talab qilinmaydi, balki ikki narsa – hodisaga xos belgilardan birortasi asos uchun olinadi. Masalan, oltin kuz, oltin davr birikmalarining birinchisida o‘xshatish asosi uchun “rang”, ikkinchisida “qimmat” belgisi olingan.

**Metonimiya** (yun. metonymia “qayta nomlash”) – soʻz va birikma orqali ifodalangan narsa va hodisalar orasidagi aloqadorlikka asoslanuvchi koʻchgan turi. Narsalar va hodisalar oʻrtasidagi aloqadorlik turlicha boʻlishi mumkin. Masalan, Muallif va uning asari oʻrtasidagi (Navoiyni oldim qoʻlimga), joy va joy bilan bogʻliq shaxslar oʻrtasidagi (Butun shahar uyquda) va boshqa aloqadorliklar.

**Metateza.** Leksema nomemasining variantlari tilda amal qiladigan metateza hodisasi tufayli ham koʻpayadi. Metateza har qanday tilning ham diaxron, ham sinxron holati uchun mansubdir. Bunday holatdan oʻzbek tili ham mustasno emas.

**Nazallik belgisi** – Nazallik lotincha «burunga oid» maʼnosini ifodalaydi. Bu belgi boʻlgan unlilarda tanglay pardasining tushishi va havo oqimining bir vaqtda ogʻiz va burun boʻshligʻidan oʻtishi natijasida tovush burun tembriga ega boʻladi. Buning natijasida ogʻiz unlisi burun unlisiga aylanadi.

**Nodifferensial belgilar** – farqlanmaydigan belgilar.

**Nutq apparati** nutq tovushlari hosil boʻlishda ishtirok etuvchi nutq organlarining yigʻindisi.

**Palatal** – ingichka yoki yumshoq belgisi, tilning oʻrta qismining qattiq tanglay (palatum)ga koʻtarilishi natijasida yuzaga keladi, yaʼni undosh fonemalar old qator unlilari bilan kelganda ingichka, yumshoq talaffuz qilinadi.

**Pauza** – toʻxtash, nutq jarayonida fonatsiyaning toʻxtalishi.

**Paydo boʻlish usuliga** koʻra undoshlarning oppozitsiyasi ikki belgiga asoslanadi: portlovchilik va sirgʻaluvchilik. **P, b, t, d, m, n, ng, k, g va q**-portlovchilar; **f, v, z, s, sh, l, r, y, x, h** -sirgʻaluvchi; **j** va **ch**-portlovchi-sirgʻaluvchilardir. **ch** va **j** ham portlovchilar bilan ham sirgʻaluvchilar bilan zidlanib, bir qancha farqlovchi belgilarga ega.

**Pertseptiv funktsiya** – anglash funktsiyasi, bu funktsiyani leksik urgʻu bajaradi.

**Polisillabik soʻzlar** – koʻp boʻgʻinli soʻzlar.

**Proteza - fonetik moslashtirish.** Soʻz boshida tovushlar mosligi natijasida leksema variantlarining ortishi muammosi dastlab Mahmud qoshgʻariy tomonidan bayon qilingan edi. Xususan, u qipchoq, oʻgʻuz tillarini hoqonicha turkcha tilga qiyoslar ekan, hoqonicha turkcha leksemalar boshidagi [y] undoshi qipchoq tillarida doimo [j] ga, oʻgʻuz tillarida esa nolga aylanishini bayon qiladi. Masalan, turkcha jinji, qipchoqcha jinji, oʻgʻuzcha inji.

**Qator belgisi** – unlilar qoʻshimcha belgisi boʻlib, old qator va orqa qator unlilariga boʻlinadi.

**Qiyosiy fonetika** - qarindosh tillarning tovush sistemasi munosabatlarini oʻrganadi. Masalan, turkiy tillarning qiyosiy fonetikasi, slavyan tillarining qiyosiy fonetikasi kabi.

**Relevant belgi** – asosiy, markaziy belgi.

**Senment** – nutqning eng kichik boʻlagi.

**Segmentatsiya** – nutqning boʻlinish jarayoni.

**Sillabema** – muayyan maʼno farqlash xususiyatiga ega boʻlgan boʻgʻin.

**Sinerezis** qator kelgan ikki unlining bir unliga aylanish hodisasidir.

**Sinekdoxa** (yun. synekdoche “nisbat berish”) – soʻz va birikma orqali ifodalangan narsa – hodisalarning butun – boʻlak aloqasi asosidagi maʼno koʻchishi. Masalan, Faqat shu yer yaqin yurakka,

Faqat shunda quvonar ko‘zlar. (M.Yusuf)

Bu misrada ko‘z odam ma’nosida, tirnoqqa zor birikmasida tirnoq farzand ma’nosida ishlatilgan.

**So‘z** – leksemalarning nutqdagi reallashgan shakli

**Takt** – frazaning qismi bo‘lib, o‘z navbatida, kichik birliklardan – fonetik so‘zlardan tashkil topadi.

**Tavsifiy fonetika** - yoki fonologiya ma’lum bir til taraqqiyotining ma’lum bir davri oralig‘idagi tovush sistemasini o‘rganish bilan shug‘ullanadi.

**Tarixiy fonetika** - ma’lum bir tilning tovush sistemasini tarixiy rivojlanishda o‘rganadi, ya’ni til taraqqiyotining turli davrlarida tovush sistemasidagi tarixiy o‘zgarishlarni, ularning o‘zgarish sabablarini tekshiradi.

**Temp** – tovushlarning cho‘zilishiga olib keluvchi artikulyatsiya tezligining o‘zgarishi.

**Til o‘rta undoshlari** til o‘rtalik belgisiga ko‘ra bir paradigmani hosil qiladi. Demak, ularning bir paradigmaga birlashuvida ana shu belgi fonologik muhim belgi sanaladi.

**Til orqa (uvulyar) undoshlari** til orqasida paydo bo‘lish belgisiga ko‘ra bir paradigmani tashkil etadi. Demak, bu belgi ushbu paradigma a‘zolari uchun birlashtiruvchi (integral) belgi vazifasini bajaradi. Shuning uchun u har bir paradigma a‘zosida takrorlanadi. Chunonchi k, g, ng, q, g’, x undoshlari ana shu belgiga ko‘ra birlashadilar.

**Tovush balandligi** – tovush intensivligining o‘zgarishiga olib keluvchi artikulyatsion harakatlar kuchining o‘zgarishi.

**Tovush bosimi** odam quloqidagi pardaga tovush to‘lqinining ta’sir kuchi.

**Transliteratsiya** - biror yozuv harflarini boshqa bir yozuv harflari bilan almashtirib ifodalash usuli.

**Troplar** (yun. tropos “ko‘chim”) – q. ko‘chimlar.

**Umlaut** – o‘zak unlilarining affiks unlilari xarakteriga moslashishi. Masalan, namangan shevasida **toshi-teshi**.

**Umumiy fonetika** - turli tipdagi tillarning nutq tovushlarining xilma-xilligini o‘rganuvchi bo‘lim.

**Unli fonemalar** hozirgi o‘zbek tilida ikki belgi asosida tasniflanishi maqsadga muvofiq:

1) og‘izning ochilish darajasiga ko‘ra: keng, o‘rta keng (o‘rta tor), tor;

2) labning ishtirokiga ko‘ra: lablangan, lablanmagan.

**Unlilar reduktsiyasi.** Bir bo‘g‘inli leksemalarda hamda ikki bo‘g‘inli leksemalarning birinchi bo‘g‘inidagi sonor undoshlar oldida kelgan tor unli sonor undosh ta’sirida reduktsiyaga uchraydi. Masalan, b(i)lan, b(i)roq, s(i)ra, b(i)r kabi.

**Uvulyar belgi** – til orqa undoshlar.

**Velyar** –qalinlik belgisi bo‘lib, bu belgi tilning orqa qismining yumshoq tanglay (velum)ga ko‘tarilishi natijasida vujudga keladi, ya’ni undosh fonemalarning har biri orqa qator unlilar bilan kelganda qalin talaffuz qilingan.

**Cho‘ziq - qisqalik belgisi** – miqdoriy belgi bo‘lib, bu belgiga ko‘ra unlilar cho‘ziq unlilar va qisqa unlilarga bo‘linadi.

## MUNDARIJA

|                                                        |    |
|--------------------------------------------------------|----|
| SO‘Z BOSHI.....                                        | 3  |
| FONETIKA HAQIDA UMUMIY MA‘LUMOT.....                   | 4  |
| FONETIKA VA FONOLOGIYA.....                            | 7  |
| TILSHUNOSLIK MAKTABLARIDA FONEMA NAZARIYASI.....       | 11 |
| O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA FONOLOGIK QARASHLAR.....        | 15 |
| O‘ZBEK TILI VOKALIZMI.....                             | 17 |
| O‘ZBEK TILI KONSONANTIZMI.....                         | 28 |
| FONOLOGIK ZIDLANISHLAR.....                            | 50 |
| AKUSTIKA VA ARTIKULYATSIYA.....                        | 53 |
| TRANSKRIPSIYA.....                                     | 57 |
| NUTQ APPARATI.....                                     | 65 |
| NUTQNING FONETIK BO‘LINISHI .....                      | 68 |
| PROSODIKA.....                                         | 71 |
| FONETIK O‘ZGARISHLAR.....                              | 82 |
| O‘ZBEK TILIDA SINGARMONIZM TA‘SIRIDA O‘ZGARISHLAR..... | 93 |
| GLOSSARIY.....                                         | 97 |



# **O‘ZBEK TILI FONETIKASI**

O‘QUV-USLUBIY QO‘LLANMA

Мухаррир  
Техн.муҳаррир  
Саҳифаловчи

А.Умаров  
Ф.Усмонов  
Н.Юнусов

Теришга берилди 11/04/2016 й. Босишга рухсат этилди 10/05/2016 й.

Бичими: 84x108 <sup>1/16</sup>. Times New Roman гарнитураси. Офсет қоғози.

Офсет босма усулида чоп этилди .Шартли босма табағи: 20. Нашр босма табағи: 21,5.

Адади: 100 нусха. Буюртма: № 3. Бахоси келишилган нархда.

**Манзил:** Андижон шаҳар.Университет кўчаси. АДУ кичик босмахонаси. 129-уй.304-хона.